

AHMAD A'ZAM

ACQARTOG' TOMONLARDA

Qissa

*O'z vujudingga tafakkur aylagil,
Har ne istarsen — o'zingdan istagil...*

Alisher Navoiy

Yo'-o'q, turmushimdan ko'nglim to'lmay, hayotdan noroziligim yo ishlarim yurishmay, shu yashayotgan joyimda nojoyligimdan emas, nimadanligini o'zim ham bilmayman, tushuntirishim qiyin, ammo mudom nimalarnidir qo'msayman, allaqayoqlarga ketgim, o'sha yoqlarda o'zimga ham noma'lum ishlarni qilgim, bu ishlardan ko'nglim to'lib, ko'kragimni mundaq bemalol ko'tarib yurgim kelaveradi, lekin hech qayoqqa ketmayman, biron narsa to'g'anoq bo'lganidan, ketolmasligimdan emas, o'zim, o'zim ketmayman, eh-h, ketsammi, a, deyman, ketvorsammi, a, deyman, ketsam—zo'r-a, deyman, ko'zimni yumib, o'sha borar joyimdagi ajoyib hayotni, o'zim amalga oshiradigan ajoyib ishlarni xayol qilaman, hozir shundoq o'rnimdan turaman-da, ko'chaga chiqib, o'tayotgan biron mashinaga qo'l ko'taraman, deb chog'lanaman, xayolimni biri biridan baland, shirin orzularga to'ldirib entikaman, ammo uchishga shaylangan qanotlarimni elkamga mahkam jiplab, o'rnimdan qo'zg'almay o'tiraveraman—bir turtki, bir harakat etishmaydi, ketay-ketay deganimda ichim huvillab, bo'm-bo'sh bo'lib qolaman.

Tongda uyg'onaman, butun borlikni mahv etib, lak-lak, ming-ming tuman qo'shunday bostirib kelayotgan muzaffar, ustivor nurlar derazadan yopirilib kiradi, ko'nglimga bir yaxshi, qudratli rejalar qo'yiladi, sakrab turib shu ishlarni boshlab yuboray deyman, hozir, mana, hozir turyapman, turdim, deb shaylanib yotaveraman, tong tamom otadi, butun atrof yorishadi, oftob ham yoyilib, nurlari ham boyagi ustivor ma'nosini yo'qotadi, hali ham yotgan bo'laman, bir mahal — endi yotishga imkon yo'qligidan, shuursiz holda ko'rpadan chiqaman, hech narsani o'ylamay kiyinaman, birdan turmush tashvishlariga o'ralaman, ruhim so'lishib, ko'chaga chiqaman.

Ko'chaga chiqib ko'raman: hamma yakdil bir olomon bo'lib, qayoqlargadir — men borolmaydigan tomonlarga otlangan, bir-birini tanimaydi, lekin barisi ham o'sha tomonlarga ketyapti.

Tushda ko'chaga qarasam ham, kechda qarasam ham shu ahvol: hamma bir yoqqa, men bilmaydigan tomon-larga ketyapti.

Birodarlar, nega meni tashlab ketyapsizlar, degim keladi.

Davralarda o'tiraman, suhbatlarga quloq tutaman: yaqinlarim, do'stlarim ham men ko'rmagan narsalarni gapirishadi, menda yo'q tashvishlarni aytishadi, hatto uylarida xotin bilan g'ijillashganini hasrat qilishsa ham, go'yo men bilmaydigan, menga nasib etmaydigan ajab sarguzashtlarni naql qilishayotganday, g'alati ahvolga tushaman, atrofimdagi odamlarning hammasi yangi, dunyoga endigina kelib, barcha narsadan hayrat topishayotganday, o'zim esa eskirib qolganday, tobora eskirib borayotganday bo'laveraman, hammasiga havasim keladi.

Nega — bilmayman.

Nimanidir yo'qotgandayman, nimadir etishmaydi menga, lekin nima shu— bilolmayman, bir yoqlarga ketgim keladi, bu istak hozir qilayotgan ishim, juda to'kin-sochin bo'lmasa-da, har tugul, boshqalardan hech kami yo'q turmushimga nisbatan g'alati tuyuladi, yana nima kerak ekan menga, deb juda ko'p o'ylayman, o'yimni topolmayman, ichimda nimadir sekin-sekin, juda sekin, bilintirmay nurab borayotganday, darrov bu nurashni to'xtatishim kerakday, yuragimning avvalgi shahdi pasayib, gavdamdagi kuch asta sizib to'kilayotganday, o'zim esa hamma narsaga kechikib yashayotganday, chora izlab qolaman, tezroq-tezroq, deyman, shoshilaman, ulgurmayman, ortga qaytayotganday bo'laveraman.

Meni olib ketgani sarhad ortidan etmish-sakson yillik yo'lga chiqqan oq ot endi soat sayin, daqiqa sayin jadallayotganday, tobora tezroq yo'l tortib kelayotganday bo'lib, o'zimni omonat bilib qolaman, dunyoni, oilamni, ishxonamni, odamlarni, tevarak-atrofimni o'zimsiz tasavvur qilib, ko'nglim buziladi...

Bundan ko'-o'p yillar oldin Bahri Muhitdagi baliq ovlovchi kemalarga odam chaqirilayotgani, xohlovchilarning shu o'zimizning shahardagi falon ko'cha, faloninchi uydagi idoraga borib yozilishlari mumkinligi xaqida e'lon o'qidim. Qani edi, men ham uzoqroq joylarga borib kelsam, deb yurgan kezlarim edi, e'lonni o'qib qanot bog'ladim: juda oson ekan — bir mavsum, uch-to'rt oyga, o'sha idoraga hujjat topshirsam, idora menga yo'llanma berar, chipta to'g'rilar ekan, hayt, Bahri Muhit, qaydasan, deb ketaverar ekanman! Juda borgim keldi, bormoqchi bo'ldim, tumshug'i bilan to'lqinlarni xanjardek tilib suzayotgan baland kemani, kemanding ustida oyoqlarimni kerib, ko'm-ko'k lopillayotgan suvlarni ol shafaq rangiga bo'yab botayotgan quyoshni tomosha qilishimni ko'z oldimga keltirib, tinchim tamom buzildi. Nima bu — it yotish, mirza turish, ijarama-ijara sarsonlik, shu ham yashashmi, ketaman, bo-rib dunyoni ko'raman, sayru sayohat qilaman, bahonada uch-to'rt ming ishlayman, kelib eskiroq xovlichami yo bir xonali kooperativ uymi olaman, deb o'yla-dim. Bir bosh, bir qulog'im, tashlab ketishga ko'zim qiymaydigan sevgilim yo'q, bor bisotim bitta ko'rpa bilan o'ttiz chog'li kitob, ixtiyorim birovda emas, qishloqdagi onam bo'lsa, uch-to'rt oy bu erda bo'lmasligimni bilmaydi ham, ishi ko'payganidan kelolmayapti, deb yuraveradi — Bahri Muhitga ketish niyatim avvaliga shunday jo'yali ko'rindi.

Lekin u bo'lib, bu bo'lib, ishxonamizdan ikki qadam naridagi o'sha idoraga o'tmadim, ertaga, ertaga bilan ko'klam o'tdi, yoz ham keldi, shaylanib yuraverdim, keyin kim-qaydan qanaqadir sabablar chiqdi, ketsam, buyoqdagi narsalardan quruq qoladigandek bo'laverdim, Bahri Muhiti qochib ketmas, kelasi yili ham odam chaqirar, juda shunaqa zo'r joy bo'lsa, o'n ming chaqirim uzoqdan odam so'raydimi, hech kimning ko'zi uchib turmagandir-da, avval dissertasiyani tugatib, uyoq-buyog'imni yig'ishtirib olay, keyin ko'ngilxotirjam, bemalol boraman, degan o'ylar chiqdi, bu gaplar ketish xomxayolidan xam pishiqroq ko'rindi.

Mana, yoqlar ham, uylanar ham ekanman, uyli-joyliman, xotirjam, bemalol bo'lishim kerak edi, ammo ko'nglim notinch, yil o'tgan sayin o'rtnaman, qayoqlargadir ketgim keladi, go'yo xazinaga kirib, hech narsa olmay, olgisi kelmaganidan emas, qadriga etolmaganidan qup-quruq chiqayotgan odamday, turmushimni qaytadan boshlagim, qayta boshdan yosharib, borolmay qolgan joylarimga borgim kela-di, rejalar tuzaman, ammo niyatimning o'zi ham ishonchsiz chiqadi, ko'ngil shuni qo'msayapti, deb, he yo'q, be yo'q, maqsad-bemaqsad biron yoqda jo'nab qolishni kallamga sig'dirolmayman, ammo istakni ham o'ldirolmayman, uzoq-uzoq yurtlarni kezib qaytgan odamlar gurung berib qolsa, ko'ksimda yurak emas, bir changal uvada bulkillayotganday, bo'shashib qolaman.

Go'yo kimlardir — menga juda ishongan odamlar uzoq yo'lga umid bilan ko'zatib qo'yishgan-u, endi men ularning ishonchlarini o'ldirib, yo'lning yarmida kapa qurib olib, naryog'iga yurgim kelmayotganidan, mendan, umuman inson zotidan umidlari qaytib, norozi qarab turishganday...

Ofiyat—hindshunos, o'qiyotganida o'n oy Hindistonda amaliyot o'tagan, har zamon-har zamon o'sha vaqtlari qilgan tomoshalarini gapiradi, menga Hindiston faqat tomoshadan iborat bo'lib tuyuladi, ayol boshi bilan shunday ajoyib narsalarni ko'rgan-a, deb xotiningga hasadim keladi, xotiralarini so'zlayotganida o'zimning qashshoq, qiziqarsiz odamligimdan ko'nglim cho'kadi.

Odamning tabiati shunday: agar hamsuhbatingiz qandaydir muhim, qiziqarli bir narsani hikoya qilsa, sizning ham shunday qiziq gaplarni aytgingiz, latifasiga latifa bilan javob qaytaringiz keladi, undan qolishmaslikni istaysiz, bordiyu shunday gaplaringiz bo'lmasa, hamsuhbatingizdan katta qarz olib, bu qarzni qaytarolmaslikdan ezilib o'tirgan odamning ahvoliga tushasiz. Men Ofiyatning Hindistonni eslashlariga teng nimani ham gapiraman, ha, zo'r, juda ajoyib yashaydi bu hindlar, sigirni xudo bilishadi, jonzotga ozor berishmaydi, o'qiganman, tarixi juda qadim deyman, ichimdan zil ketaman, unga bag'rim torlik qilayotgandek, o'zimni unga nomunosib bilib, shundoq ajoyib ayolni aldab xotin qilib yurgandek bo'laman.

Kal kuttani aylanib yurishganda, to'satdan shov-v etib jala quyibdi-da, bir pasda hamma yoqni suv bosib, ko'chalar tizza bo'yi burqirab oqa ketibdi. Musson degani shunaqa — bir yog'ishda daryo-daryo suvlarni to'kib tashlar ekan. "Bir vaqti ko'chaga qarasam!.. Odamlarning hovlisidagi iflosgacha yuvib chiqibdi. Shunday uyaldim! Yig'lamay deyman, ko'chaga ko'zim tushib yana yig'layman.

Bir do'konning oldida turib qoldik, na uyoqqa yurib bo'ladi, na bueqqa. Men bilan birga... yurgan kishi oq shimini tizzasigacha shimarib, meni ko'tarib oldi. Battar yig'lay-man, u kishi bo'lsa, zarari yo'q, Ofiyat, yuvsu ketadi, suv hamma narsani toza qiladi, deb g'uldiraydi. Shu kishi yonimda bo'lmasa-ku, e-e, o'lsin shu yomg'iri ham, deb qo'l siltardim. Qiz bola, yoningda erkak odam turib, atrofing to'la ifloslik bo'lsa, juda uyalar ekan..."

Institutdagi yoshlar Namanganga — Nishonalining to'yiga borgan edik, qaytyapmiz, vagon tiqilinch, yotishga joy yo'q, siqilishib o'tiribmiz. Ofiyat ikkimizdan boshqa hamma uyquda, dunyo uxlayapti, faqat ikkalamiz bir-birimizni ko'rib o'tirish, dildorlik qilish uchun o'yg'oqmiz. Shirin mudroqda ko'zim ketib, o'zimni Kal kutta ko'chasida, yomg'ir yog'ayotgan iliq kechada, Ofiyatni ko'tarib ketayotgandek his qilaman, uning sochlaridan kelayotgan juda ingichka bir hindiy mushk isi boshimni aylantira-di, ko'kraklarim kengayib, mushaklarim taranglashadi, tobora kuchli bo'lib boraman, Ofiyat boshini elkamga qo'yib, to'xtab-to'xtab chuqur-chuqur nafas olganicha o'sha yomg'irli Kal kuttani hikoya qiladi, har zamon-har zamon derazaga lopillab urilib o'tgan chiroqlar yorug'ida ko'zlaridagi yosh yarq etadi, ta'sirlanib o'tiraman: ayol kishi odamni o'ziga yaqin olmasa, xususan xotirasini, ayniqsa uyalgan holatlarini, yana kechasi yig'lab gapirmaydi. Ofiyat shu kuyi—boshi mening elkamda, gapirib-gapirib uxlab qoldi, saldan keyin men bilan ko'p marta shunday o'tirib, o'rganish bo'lib ketganday, ikkalamiz o'rtamizda odatga aylanganday, uyqusida, ko'zini ochmay, tabiiy ixtiyori bilan qo'limni elkasidan o'tkazdi-da, qo'ltig'imga kirdi, boshini ko'kragimga o'ng'ay qo'ydi, uyqum uchdi: hozir Ofiyat o'sha Kal kut-ta ko'chasini, o'zi ko'tarib olgan o'sha odamni tush ko'rmayaptimi, uyqu bilan meni o'sha odam deb o'ylab, qo'ynimga kirmayaptimi?

Kal kutta faqat xotirami? Kim edi o'sha odam Ofiyat uchun?

Bilaman, bir chegara bor, Ofiyatning men bilan tanishgunga qadar, balki tanishganimizdan keyin ham, men bilmaydigan, extimol bilishim ikkalamiz uchun ham yaxshilikka olib kelmaydigan boshqa bir dunyoda yashaganini, o'sha dunyoning sarhadlari to'yimizda adoqqa etganini, o'ziga yarasha chiroyli bir qizning hali tanimagan, daragini xam eshitmagan, dunyoda bor-yo'qligi noma'lum, uchratishini faqat taqdir-tasodif belgilaydigan bir yigitga o'zini atab, yakkash uni kutib, o'ziga gard yuqtirmay yashashi mumkin emasligini, tabiiyki, uning kimdir aniq yigitlar bilan gaplashgani, so'zlashgani, o'rtada do'stlikmi, qadrdonlikmi, extimolki, sevgimi bo'lganini taxmin qilaman. Hindiston xaqida gapirayotib, u erga bordik, bu erni ko'rdik, ovqatni qi-zil qalampir bilan qovurishar ekan, zo'rg'a edik, degan paytlarida hamisha yonida "birga yurgan ki-shi" bo'lganini, gapirib berayotgan voqealari kemtik, chalaligini, o'sha kishiga tegishli joylarini tashlab o'tayotganini, xotiralariga xalal berib turganimni ko'nglim sezadi—uning qizlik hayotidan xotiralarini sarhad oshib, mening ko'nglimga ham shu tarzda mubham sezimlar, asosli-asossiz rashklar soladi, bir vaqtlar hali taqdirini bilmagan, o'zi-ga suyanchiq, umrlik yo'ldosh axtargan, boshchisiz, egasiz, ko'ziga yaxshi ko'ringan yigitdan umidini izlab yurgan qiz narsaning ahvoliga yuragim achishadi, ba'zan-ba'zan choy ustidami, gaplashib o'tirgandami, radiodan ashula tinglagandami, yo'l

qarab qolgan paytlari Ofiyatning ayni shu tobda uzoq-uzoqlarga ketib, o'sha dunyoda xali menga turmushga chiqmay, meni o'ylamay, mensiz erkin, ozod yashayotganini ko'zlaridan ko'rib turaman...

Odamning umri tasodiflardan to'qilgan. Men adabiyotga qiziqmasligim, adabiyotni deb viloyat markaziga o'qishga kelmasligim, kelganim taqdirda ham, imtihonlardan yiqilib yo mandatdan o'tolmay, qishloqqa qaytishim, boshqa bir kasbning boshini tutib, hozir boshqa joyda kun ko'rib yurishim ham mumkin edi. Lekin, harchand urinmay, hozirgi yurish-turishimdan boshqacha, o'zimning shu kunda boshqa joyda o'zga bir ish bilan mashg'ul bo'lishimni tasavvur qilolmayman. Shunday o'ylasam, xayolimda o'zim emas, butkul o'zga, yuz-ko'zi, qaddi-basti menga o'xshash, ammo tamomila begona odam gavdalanadi, hayotim xuddi shu tarzda o'zgarib ketganda, men yo'qolib, o'rnimni etti yot odam egallashi mumkinday. Holbuki, bilaman, o'qishga kirolmasam, dunyo tugab qolmasdi, o'lmasdim, o'lmagan qul - ko'raverardim, ammo o'zim boshqa, xotanim boshqa, demakki, bolalarim boshqa... qandaydir aqlga sig'maydi, bosinqirashga o'xshaydi: Ofiyat bilan emas, hozir etti uxlab tushimga ham kirmagan ayol bilan bir yostiqa bosh qo'ysam, uyimda Komron, Malika, Botir emas, boshqa bolalarim ada-ada, deb tursa, ular ham quyib qo'ygandek menga tortsa, bu bolalarimga esa begona birov otalik qilib yursa... Men Ofiyat bilan topishmasam, shu bolalarim dunyoga kelarmidi?

Charxi kajraftorning royishi sal o'zgarishi bi-lan shunday buluvi hech gap emas edi-ku!

O'ylayman, juda oddiy, ko'nikish bo'lib qolgan narsalardan ajablanaman.

O'sha, engil avtomobilni ko'rganda, "Lukkavoy keldi, obketib qoladi", deb guvva qochgan bolakaylarning to'dasidan qanday ajralib chiqib, bugunda dosent Mahdi Ashrapov bo'lib qoldim? Mahdi traktorchi, yo suvchi, yo, boring-chi, gazeta-jurnal o'qishni sevganim uchun pochta mudiri, qishloq muxbiri Mah-di Ashrapov bo'lib qolishim ham mumkin edi-ku!

Bir o'ringa o'n olti kishi talashib turganda uch-ta "uchu" bitta "besh" bilan institutga qanday ilashib qoldim? Kirishimdan kirmasim tayin emas edimi?

Institutni bitirganimdan keyin sakkiz yil o'tib fakul tetga borganimda Berdiyrov domla yaqinda kandidatlikni yoqlaganim, "o'zidan ham o'zib", poytaxtdagi "mo'tabar dargohda" dars berayotganimdan azbaroyi quvonib, o'sha — o'n ikki yil oldin "besh"ni qanday qo'yganini aytib berdi, men buni omaddan deb yurardim, favqulodda hodisa — shungacha esida ekan: "Qancha bolalar yiqilib ketdi! Buyruq shunday: yiqitasan, munchadan munchasini! "Besh" qayoqda— qatag'on! Faqat alohida ro'yxatdagilarga, shunda xam rektor ko'rsatma berganlarga! Siz javob beryapsiz, mana, bunaqa: qo'llaringizni silkib, boshingizni orqaga tashlab. Men esa boshim qotib o'tiribman: bu bolani yiqitish uyoqda tursin, unga "to'rt" qo'yish ham noinsoflik. Esingizdami, ayni she'r o'qiyotgan vaqtingiz Abdurahmon kirib qoldi, o'zining odamidan yana bittasini pishiqlab quymoqchi edi..."

Kechagidek ko'z oldimda: javoblarimni qovoq uyub, vazmin tinglayotgan Berdiyrov o'sha Xo'jaev kirganda birdan o'zgarib, oshkora, hatto bir oz oshirib hayratlana boshladi, boshini sarak-sarak qilib, xuddi novvotchoydan roxatlanayotgandek, "oh-oh", dedi, aytib bo'lganimdan so'ng, ikkinchi — tilga oid savolni, qovun tushirishimdan cho'chib, gapirtirmadi. "Bo'ldi, uka, rahmat, ketavering", dedi. Imtihon tu-gab, baholarni eshittirishguncha, bo'larim bo'ldi: "Rahmat, ketavering", degan bo'lsa, vsyo, jo'ra, kelasi yil kelasan, depti", deb aql o'rgatganlar ham ancha topildi...

"Abdurahmon kirib qolmaganda, tavakkal qilolmasdim..."

Meni mandatdan Berdiyrov qo'ygan ana shu "besh" olib o'tdi. Mandatga dumalamay bir yuzu qirq etti bola etib kelgan edik. Avvaliga komsomol tashkilotining sekretari To'g'izboev beshta-beshtadan ellik bolani tez-tez chaqirib oldi, shu bilan ellik o'rinning hammasi to'ldi, eshik yopildi, kirganlar qaytib chiqmadi, to'qson ettitamiz bir-birimizga mo'ltirab, go'yo ichkaridagi mandat komissiyasiga tepadan: "Tashqaridagi bechoralarni ham olinglar, noumid ketishmasin!", degan vahiy tushadiganday, umidimizni uzolmay, bo'ynimizni cho'zib to'rt-besh soat mustar turib qoldik. Bir vaqti eshik ochilib, To'g'izboev emas, qabul komissiyasining mas'ul kotibi Abdurahmon Xo'jaev chiqdi: juvva eshikka yopirildik. YUragim xovliqib ketdi: shu oqshom tush ko'rgan edim, tushimda yotoqxonada birga turadigan amudaryolik Ramon ikkovimiz bizning qishloqda yangi qurilgan vodoprovod minorasiga tirmashib chiqibmiz, men chiqqan joyimda toyinib ketib, zo'rg'a panjarasidan tutib qolibman, kunbo'yi shu tushimga ishonib turibman, kecha Ramon biofakka mandatdan o'tdi, bugun men, bir toyinib bo'lsa ham, o'tishim kerak, endi Xo'jaev meni chaqirish uchun o'zi chiqqan, hozir mana, mana, meni chaqiradi, "Ashrapov Mahdi!", deydi!..

Xo'jaev esa ertalabdan beri qayta-qayta oti chiqqan Solihova Nazira degan qizni so'radi, unga yaqin turganlardan, zora menga ham e'tibor qilib qolsa, degan umidda "Solihova Nazira! Solihova kelmadimi!" deb to'rt-beshi baravar kichkirdi, bir oq ko'ylakli qiz odamlarni yorib kela boshladi. Xo'jaev uni yaqin olib koyidi: "Naziraxon, qayda yuribsiz? Ertalabdan beri chaqiramiz..."

Eshik yana yopildi, yana bo'ynimizni cho'zib turaverdik.

Oyoqlarim qaltirab, borib devor tagiga to'shalgan gazetaga o'tirdim, ichimdan faqat ih-ih degan yig'iga o'xshagan bir tovush kelib, tomog'imga tiqiladi, majol yo'q, soat to'rtidan oshyapti, kechadan be-ri tuz totmaganman...

Bir vaqti yana eshik ochildi, bormadim, qattiq ishongan narsang bo'lmay qolishi mumkin dedim, o'tirgan joyimda qaradim, Xo'jaevning og'zi ochilib-yumildi, "Ash-a-a... ahd" degani qulog'imga keldi, birdaniga, ichkari kirib ketganlar va tashqari-da turganlarga "muxlis"lik qilayotganlar bilan hisoblaganda, ikki yuz chog'li odamning tepasida "Ashrapov Mahdi!" degan ismi sharif aks-sado ber-di, menga kelib urilib, sakratib yubordi. "Ho'-o'v! Men—Ashrapov Mahdi! Ashrapov—menman!" deb baqirgancha, o'zimni to'daga urdim, yuragim qinidan chiqib ketay deydi, tezroq eshikka etmasam, Ashra-pov—men, deb Xo'jaevni aldab, o'rnimga boshqa bola kirib ketadiganday...

Keyin, o'qib yurgan paytlarimda Xo'jaev aytib berdi: rektor o'tolmaganlarning ro'yxatiga qarab turib, Ashrapov Mahdiga Berdiyurov qo'ygan "besh"ga qo'lini nuqibdi-da, Xo'jaevdan: "Bu abituriyentga "besh" qanday tushganini bilasizmi?"— deb surab-di. Xo'jaevning favqulodda xotirasi bor edi: imtihondan yiqilganu o'tganlarning hammasini bilardi, meni yo Berdiyurovning odami, yo rektorga tayin-langan, bekorga so'ramayapti, deb o'ylab, adabiyot og'zakidan qanday javob berganimni maqtab ketibdi. Shunda rektor: "Undoq bo'lsa, shu abituriyentni qo'shimcha qilib olaylik. Tashlab ketadigani bor, haydaladigani bor. O'qiydigani ham kirsin! Chaqiring!" debdi.

Rus tilini bor-yo'g'i o'ninchi sinfda o'qiganmiz, oshxonaga kirganda "kto' o'chirat"dan boshqasini bilmayman, yana ko'zoynakli odamlardan cho'chibroq turaman, meni ko'p odamning o'rtasidan olib o'tib, to'rda o'tirgan bir ko'zoynakli, juda salobatli odamga ro'para qilishdi, u kishi menga ruschalab bir narsa dedi, nima deyaptilar, deb uning yonidagi odamga javdiradim. "YAxshi o'qiysanmi kirsang, deb so'rayaptilar", dedi unisi. "Ha, xarasho budish, budish", dedim, kimlardir kuldi, rektorning qoshi chimirildi; u menga: "Nu, kak, budem xorosho uchitsya?" degan ekan...

O'zimda yo'q dingirlab ketayotib, yo'lda hamma hujjatlarimni tushirib qo'yibman — bunisi tu-shimda vodoprovod minorasidan toyinganim bo'ldi. Ertasi kuni topilishiga ishonib, fakul tetning eshigiga boshqa shunaqa e'lonlar yoniga men ham bir parcha qog'oz yopishtirdim: "Shu-shu abituriyentning hujjatlari... Suyunchisiga o'n so'm!" Mandatdan o'tib olgan baxtiyorlar bilan tanishib, o'tgan kechasi ko'rgan tushimning qanday to'g'ri chiqqanini gapirib o'tirgan edim, bir mug'ul bashara, daroz bola bir qo'lidagi qip-qizil komsomol biletiga, bir menga qaragancha, yaqinlashib kelaverdi, darrov bildim — hujjatlarim shunda, cho'ntagimni kavlab, oxirgi pulimni, etmagan uch so'miga "uyga borib kelganimdan keyin bermasam, xudo ursin" degan chin va'damni tayyorlab turdim.

"Ashrapov Mahdi siz emasmi?" dedi.

"G'irt o'ziman-da!" dedim.

"Jo'ra, cho'ntak masalasi sal... bor-yo'g'i etti so'm qopti..."

"E-e, qo'y-e, jo'ra,— dedi u bola qizarib,— birga o'qiymiz endi, uyat bo'ladi..."

Men ham uyaldim, o'ng'aysizlikni yo'qotish uchun unga ham tushimni aytib berdim: "Buni qarang, ishonib o'tiruvdim, hujjatlarim topilgani — panjaradan ushlab qolganim-da", dedim. Oti Tangir ekan, men ham senlashga o'tdim, juda oqko'ngil bola ekan.

Kirish imtihonlarini topshirish, mandat degan azoblar juda jonimizdan o'tib ketgan ekan, ikkalamiz ham kelasi yili yozda uyga ketmay, o'qishga kiradiganlarning ahvolini tomosha qilamiz, bir rohatlanaylik, dedik, ammo keyin bu quruq gap bo'lib qolaverdi...

Yana o'ylayman: o'shanda imtihonda Berdiyrovga to'g'ri kelmasam, men bilmaydigan savol tushganda, yo Xo'jaev javobni aytib bo'lganimdan keyin kimganda, yo rektor uzun ro'yxatdan ballari menikidan yuqori bolalardan biriga diqqat qilganda nima bo'lar edi? Bor edi-ku shunaqalari, ulardan beshtasi keyin "erkin tinglovchi" sifatida "rezerv"da o'qishdi-ku! Yanagi yil kelmasdim — askarlikka olib ketardi. Harbiydan qaytib, yana shu fakul tetga, bordi-yu, kirganimda ham, keyin voqealar ro-yishi meni butkul o'zga o'zandan oqizib ketar, hozir bashqa joyga, bulak sharoitga olib borib kuygach bulur edi.

Juda oddiy haqiqatlardan tang qolaman. Bahri Muhitga ketib yuborganimda Ofiyat degan kizga bog'lanmasdim, u bilan Nishonalining tuyiga borib, yaqindan tanishmasdim. Institutimizga yangi kelgan edi, uni ham to'yga etakladik, to'yda, odamlar xuddi shu o'yinda bir-birimizga yaqinlashishimizni oldindan bilishganday, ikkalamizni o'rtaq tortishdi. O'ynayotganimizda biqinimda bir narsa shir-r etdi-yu, Ofiyat sekin qulog'imga shivirladi: "Ko'lingizni tepaga ko'tarmay, asta borib o'tiring". Uyalib atrofga alangladim, hech kim sezmadim, asta davradan qochdim. Ofiyat ortimdan chiqdi. Biqinni paypaslab ko'rsam, ko'ylak qo'ltiqdan pastroqda bir qarichcha jo'nabdi. U paytlari ko'ylakni toraytirib, sirib kiyar edik, yana bu Namanganning to'yida dasturxonga odamning jonidan bo'lak hamma narsa qo'yilar ekan, oshxonalarining ovqatidan ichi shilinib yurgan bo'ydoq... Ofiyat o'n minutlardan keyin igna-ip topib oldimga keldi. "YUring, biron joyda tikib beray", dedi. O'zim bakovulxonaga kirib, to'yning "uskulat muduri" bilan hazil-huzul qilib, tikib chiqdim, Ofiyat uzoqdanoq meni ko'rib, go'yo mening uyatda qolmaganim ikkalamizning ham sha'-nimizga tegishliday, mamnun jilmaydi,— yaqinda tanishganing qiz bola, tumonatning o'rtasida seni ko'rib kuvonib, faqat senga atab jilmayib o'tirsa, juda chiroyli ko'rinar ekan, tilim boylanib qoldi, birdan xayolimga shu qizga o'ylanaman-ov, degan o'yinqaroq, dovdur o'y kelib, yuragim hapriqib ketdi, Ofiyat birdan meniki bo'ldi, to'g'ri borib yoniga o'tirdim. Hech bir vaqt qiz bolaning oldida buncha ochilib o'tirmagan edim, hech bir qiz mening gaplarimni bunchalar berilib tinglamagan edi, „o'z gapimdan o'zim ta'sirlanib, har bir so'zimni dona-donalab, dutor chertayotganday so'ylayman, aytishimni kuyga solaman, Ofiyatning yuzida ham mening ko'nglimda daryoday sollanib quyilayotgan tuyg'ularning aks sadosi o'ynaydi, goh men — sozchi, u soz bo'lib, goh u — sozchi, men sozga aylanib, suhatimiz hech to'xtamadi, shu to'xtamaganicha, ba'zan baravj, ba'zan past, hozirgacha kelyapti, keyin — to'yimizdan so'ng Ofiyat aytib berdi, o'sha Namanganda, ko'ylagimni tikib olib, uni axtarib alang-jalang kelayotganimda, avval sovuqroq tuyulgan, endi esa to'satdan xushchaqchaq bo'lib olgan g'alati yigitga nisbatan nimadir iliqlik uyg'ongan ekan. "Yo'-o'q, sevgi emas, darrov-a, juda o'zingizni yaxshi ko'rasiz-da, boshqacha, xuddi ko'-o'p vaqtdan beri tanish, hamma gapni ham aytsa bo'ladigan yaqin odamdek ko'rinib ketdingiz..."

O'sha tobda, ayni Ofiyat bilan topishgan damlarimda Bahri Muhitda baliq ovlab yurishim kerak edi!

Falati tuyuladi: hayotimdagi o'nlab, yuzlab voqealarning tasodifiy bog'lanishlari, ulanishlari, uzilishlaridan bugungi turish-turmushim bunyodga

kelgan. Agar bu silsilaning biron halqasi uzilsa yo boshqa qatordagi halqaga ulanib ketsa, men hozir qaerda bo'lar edim?

Ettinchi sinfdaligimda shundoq ajalning domiga tushayotib, umrim bor ekan, yashashim xaq ekan, qutulib qolganman.

Havo bulut, erta ko'klamning odamni ko'chada ham mudratadigan diltang bir kuni, aniq esimda yo'q, buzoq axtarib yurgan edim shekilli, kolxozning tashlandiq sushilkasiga kirib qoldim. Sushilkaning ichi is-qurum bosgan, nimqorong'i edi, Har xil temir-tersak, simto'rlar, dumalab yotgan ventilyatorlar orasidan anqayib o'tayotib, devordagi elektr-taqsimlagichga ko'zim tushdi. Barmoqday-barmoqday keladigan, chiroyli qayrilgan uchta sariq simga qiziqib qoldim, qoraygan devorda, xuddi sal oldin birov hafsala bilan artib-tozalab quyganday, sirli tovlanadi. Sekin, xuddi sehrlanganday, ixtiyorsiz, shuursiz, allaqanday zaif bir quvonch bilan ikkalasini ham ushlayman deb, ikki qo'limni ham cho'zdim, eslasam, haliyam qaltirab ketaman — meni ajal tortayotgan edi, shu soniyada, endi simlarni changallayman deganimda, nechundir ularning yonginasida turgan qora dastakka diqqatim chalg'idi, chap qo'lim shundoq simga tegay-tegay deb, o'ng qo'lim bi-~~lan~~ ne xayolda dastakni bosib yubordim, birdaniga qandaydir osmoniy bir guvlash boshlanib, yuragim yorilib ketayozdi—simplarda tok bor ekan! Uch fazali, yuqori kuchlanishli tok! Fizikani, elektr tokining nimaligini, ushlagan odamni chippa yopishtirib qo'yishini, ettinchi sinfda o'qiyman, juda yaxshi bilar edim, esim teskari bo'lib ketdi, oyoqlarim bo'shshib, bir temirning ustiga o'tirib qoldim, guvillashdan emas, hozirgina shu simplarni ushlaganda til tortmay o'lishimni, kosovday qorayib osilib qolishimni anglab qolganimdan—men bu tilladay tovlangan simplarda tok yo'q, es bilganimdan beri ishlatilmay yotgan yarim vayrona sushilka allaqachonlar tokdan uzib tashlangan, deb o'ylagan edim.

“Men bir marta o'lganman, bo'ldi, endi o'lmayman, - deydi rassom og'aynim Isrofil. - Qarindosh-urug'lar to'planib, huv-huv yig'i-sig'i ham qilishgan, nimamga ham kuyishardi, tug'ilganimdan beri ing-ing qilib o'nglanmay yotgan bir parcha go'shtman. Me-~~ni~~ yostiqa qo'yib qizil baxmalga o'rashdi, kimdir ming'irlab janoza o'qidi, mozoratga olib borishdi. Go'rga qo'yamiz, deb qizil baxmalni ochishlari bilan baqirib yig'lab yubordim. Baxmalni hamsoyamiz Aroqul aka ochayotgan ekan, qo'rqqanidan shaytonlab qoldi. Yaqin-yaqingacha meni ko'rsa: “Ha, jiyan, sal bo'lmasa, meni o'ldirib qo'yarding”, deb yurardi.

“Bo'lmagan gap, o'lmagansan, aslida letargik uyquga tushib qolib, mozoratda uyg'onib ketgansan”, deyman.

Isrofil meni urib engadi: “Baxmal qip-qizil edi, deyapman-ku! Xuddi qizil xaltada yotganday, ko'zimning oldi ham qip-qizil edi”.

“Baxmalning orasidan qip-qizil bo'lib oftob ham ko'rinib turganmidi?”

“Bunaqa narsalarni tushunmaysan. Birinchidan, qizil rangning bo'lakcha xosiyati bor, odamni tetiklantiradi, tunchiroqlar shu uchun qizil, ehtirosni qo'zg'aydi, menga ham quvvat berib tiriltirgan, ikkinchidan, senga aniq eslayman, deyapman: baxmal-~~ni~~ Aroqul aka ochganda ko'zimga urilgan oq rangdan —

kafandan yig'ladim. Agar shu baxmal bilan ko'mishganda, hozir Isrofil degan jo'rang bo'lmasdi, kim qaysi to'nkalar bilan qatiq yalashib yurarding..."

"Baxmalning qanaqaligini keyin eshitgansan, rassom odam—darrov qolganini ko'z oldingga keltirgansan. Keyin o'zing ham ishonib qolgansan..."

"Sen faqat ko'z oldingda g'o'dayib turgan narsalarni ko'rasan, faqat ochiq-oydin narsalarni tushunasan. Sal chuqurrog'iga darrov bema'ni mantiq yopishtirasan".

"O'zing-chi?"

"O'zimmi?— deydi Isrofil jiddiy tortib.— Men — geniyman."

"Ol-a,— deyman uzib olguday,— geniylik ko'chada darbadar qopti-da, odam quriganday sendan boshpana topsa?..."

Isrofilning rostakamiga jahli chiqadi: "Sayoz daryoga o'xshab shag'illaysan-u, ko'ngling ko'r—tumshug'ingning oldida turgan geniyni ko'rmaysan..."

Isrofil chizgan suvratlarda men o'sha — o'zim borishim kerak bo'lgan uzoqlarni ko'raman: ranglari bu erniki emas, odamlari o'zgacha, ko'rinishlari boshqacha, hammasida odamni qandaydir sekin jo'sh-tiradigan, ko'ngilni ko'pirtiradigan nimadir, anglash qiyin, anglash uchun miyani zo'riqtirish, xayol chegaralarini buzishga to'g'ri keladigan kengliklar bor. Men uning o'sha qizil baxmalni, o'z janozasini aniq esimda, deb naql qilishiga ishonmayman, qizil rangning bo'lakcha xosiyatlari haqidagi gaplarida oshirib yuborayotganini sezib turaman, ammo uch oylik chaqaloq paytida, uni o'ldi deb o'ylab, ma'rakasini o'tkazib, ko'mmoqchi bo'lib, mozoratga olib borishgani rost, ayni ko'mishga chog'lanishganda, murg'ak chaqaloqning ko'nglida ixtiyorsiz bir kuch—yashash istagi junbushga kelib, yig'laganiga ishonaman. Isrofil o'sha chaqaloqdan katta bo'lgan, o'sha kuch uni rassom qilib tarbiyalagan. Isrofilning o'ziga quyib bersa, men u dunyoni bir ko'rganman, yaxshi bilaman, uchib yurganday edim, endi tuyg'ularimning chuqurligi ham shundan, deydi. Balki, balki... U chindan ham geniydir, xali ochilmagan, yo uning geniyligini tushunish, tumshug'imning oldida turgan dahoni ko'rish uchun tuyg'ularim sayozlik qilar... harholda, Isrofilning o'shanda go'r og'zidan baqirib yig'lab hayotga qaytgani bilan bugun chizgan manzaralari o'rtasida bog'lanish bor...

O'shanda nima kuch meni simlarni changallab qolishdan asradi? Balki bu yashagisi kelayotgan, aniqrog'i, hali yashashini sezib turgan yosh, norasida tanimning xato o'limdan tabiiy chetlanishi bo'lgandir, balki o'lishni istamagan tirik hujayralarning ibtidoiy sezgisidir, aniq eslolmayman, harholda, qo'llarimni o'sha sirli tovlangan simlarga cho'zayotganimda aqlim uxlayotgan, mudroq-parishon holatda edim, xuddi biron meni boshqarganday, hali yashashimni, maktabni bitirib, institutga kirishimni, poytaxtga kelib, shu erda oila qurishimni, uch farzandga ota bo'lishimni — bu dunyoda hali tomir yoyishimni birdan eslab, simlarni emas, dastakni ushlab, bosib ko'r, deb buyurganday tuyuladi, bu buyruqni hozir, shularni o'ylayotib, bolaligimga berganday bo'laman...

Agar o'shanda qo'lim simlarga tekkanda, atigi bir soniya — butun umrim o'sha sopiyaga jo, o'sha soniyadan iborat, ulib ketganimda hozir o'zim, mendan to'rgan uch bolam va menga bog'lik talay-talay ishlar bo'lmas, o'rnim bo'm-bo'sh, huvillab to'rgan bo'lur edi, Harholda, ulmay qolganim oddiy tasodif emas, tasodif desam ham, yana shunaqa o'nlab, yuzlab bir-bi-riga chirmashib ketgan tasodiflarning bir uzviy halqasi bo'lgan, bu halqalar zanjiri ajalning shundoq chovuti ostidan o'tib, mening hozirgi tirikligimga ulangan, o'sha erda uzilib qolishi belgilanmagan edi, bolaligimning mengacha cho'zilib kelib, umr bersa, kelajagimgacha ham ulanib yashayotganini sezib turaman.

Bahri Muhitga boraman, deb, ketmay, bu orada Ofiyat bilan topishishim ham shunday tasodif, o'sha zanjirning endi faqat menga, mening umringagina emas, Ofiyatning hayotiga ham, bolalarimning dunyoga kelishiga, yashashiga, voyaga etishiga bog'liq halqasi, yo'l yurishni yaxshi ko'rishim, doim tinchimni buzib, tinchgina yashashimga qo'ymayotgan istak esa... Bilolmayman, ishqilib, tuproqdan tashqarida yurgan har bir odamning ichida, vujudida o'zi ham anglab etmaydigan bir ustivorlik bor, shu kuch uning hayotidagi tartibsiz tasodiflarni bir shodaga tizadi, odam esa faqat shu tartibda yashashni istamaydi shekilli, ba'zan hatto qo'lidan kelmaydigan narsalarni amalga oshirishga, shu tasodiflar tizginida qolib ketmaslikka intiladi: agar odam bundan so'ng qanday yashashi, qanday turmush kechirishini aniq-ravshan, besh qo'lday ayon bilsa, qizig'i qolmas, hafsalasi o'lar, go'yo dunyoga teskari kelganday, kelajagidagi hayotni allaqachon yashab qo'yganday bo'lib qolar edi — odamga u bilmagan narsalar kerak, ularni bilib, yana bilmaganlarini axtarib ketishi kerak, chunki odam dunyoga bilish uchun kelgan, bilib ketishi kerak...

Ofiyat biz ham odamlarga o'xshab, yoz oylari uyoq-buyoqlarga ketaylik deydi, yanagi yil, yanagi yil, deb kelaman, vaqt yo'q shunga, haftami—o'n kunmi qishloqqa boramiz, mana—havo, ana—kenglik, to'yib xordiq chiqaringlar, deyman, o'zim ikki-uch kunda keldi-ketdi, borish-kelish, o'tirishlardan, osh bilan shishadan beza boshlayman. Ofiyat, bir xotin ro'zg'or qilib yursa, bunisi yana uch bola bilan kelib bir dunyo tashvish orttirsas, qarab turolmas ekan, kelinga qo'shilib pishiriq-sishiriqdan chiqolmay qoladi, dam olish o'rniga horib-charchab shaharga qaytamiz, meni yil bo'yi chala yotgan ishlar kutadi, Ofiyatni esa qozon-tovoq, idish-oyoq deganlar quchoq ochib qarshilaydi.

“Yaxshi hamki, o'qiyotganda Hindistonni ko'rib qolganman”, deydi u.

“Hindistonday mamlakatni ko'rib kelish butun umrga etib-ortmaydimi?” deyman.

Boshqa nima ham dey?

Bolalar kattarsin, hammasi bo'ladi, deymi?

Ilgarilari Isrofil birga yur, deb toqqami, suv-omborgami sudrab qo'ymasdi. Faqat bir marta unga ergashib bordim. Birinchi kuni — tuzuk, cho'mildim, oftobda toblanib yotdim, yana cho'mildim, tushdan keyin shishib uxladim, Isrofil tinmay ishladi, ikkinchi kuni undan xafa bo'ldim: na gaplashadi, na uyoq-buyoqqa yuradi,

xuddi shunday bexavotir ishlashi uchun meni qo'riqchilikka olib kelganday, kitob o'qiy desam, yana mudroq, bosadi, uxlasam, karaxt uyg'onaman.

“Firt uy kalamushi ekansan, o'zing ham,—dedi Isrofil, uchinchi kuni ertalab yo'l xaltamni elkalaganimdan keyin.— Seni ozodlikka zo'rg'a tortib chiqsam, yana kavagingga urasan...”

“Xudo meni odamlar orasida yashagin deb yaratgan”, dedim...

Isrofiledan yildan-yilga uzoqlashib ketyapman, yo'q, men to'xtab turibman, Isrofil ketib boryapti, xuddi bolaligimdek: o'zi bilan o'ysiz, tashvishsiz erkinligimni, toza xayollarim, qizg'in umidlarimni ham olib, meni tashlab ketyapti...

Do'st yoningda turib ham sendan uzoqlashib boraverar, oila buzilganda o'rtadagi bolalar, ota ularni har qancha yaxshi ko'rmasin, xotinga o'tadigandek, do'st ham uzoqlashganda umringdan eng totli damlarini o'ziga olib, o'rniga yurakni achishtiradigan og'riq xotiralarni tashlab ketaverar ekan.

Isrofil menikiga tez-tez kelib turadi, men ham shunday—unikiga borishni qanda qilmayman, faqat... bir majburiy yumush bajarayotganday, ha-hu gaplashib o'tiramiz.

“E-e...”

“Rasulni aytaman...”

“Nimasini...”

“YAxshi emas...”

“Unga aytdim...”

“O'zi biladi...”

“Birovning turmushi...”

“Lapashang...”

“Bir yoqlik...”

“Kulgisi qistaydi...”

“Shu ahvoliga...”

“Deganda qandoq...”

“Ming'irlyaydi-ey...”

Chetdan qaragan odam bular o'zbek tilidagi so'zlarning talaffuzini o'rganibdi-yu, hali jumla tuzishni bilishmas ekan, bir gapni oxirigacha aytisholmaydi, deb o'ylashi mumkin.

Go'yo aytmoqchi bo'lgan narsamizni barmog'imiz uchida navbatma-navbat ushlab ko'rib, e-e, buni bilamiz-ku, deb yana tashlab yuborayotganday. Aslida bu quyuq, suhbatning mazmuni shunday: Rasul bir ersiz ayol bilan yuradi, birga ishlaydi, xotini bilib qolib, idoraga kelibdi, o'sha megajinni yulibdi, g'alva,

to-mosha, direktor, partkom, yana bir-ikkitasi yig'ilib, Rasulni o'rtaga olishibdi. "Xo'sh, nima qilmoqchisan?" deyishsa, Rasul: "Bilmasam, o'zlaring bilasizlar", debdi, direktorning jon-poni chiqib ketibdi: "O'ynash tutgan senmi yo bizlarmi? Mazasini sen tot-da, nima qilishingni bizlar bilaylikmi? Yo bunisini tashla, yo unisini", debdi. Rasul ikkalamizga ham uncha yaqin emas, ammo otam zamonida qurilish tashkilotining yotoqxonasida birga yashaganmiz, bu ahvoliga achinamiz, yordam bergimiz keladi—shuni muhokama qilyapmiz, fikr bildiriyapmiz, faqat bir-birimizning nima demoqchiligimizni juda yaxshi bilganimiz uchun, ochiq aytishga extiyoj ham qolmagan: gaplarimiz ikkovimizga ham yod bo'lib ketgan.

Shunga qaramay, men hali ham Isrofilni sog'inib boraman, Isrofil ham mendan burungi — o'sha Mahdini izlab keladi.

Musofir joyda hamyurtlarni bir-biriga, ularning fazilatlaridan ko'ra, ko'proq tug'ilgan yurt mehri yaqinlashtiradi, o'z elida yovlashganlari ham begona elda topishib, hatto do'stlashib ketadilar.

Isrofil bilan men ikki xil odam bo'lib chiqdik, ammo uzoq,—tunlari uxlamay laqillab yotganimiz, hech ado bo'lmaydigan gurunlarimizni qo'shib hisoblasa,— juda uzoq vaqt bir ko'ngil mulkida elkadosh yashaganimiz xotirasi tamom ayrilishga izn bermaydi. Har qancha uzoqlashmaylik, boshqattan yashamaymiz — o'sha do'stlikni chetlab ham o'tolmaymiz, yurakdan chiqarib ham tashlolmaymiz.

"Hech tushunolmayman seni,— deydi Isrofil, endi xotiraga aylangan do'stlik ba'zan-ba'zan ko'nglimizni ilitib, yana avvalgiday tashna gaplashgan vaqtlarimizda.— o'zingni ming xil narsalarga bog'lab qo'ygansan, xuddi uchib ketishdan qo'rqadiganday. Qanaqadir odamlar, qanaqadir munosabatlar..."

Isrofilning gaplari meni charchatadi, unga ham-kasblarim qanaqadir odamlar emasligini, o'rtamizdagi munosabatlar juda jiddiy va nihoyatda zaruratligini tushuntirolmayman.

"Anavi... kim edi, bo'ynini qisib yuradigan kursdoshing, Abdiqulovmi? Achinaman shu odamga: umrini to'rt-beshta odamni yiqitish uchun sarflab yursa! O'zing o'ylab ko'r: fakul tetingda har kim o'z ishini bilib bajarsa, Abdiqulovning bu urinishi bema'ni bo'lib qolmaydimi? Kichkina bir dunyoda kichkina odamlarning bir-birini kavlab behuda yashashi kulgili emasmi? Sen esa shuniyam fojia qilasan. Axir, dunyoga faqat shu maqsadda kelmagansan-ku!.."

Uning gaplarini eshitib o'tirib o'ylayman: odam-larning ichida, ularga yonma-yon turib, yana qanaqasiga tamomila erkin, mustaqil yashash mumkin?

Men tumonatning ichidan yugurib o'tolmayman, albatta birovga qoqilaman yo birovi etagimdan ushlaydi...

Isrofil shuning uddasidan chiqadi—u odamlar-ning ustida uchib yashaydi.

Hech bir asari janjal-g'urbatsiz, asabozliksiz o'tmaydi. "Nega yomon ko'rishini o'zlari ham bilmaydigan" muxoliflari juda ko'p, hatto "hammo'yqalam" do'stlari bilan gaplashyaptimi, tezlashyaptimi, bilish qiyin, tomog'i bo'g'ilib qolguday bahslashadi, odamga xos jami his-hayajondan bebahra emas, ammo bu

tuyg'ularning hammasi uni asosiy ishi —“buyoqchilik”dan chalg'itayotgan majburiyatga o'xshaydi, g'urbatning qoq o'rtasida, bo'g'ilib-kuyinib, yana bularning birontasini o'ziga olmay, go'yo payqamaganday, ko'ngli doim ozodligi, erkinligicha qolaveradi. “Olishsa - shundoq - indamay olishsin, olishmasa— indamay qaytarishsin. Nima qilishadi mulohazalarini tiqishtirib. Men dunyoni shunday ko'raman, narsalarni shunday his qilaman. Xohlasam ham o'zgartirolmayman. Bular esa menga, yo'q, bu yig'lashing yomon emas, lekin, mana, bunaqa, bizga o'xshab yig'lasang, yanada chiroyli chiqadi, deyishadi! Bir shunaqa she'r bor, a? Kulgi xunuk bo'lsa bordir, ammo yig'i chiroyli bo'lolmaydi, hatto quvonch yig'isi ham — bu quvonchga etguncha tortgan azoblarni bildiradi. Men esa chizgan narsamda hech yig'lamayman, shu to'nkalarning dardini chizaman, ular esa o'zlarini ko'rmay...”

Bu qanday kuch?

Menda shu yo'q.

“Senga o'xshaganlarning hayotini men uch oydayoq to'la yashab, hayotdan qarzimni uzganman—endi erkin qushman, istagan tomonga uchishim, hohlagan narsamni chizishim mumkin”, deydi u hazillashib.

Menga chin tuyuladi: u chindan ham oldin yashagan, bir, balki bir necha vujudda tanosuh bo'lib, odam zotining turmushini obdon sinab ko'rgan, Isrofilning jismi oxir bo'lgach, boshqa odam suratiga ko'chadi, balki uning rassomligi shundandir, o'zini suratlarda ham qoldirar,— keyin qiyofasini eslab yurish uchun...

Bir kun ertalab Isrofilning hay-haylashidan uyg'onib ketdim. Derazadan qarasam, u uchta shogirdi bilan yuk mashinasidan katta bir kartinani tushiryapti. Naq devorday keladi, qaerga osaman, deb shoshib qoldim.

Tushgunimcha Isrofil kartinani mashinaga suyatib, qo'lini beliga qo'yib, tomosha qilib turibdi. Ko'zlari kirtayib ketgan.

Kartinaga tikilib turib, birdan kichrayib qolganday bo'ldim: undan bir tog' siljib chiqayotgan edi, misoli shunday—seans paytida kinoteatr ekranida ko'ringan tog' birdan rasmona toqqa aylanib, ekranni yorib, tomoshabinlarga qarab harakatlana boshlagan, zalga dumalab tushayotgan zil xarsanglari ekranga tutash supaning taxtalarini burdalab, oldingi o'rindiqlarga etay deb qolgan, zalda hech kim yo'q, ammo vahimaga to'la edi, xira yonayotgan qizil chiroq shu'lasida o'rindiqlar qatorlari qo'rquvdan qotib qolganday ko'rinardi.

Bolaligimda ko'rganim bir kino esimga tushdi: brigada shiyponining ohaklangan devorida tuyqusdan parovoz ko'rinib, taqa-tuq, taqa-tuq qilib o'qirgancha, to'g'ri ustimizga haydadi, xuddi tagida qoladiganday, o'zimizni orqaga tashladik, biz tugul kattalar ham so'kinib quyishdi: “Va-assiynig'ar! Naq bosaman deydi-ya!”

Isrofil chizgan manzaraga zehn solgan odamni shunaqa vahm bosar edi.

Isrofil shunday tushuntiradi:

“Cho’lda kechasi yolg’iz ketib boryapsan, bo’ri yo’q, shog’ol yo’q, hammasi qirilib bitgan, sening arzanda joningga hech narsa qasd qilmaydi, lekin qo’rqasan, nimadan — bilmaysan. Ochiq maydonda turibsan, bir—dan er qimirlaydi, seni qora vahm bosadi, tepangdan qulab tushadigan uy-puy yo’q, ammo yuraging yorilib ketay deydi. Bu qo’rquv aqlingdan tashqarida. Insonning atrofini unga kurinmaydigan allaqanday kuchlar g’uj qurshab turadi, balki bu kuch ko’p emas, bitta — tabiat, balki tabiatda yashiringan bir qudratdir? Aniq aytolmayman. YArim tunda uyingdan chiqib, tevarak-atrofga, osmonga qara — shu kuchni sezasan, qandaydir ulug’, muazzam bir qudrat tovushsiz g’uvillab turgandek bo’ladi, qulog’ing bilan emas, ko’ngling, tuyg’ularing bilan eshitasan, birdan uyingga kirging, panalab olging keladi. Bir xil paytlari, ayniqsa, tog’da kechasi ko’rpaning ichida ham titrab yotaman, tanimga shu kuch kirib qaltiratayotganday bo’ladi, qanaqadir quvonch bilan ko’rqaman. Agar shu qo’rquvni engsam, tanamdagi titroqni to’xtatsam, tabiatga qo’shib ketadiganday bo’laveraman, xuddi juda ulkan devorning tagida turib, uni paypaslayotganday bo’laveraman, ammo yumuq ko’zlarimni ocholmayotganday bir ahvolga tushaman. O’zing ham bir vaqtlar shunaqa degan eding. Sening gaplaring emas, ko’p tuyg’ularing ham menga o’tib qolgan shekilli, qozonning qorasiga o’xshab... Mayli, bu hazil... Lekin meni ham sen tushunasan. Manavi, chorkunjak ekran — bizning tabiat to’g’risidagi tor tushunchamiz, tabiat esa bu tasavvurga sig’maydi, uning chegaralarini buzib-yanchib o’tib, shuuriga yopiriladi...”

Isrofil kartinasini faqat menga bir ko’rsatish uchun olib kelgan ekan, menga yoqqani, to’g’rirog’i, qo’rqitganidan rosa quvonganini zo’rg’a bosib yana mashi—naga orttirdi.

Odam bolasining voyaga etishi qiyin kechar ekan. Keyin aytiladi: “U-u, qarang, kechagina bola edik!” deb.

Umr yigit yoshidan keyin tezlik oladi. O’spirin bola bunaqa gaplarni xayoliga ham keltirmaydi, o’spirinlikning umri juda uzun.

Institutda o’qigan yillarim juda uzoq kechganday, har bir kuni mislsiz-chegarasiz cho’zilib ketganday tuyuladi.

O’sha paytlari Hakberdini o’lguday yomon ko’rar edim — karavotning qoq belida irkit qora choponiga o’ranib, chordana qurib olardi-da, burnini,— kechirasiz-u, rostdan ham shunaqa qilgan bo’lsa, qandoq boshqacha aytay,— qanqillatib tortgani-tortgan edi. Ijirg’anib, tishimni tishimga bosib zo’rg’a o’tiraman. Gapirsam, battar bo’g’ilaman,— burningga kuydirgi chiqqur,— yoqmasa, eshitmang, deydi! Koshki, xona kattaroq bo’lsa, tovuqxonaday bir katalak—yo’talganga ham zirillaydi.

Hatto hozir ham Xaqberdi bilan kafedrada yolg’iz qolsam, keng yorug’ bino torayib, o’tirgan xonamiz ikki elkamdan siqayotganday, gapni qisqa qilib, chiqib ketaman...

U paytlari Xaqberdining o’rnida odam emas, bir olaqarg’a qo’nqayib olib, “qag’-qag’” deyayotganga o’xshar, xuddi shu tobda shiftdan gupillab qor urib

beradiganday junjikib ketar edim. O'zi yo'q payglari hatto ko'rpassi ustidagi alchayib yotgan choponidan ham shu axmoqona, bema'ni-betarbiya tovush keladiganday, hozir engini silkib "qag'-yog'" etadiganday, yostig'ining tagiga tiqardim, shunda ham ko'nglim tinchimay, ko'rpassiga bostirardim, ko'rpa tagida ham tinch yotmay, egasi kelsa, birgalashib meni xunibiyron qilishga reja tuzayotganday tuyulaverardi.

Yomon ko'rishda Haqberdi mendan ham oshib tushardi, kuyib-yonib, nafasi tiqilib yomon ko'rardi meni. Yaxshi hamki, odamning nafrati faqat o'zini qovuradi, agar Haqberdi lappakbaliqqa o'xshab o'zidan elektrquvvat chiqarsa, u bilan qo'l olib ko'rishganimdami, xayrlashganimdami paqqos o'ldirib qo'yardi. Kimning merosini bo'lisholmaganmiz — bilmayman. Tikkama-tikka kelib, baqirishgan kezlarimizda nega men uni, yo u meni tushirib qolmaganmiz, hayronman. Haqberdining janjalni hech qachon mushtlashishgacha olib bormasligini, bordi-yu, shunday bo'lsa, chap berib ketishini endi bilaman. Keyin, u paytlari, jari-o'ngiridan tortib sim-siyoh, faqat yulduzlari bodrab turadigan kechalarigacha bexavotir, o'zimizniki bo'lgan qishlog'imizni yangi tark etib, notanish odamlari, bezorilari ko'p shaharga endigina kelganimiz uchunmi, hammamiz ham o'zimizni himoyasiz bilib, musofirchilikda bir-birimizni qo'llashimiz kerak deb o'ylab, bir kursda o'qishimiz, bitta katalakda ijarada turishimizni hamma narsadan, o'zimizdan ham baland qo'yib, hatto falonchilarning ijarasida urish chiqibdi, to'rdagi karavotni talashib, Xolmurod Shoberdini uribdi, qarang, biz qanday ahil yashaymiz, deb maqtanar ham edik. Ishqilib, bir musofirning o'zi bilan birga turadigan musofir bilan chiqisholmasligi, sheriklaridan ajrab, boshqa ijaraga ko'chishi, hamhujralaridan pulini bекitishi, gali kelganda, oshxonada navbatdan qochishi, o'z boshicha, hech kimga qo'shilmay ovqatlanib yurishi ham juda xunuk xisoblanar, uzundan-uzoq g'iybat, so'kishlarga sabab bo'lar, shunaqalar chiqib qolsa, ko'p o'tmay davralardan chetlatilib, shumshuk ko'rinib yurishar edi.

Biri biridan battar uylarda, uyidan ham battar xo'jayinlarnikida yashasak ham, stol tevaragini gir qurshagan uch yoki to'rt karavotga qancha odam sig'ib o'tirishiga, kerosinkadagi kastyul qancha guruch ko'tarishiga qarab, yaqin-yaqin ijaragirlar jamlanib, o'tirishlar qilib turamiz — odam sakkiz-to'qqiztadan, ba'zan o'n beshtagacha keladi.

Ota-onamizning issiqqina og'ushini endigina tark etib, hali ko'pchilik jamuljam yashashni unutilmaganimiz, aksincha sog'inishimizdan shunaqa gap-gashtaklarga bir hayit, bayramday qaraymiz, unisidan-bunisigacha intiq bo'lib yuramiz, to'planib ulgurmayoq bir-birimizga gal bermay, hafta bo'yi yig'ilgan gaplarimizni hovliqib, quvonch bilan to'kib solamiz, (zarurati qistalang bo'lib zo'rg'a o'tirgan Tangir chiday olmay, birdan tashqariga otiladi — "Jon jo'ralar, aytmay turinglar, g'uv-v etib borib kelaman". "E-e shu vaqti... Gapning beliga tepdingiz-da, lekin!"—uning kelishini jim kutamiz, kelishi bi-lan yana boshlaymiz), og'izlarimiz charchab, boshlarimiz og'rib ketguncha, kechasi uy egasi kelib shovqin solib haydamaguncha valaqlashamiz, ertasi kuni ham kecha "gapxona qanday qiziganini" maza qilib eslashamiz. "Zamonamiz qahramoni"ni

yangi o'kib, Pechoringa o'xshamoqchi bo'lib yurgan kezlarim, o'tirishning boshlarida o'zimni juda-juda zerikkan, beparvo, sovuq tutishga tirishaman, gap qizigan paytlari ichimdan potrab chiqqan kulguni zo'rg'a bosib, lablarimni qimtib olaman, ammo sal o'tmay, pechorinchilik tamom yodimdan ko'tariladi, eng zo'r hangomani o'zim aytayotganday, hammaning diqqatini qaratishga tirishib, tomoqqa zo'r berayotganimni bilmay qolaman.

Kechasi ko'p gapirganimdan kalla karaxt, og'zim quruqshab, derazadan yuksak orzularim tumanida xira yiltirayotgan yulduzlarga termilib, "naqadar zerikarli, naqadar zerikarli-ya...", deb o'ylanib yotaman...

Yakshanba kunlari ertalabdan o'zimni zerikishga majburlayman, bugun o'tirishga qatnashmayman, deb ahdlar qilaman, ammo vaqt peshindan og'ishi bilan ko'kragimda to'polon ko'tarib, tomog'imni qitiqlayotgan, lablarimni kechqurun aytar gaplarimga shaylantirayotgan tuyg'ularga bas kelolmay qolaman...

U paytlari mustaqillikdan ko'ra, hammaga o'xshashga, hamma qatori fikrlashga intilib, o'zimizni to'daga urar, yangi hayotga, yangi narsalarga tashna bo'lsak ham, yangilik izlamay, yo'lga chiqmay, g'uj yashashni yaxshi ko'rar, dunyoni bir-birimizsiz fikr qilolmas, shu chag'ir-chug'urning ichida Haqberdi ikkovimiz ham yarmi qizil, yarmi ko'kka bo'yalgan koptokday, chirmashib, kelajakka dumalab kelayotgan edik.

Mana, Haqberdi, Tangir, Hasanboy, Suvon, ko'k bo'yog'i olapes to'rtta karavot, liqilloq-omonat stol; burchakda miltirayotgan kerosinka, ustida bitta musulmoni g'ish—uyuni shu bilan isitamiz, Haqberdi o'sha qora choponda, olaqarg'adek qo'nqayib, burun nag'masini boshlagan; Suvon — qori — ko'rpadan faqat konspekt ushlagan qo'li chiqib turibdi, har zamonda ko'zi shiftga baqrayadi, keyin yumiladi—pichir-pichir qilib hozir o'qiganini yodlaydi; Hasanboy stolga muk tushib, doimgiday iljayib, kitobga chizib o'qiydi — chizmasa, kallasiga kirmaydi; Tangirboy — xudoning erka talabasi, yotib uyquni uryapti, goho Hakberdining buzuq karnayidan uyg'onib ketadi-da, "E-e-e" deb yana boshini ko'rpaga burkaydi, oyog'i ochilib qoladi, oyog'ining barmoqlari uzun-uzun, qiyshiq...

Tashqari sovuq, kecha qor yoqqan, izg'irin. qamalib o'tiribmiz. Daftarga termilaman, Hakberdining burni boshimga qamchi tushganday ta'sir qiladi. Tushlik qilib olgandan beriyoq ikki marta aytishib oldik, hozir dunyodagi bor yomonlikni ichiga jamlab, hammasini menga tilab o'tiribdi. Mening kayfiyatim ham unikidan qolishmaydi. O'zimcha har hil voqealarni to'qib, undan o'ch olaman. Mana, u bitta jonon qiz bilan yonma-yon ketayotganda, qiz esidan chiqib, burnini tortib yuboradi, qiz unga: "Qo-och-e isliqi!", deb qaraydi, Hakberdi mulzam bo'lib qoladi. Lekin jonon qizni uning yonida yurgizishdan qizg'anaman. Hakberdi domlalarining oldida... Padari qusur, ko'pchilikning ichida sira bunaqa qilmaydi-da! Hammasiga mening ikkita imtihondan ham "besh" olib, bu kuykanakning zo'rg'a "to'rt"ga ilingani sabab... Hakberdi Jamilaning qo'lini ushlayotib... o'ziyam Jamilaning qo'llari kartoshkannng o'simtasiga o'xshaydi. O'l-a, bu

kuningdan, deyman. Kursimizda, otasi zanjimi yo onasi ko'mirxonada tug'ib qo'yganmi, Jamila degan qop-qora, pastakkina bir qiz bor. Qiz zotiga qiron kelganday, Hakberdi shuni yaxshi ko'radi, shuni gapirsa, og'zi suv ochadi-ey, ammo yaqiniga ham yo'lay olmay, bir chaqirim uzoqdan hurkib qaraydi, yana "Eh-h,—deb jo'mragini cho'zadi, cho'chchaygan labining ustidagi sarrish tuklari tikkayadi,— shu qizdan bir muchchi olish nasib qilarmikan bandasiga! Voy-ey!" Ertagayoq shuning ko'zi oldida ataylab, bandasining nasibasini namoyishga ko'rsatmasammi, deb o'ylayman, ammo Jamilaning og'zini o'payotganimda "Viy-y", deb chiyillashini ko'z oldimga keltirib, hafsalam o'ladi. Ovozining yoqimsizligini!.. Shuning nimasiga uchgan. O'l-a, iliqishmay!..

Shu payt kimdir derazani tiqirlatib chertadi. Hasanboy yalt etib menga qaraydi, Hakberdi esa hozirgina ko'nglimda kechgan o'ylarni bilib turganday, uzib oladi: "Odam emas shular, ichida qurti bor-ey! qahratonda pishirib qo'yibdimikan?!" Serjo'ra bolaman, biri kelib, biri ketib turadi, Tangirning choponini elkamga tashlab, ko'chaga chiqaman, darvozaning tirqishidanoq Shodi akaning katak pal tosini tanib, quvonaman. Shodi aka bir salomlashib o'tishga to'xtaganday, kirishga taysallab turadi, uni kuch bilan ichkari tortamai.

Hasanboy muloyim iljayadi, Suvon — o'qishdan qutulganiga xursand — ko'rpasini tepib otib, sakrab turib, Shodi akani quchoqlab silkiy ketadi, Shodi aka: "O'-o', jinnimisiz!" degandan keyin uni qo'yib, Tangirni ko'rpa ustidan gupillatib soladi, bu ham etmaganday, tepasiga o'zini tashlab yuboradi, Tangir uni ko'rpaga qo'shib ikki oyoqlab tepadi, u keti bilan stolga uriladi, Hasanboy chaqqonlik bilan choynakni ushlab qoladi, Hakberdiboy kerishib, qo'nog'idan tushadi...

Sal o'tmay, stol ustida non, qand paydo bo'ladi, Tangir tovuqqa don sohganday, mayiz tashlaydn. Ke-rosinka ustida choynak jig'illaydi.

Gapimiz uncha qovushmay, ertadan keyin bo'ladigan imtihon, domlanning qanday olishi xaqida ezmalanib o'tiramiz, Hakberdi mening bunisidan ham "besh" olishimni erga uradi: "Ikkita "besh"dan keyin kim ham "to'rt" qo'yardi? Davomat uchun "a'lochi" chiqarish kerak". Choy damlanib, badanga issiq o'tgandan ke-yin, gan qizlarga ko'chadi. Biz bilan olti oy ham o'qimay, oti yomonga chiqqan, ilingan bilan yurib-yurib lip etib erga tegib ketgan Sultonni g'iybat qilamiz, Hasanboy tanglayini cho'qillatadi, Suvon ishshayadi, Tangir: "Bir yig'lab ketganning o'rniga kirganda shu ham", deb so'kinadi, Hakberdi ko'zlari o'ynab: "Shaharning qoq o'rtasiga olib chiqib, odamlarning ko'zicha, pankillatib otib tashlasang bunaqalarni!", deydi, o'zini tanimasak ham, Sultonga chuv tushgan o'sha yigitga jo'r bo'lib achinamiz, Shodi aka erga qarab, bosilishimizni kutadi... Birdan Shodi akaning oldida befarosatlik qilganimizni anglab, gapni adabiyotga burib yuboramiz. Hasanboy Shodi akadan: "It—vafo" degan qissa yozayotgan emishsiz, rostmi?", deb so'raydi. Shodi aka yuziga sirli tus berib: "Eski kitoblarni bir qarashim kerak", deydi. Hakberdi chimiriladi. Hasanboy Shodi akadan agar qissasi bosilsa, necha pul olishini so'raydi-yu, Suvon gurullaydi: bularning qishlog'i Toshkentga bir shoir etishtirib bergan ekan, shuning Suvonga aytishicha, "beti to'la" kitobning har so'ziga uch tiyindan emish! Tangir ajablanadi: "Shuncha

kammi?” Suvon hisoblab beradi, Tangir battar ajablanadi: “o’h-o’! Shuncha ko’pmi? o’zimiz ham kuniga ikki-uch yuz so’mlik gan gapirar ekanmiz-da, a? Shu gaplarni yozsak? Hasanboy Suvondan “She’rga-chi?” deb so’raydi-ku! Suvon biz bilmaydigan gaplarni bilishidan toza shishadi: “Gazetada bosilsa, qatoriga qirq-ellik tiyin, kitobdasisiga etmish tiyindan!” Birdan Haqberdining ko’zlari o’ynab qoladi, maktabda she’r yozganini aytadi, bitta, dutorga bag’ishlanganini o’qib beradi:

Eshitib xonishlaringni men

Tushunolmay bo’laman hayron:

Bir juft oddiy toringdan chiqqan

Kuying buncha dilrabo, jonon?..

Hasanboy “O’, ukkag’arning bolasi!” deb yuboradi, mendan boshqa hammasi lop etib ichimizda tirik shoir paydo bo’lganiga quvonib ketadi, men o’rtanaman, Haqberdining lablari so’ljayadi, endi “Yam-yashil” degan she’rini o’qiydi, bunisida yaylov ham, osmon ham, elib borayotgan chavandoz, hatto uning arg’umog’i ham yam-yashil bo’lib, Haqberdivoyning tuyg’ulari ham “moviy-yashil ma’voda” uchyapti ekan.

Tangir jo’shib, Haqberdining elkasiga qoqadi: “Shunday talantni ichingizda bijg’itib yuribsizmi!” Tangirning bu tarzda og’ib ketishi menga sal botadi, biz bilan yashab turgan bir pismiqlik, burnini shunaqa xunuk tortadigan bir qitmir to’satdan shoir chiqib qolsa, odamga alam qilar ekan. Yana og’zidan chiqayotgan gaplarni qarang: “arg’umoqlik”, “sarbaliqlik”, “yashil ummon”, “totli damlar”, “sarsari ellar”, “ma’voda”. “Ma’voda”sini mutlaqo bilmas ekanman, Hasanboy so’ragan edi, Haqberdi: “Maskanda degani” deb tushuntiruvdi, ichimda rosa mulzam bo’ldim: men “mabodo” so’zi she’rda shunaqa —“ma’voda” yoziladi, deb o’ylagan ekanman, xudo bir asrab qopti: Hasanboy so’ramasa, “Shuni “mabodo” to’g’ri deb yozsa bo’lmaydimi, kitobiy jimjima haqiqiy poeziyaga yot”, deb sanchib olmoqchi edim.

To’satdan Suvonboy qarsillatib g’azal o’qib tashlasa bo’ladimi! Yopiray, kesakdan ham o’t chiqib qoldi-ku, deb angrayib boshlovdik, yo’q, hartugul, Charxiynikini yoddan aytibdi.

Shunisi ma’lum bo’ldiki, mendan boshqalari yozuv-chizuvga aralashgan ekan: Hasanboy muxbir, xabarlari rayon gazetasida bosilgan, Tangir hikoya ham, she’r ham yozgan ko’p qirrali ijodkor, Suvon maktab kechalarida she’r o’qigan. Yunilgan tayoqday qup-qurug’i o’zim...

Birdan gapimiz bir sakrab bu yilgi qorga, so’ng shunday qorda qo’y boqadigan cho’ponlarga, ayni shu paytlari qo’yga qiron keltiradigan bo’rilarga o’tib ketadi. Otasi cho’pon, o’zi cho’liqlik bo’lib ko’rgan Tangir gapirib yayraydi, menga “sart” deb tegishadi, shu paytgacha tirik bo’rini ko’rmaganimga kulib, men “sart”ni cho’lda “eshshakday-eshshakday” bo’rilar borligiga ishonirishga urinadi, unga Haqberdi qo’shib,— u ham dashtlik,— meni laqillatishga chog’lanadi,

ularning yolg'onini eshitmaganga olaman, bunaqa tortishuvlar ko'p bo'lib, oxirida hamisha o'zim yutganim uchun, kiprik qoqmay uydirma to'qishga o'taman: "suvda suzadigan, havoda uchadigan, fillarni yutib yuboradigan begemotlarni" televizorda ko'rsatishganini aytib, Shodi akaga imo qilaman, Shodi aka bosiqlik bilan "bo'lishi mumkin", deb qo'yadi, Tangir sodda bola — laqqa tushadi, qiziqadi, lekin ilgari ham ko'p marta shunday angda qolganidan, o'zini ishonmagan ko'rsatadi. "Qo'y-e, rosa opqochasan-da", deydi-yu, davomini eshitishga shoshilib turadi, Haqberdi istehzo bilan: "Qaysi eshittirishda, qachon ko'rsatdi, chislosi, chislosi?", deb o'smoqchilaydi. Suvon bunaqa gaplarga ko'p ham aqli etmaganidan: "Shunday deng, e-e, shundaymi...", deb ishshayib o'tiradi. Hasanboy yolg'on gapirayotganimni bilib tursa ham, indamaydi. "Gurung zo'r bo'lyapti-da", deb iljayadi — bechora, biznikida sig'indi, bir joy topgan ekan, juda nobop, sovuq, yig'ma karavotini elkalab yalinib keldi, siqilishib joy berdik, endi biron tasiga sal mundayroq gapirsam: "Ko'tar ko'rpangni! Quri!", deb yuborishimizdan cho'chiydi, jilla qursa ko'klamgacha, kunlar isiguncha, yo biron tamiz yotoq-potoqqa o'tmaguncha, iljayib chidaydi. Hasanboy kelganidan beri Haqberdi meni siqib chiqarish payida, hatto derazadan sovuq uradigan karavotini unga berib, o'zi mening joyimga o'tishini ham va'da qilgan, ammo Tangir men taraf, Suvonga esa bari bir...

Odamning hayoti tez o'zgarar, oldinga yo orqaga ketar, o'zi ham yo yaxshilana, yo past tushar, ammo fe'li birday turaverar ekan, men buni Haqberdida ko'rdim, hali ham o'sha-o'sha, faqat biqinib olgan...

Hozirlari darsimda sanama-rastaday tizilishib o'tirgan qizlarga, dadil-dadil yigitchalarga qarab tursam, go'yo bular o'sib ketganday, o'zim esa uni hanuz o'sha birinchi kursdagi sodda o'spirin, bolaligim hozirgacha etaginga yopishib yurganday tuyuladi...

Bitta men emas, harbiyni bitirib kelgan va o'qishga uch-to'rt marta dumalab ilingan kattaroq yigitlarni aytmasam, qolganimizning qizlar, sevgi haqidagi tasavvurlarimiz besh-oltita kitob bilan "Sangam"ga o'xshagan fil mlardan uzoqqa borolmas, kursdosh qizlar bilan hatto kechalari birga sayrga chiqqanda ham, ko'nglimizda ming turli ehtiroslar jo'sh ursa ham, buni biron so'z, biron harakat bilan bildirishga yurak betlamas edi. U paytlari qizlar—ma'bud, bo'sa—ilohiy! Sevadigan qizimizni o'zimizdan juda ustun qo'yib, keyin yoniga yo'lashga chora topolmay yurar edik. Tangir Gulchehrani kim qanaqa balandda tasavvur qilganidanmi, ikki yil o'pkasini qo'ltiqib chopib, oxiri, uchinchi kursda uni "qo'lga kirgizganida" hafsalasi pir bo'lib, shunday degan edi: "Qo'lini qayirib, boshini burganiga qo'ymay, mana, munday qilib o'psam... Jo'ra! Sho'rtak bir go'sht! La'l lablar deyishadi yana! Betimga tars etkazib sop qoldi. E-e, bor-e, dedim... Firt yovvoyi-ey" Keyin u hafta sayin o'pishishdan totli-totli tam topa boshladi-yu, har uchrashuvdan keyin Gulchehrani "tashlab", men bilan: "Endi oldiga borsam, odam dema meni! Qo'lni tashla: bitta kon yakdan!" Keyingi uchrashuvdan bo'g'riqib keladi: "Kon yak olib kelardim-u, pul yo'q, jo'ra", deb g'o'lduraydi. Bitirar yilimiz, qishda Gulchehralarning xonasida ustlaridan qulflab o'tirishgan ekan, Tangir hadeb yopisha-verganmi, Gulchehra jahli chiqib: "Kanaga

o'xshab so'raverasiz, shundan boshqa narsaniyam bilasizmi?" debdi. Tangir esi teskari bo'lib, menga keldi: "Men uni yaxshi qiz deb boshimga ko'tarib yursam... gapini qara!" Biron oy—to yana Gulchehra bilan topishguncha, fig'onidan tutun chiqib yurdi. Gulchehra hatto jo'raga ham aytib bo'lmaydigan nimalargadir o'rgatib oldimi, Tangir vazmin tortib qoldi, o'rtalaridagi gap-so'zlarning tafsilotlarini men bilan o'rtoqlashmay qo'ydi; "Gulchehrasiz yasholmayman", deb yurgan oshiq, diplomni ola juftakni rosladi.

Lekin bu savdolarga hali bor.

Hozircha Hasanboy shunday orzu qiladi: "Agar o'zim yaxshi ko'rgan xotinni ololsam, uydan chiqmayman, ustimizdan qulflab olaman".

Suvon o'zini baland tutib, masxaraomuz: "Hiy-ya, xo'roz!" deydi.

Tangir esa bosiqlik bilan: "Nasib qilgani bordir-da", deb qo'yadi.

Kamina esa, o'zimga birontasining mundayroq qarashiga ishonmasam ham, qaysi bilan yursam, deb bosh qotiraman...

Kursimizda chindan ham yaxshi qizlar ko'p bo'lgan ekan, ammo o'zimizga ishonolmay, epini topib gapirolmaganimizdan, "E-ha, bitirgunimizcha bular qa-rib qoladi", deb puf sassiq qilib yurganmiz. Ochig'ini aytganda, qizlar ham bizni pisandga ilishmaydi, ko'proq yuqori kursdagi kiyinishni kiyib qo'yadigan yigitlarga ko'z suzishadi. Birda-yarimi bilan do'stlashganimiz shu do'stlik bilan sevgi o'rtasidagn to'siqdan hatlab o'tolmay xunob. Gapirmay desa, bu yurishi mujmal, gapirib ko'ray desa, bundan ham mahrum bo'lishdan qo'rqadi.

Flotdan qaytgan Mavlon aka "populyarniy" degan so'zni kursimizga yoyib, o'zimizcha tilimizga moslab oldik, ma'nosi shunday: qizlarni gapga solib, kuldirishni biladiganimiz —"populyar yigit", oti tez-tez tilimizda aylanadigan qiz —"populyarka". Suvon hisobda yo'q, qizlar unga, u qizlarga qaramaydi, chunki unashtirilgan, o'sha tomonlardagi g'alati odat bo'yicha, "qayliqqa borib" yuradi, Tangir "sal popu-lyar", Haqberdi sho'rtumshuq "no'l populyar", men esa "ancha populyar"man, ammo Haqberdi: "Mahdiga o'xshab quruqdan-quruq xotinlarning xolasi, qizlarning dugonasi bo'lguncha..." deb rangimni chiqarmaydi, padari qusur, tili yomon, ammo to'g'ri sasiydi.

Keyin, o'zimiz sezmagan holda, asta-sekin ulg'ayib, o'zimizni tutishni, kiyinishni, qizlarga muomalani o'rgandik, bizga ustunlik qilib turgan yuqori kurslar bitirib ketib, qizlarimiz e'tiborida faqat o'zi-miz qoldik, hatto ba'zilarimizga ular tutilgan buyumday, ohori to'kilganday ko'rinib, quyi kurslardagi "svejiy" qizlardan bitta-bitta topib oldik, "muchchi-puchchi" degan qishloqi gaplarni gapirmay qo'ydik.

Lekin hali bu gaplarga ikki-uch qovun pishig'i bor.

Hozircha Suvonni o'rtaga olib, ming aldov bilan "qayliqqa" borganda nimalar bo'lganni aytirishga urinamiz. Bu xumpar ham qaysi jo'rasi bilan borgani, yangasini qanday chaqirgani, qaylig'i kutayotgan uyga o'tayotganda qanaqa kuchuk quvlaganini oshirib-shishirib hikoya qiladi-yu, bizga eng qiziq joyiga

kelganda: “Bag’ini aytib bo’maydi”, deb ishshayib o’tiraveradi, illo avraymiz, yorilmaydi.

Lekin Shodi aka kelgan kuni undan uyalib, bunaqa mavzuga o’tmaymiz, suhbat madaniyroq kechadi.

Har xil ta’sirlanayotgan bitta ko’ngil bo’lib o’tiribmiz.

Faqat Shodi aka go’yo ichidan og’ir bir sir-sinoatni chiqarib ololmayotganday, to’lg’ana-to’lg’ana go’yandalik qiladi,

“O’-o’v, jo’ralar, sizlarga sabr, menga to’zim, sizlarga umr, menga yosh bersin, davramiz to’lib yursin, murodlaringdan ayirmasin, jo’ralar-ov, boshladim, boshladik, ha, eshitganning umriga baraka!

Ho’-o’y, yurgan bir bola edik, enamizning oppog’i, otamizning oppog’i, temirqanot polapon, ko’zlab uchdik, katta shaharning tor hujrasiga kelib tushdik, birimiz birimizning nafasimizni iskab turibmiz, keng dunyoni, keng dunyodagi kengko’ngil odamlarni, kengko’ngil odamlar orasida odamning ko’ngli kengayib yurishini, o’zimiz ham shu kengliklarga borayotganimizni bilmay, jo’ralar-ov, dimiqib yotibmiz, o’-o’v, o’sha kunlarga chiqishni o’ylamaganda, dimiqqanimizni qaydan bilardik—ha-yo, nasib!

Jo’ralar-ov, quloq beringlar, ho’-o’y, bu dunyoning bir chinini so’ylayapman, bir yolg’onini, yolg’onim — chin, chinim — yolg’on,— eshitgan quloqqa bovli, quloq berganlar aytsin — qaysini so’yladim?..

Jabroildan so’rabdilar, nega yaxshilarni olasan, deb, Jabroil ularni Bog’i Eramga boshlabdi, asolikka bir og’och tanlab bering, deb, so’raganlar bir tik o’sgan niholga bolta uribdilar, Jabroil aytibdi, hamma yaxshisini oladi, deb,— jo’ralar-ov,—so’raganning javobi o’zida ekan...

Ho’-o’v, do’sting to’yiga bormang—o’zi esin, kulganida bormang — o’zi kulsin, baxtini bermang — o’zi topsin, osmonga chiqsa, tortmang — o’zi tushadi, yiqilsa, qaramang—o’zi turadi, yarasini silamang — o’zi bitadi, jo’ralar-ov, yolg’izni yo’qlovsiz qo’ymang, yolg’izlik — tuzalmas dard, do’sting dardini oling — o’zingiz tuzalasiz, odamzod dunyoga bir-birini yo’qlab keladi, yo’qlamasa kelarmi-ey, kelgan odam kelganini xabar qilib yig’laydi, ketgan odam ketganini yig’laganlardan xabar bilib yotadi, kelganniyu ketganni mustar qo’ymang, ikkovi ham o’zingiz — kelgan edingiz, ketab boryapsiz-ey, o’-o’, odamzodning yo’li uzun, o’nqiri ko’p, cho’nqiri bor, yakka yurmang, juftdan keldingiz, juft toping, so’ragandan so’raydilar, berganga beradilar, ketayotgandan keladilar, murodingiz — o’zingiz, o’ngga yurib izlang-a — o’zingizga borasiz, chapga yurib izlang-a — o’zingizga borasiz, og’aynilar, ko’ngilni keng tuting, Shu keng dunyosi — o’zingiz.

O’-o’v, jo’ralar, quloq bering, o’ngga salom beraman — chapdan alik keladi, dunyosinnng chapi — o’ng, chapga salom beraman — o’ngdan alik keladi, dunyosining o’ngi — chap, osmoniga tiklab boqdim — turgan erimni ko’rdim, jo’ralar, odamni tuqqan eridan ayirmasin, yo nasib, tuqqan erimizdan olgan

tuprog'imiz rost bo'lsin, alqissa — yashaydigan joyimiz chaman odamzor ekan — to'p guldin tovlanib o'sib turibmiz...

O'-o', jo'ralar, dunyosida bir mehmon edim, Asqartog'ning etagida mudrab o'tirib edim, tashvishxonamni dovu dastgayi bilan elkamga elkalab, qulog'imga bir tovush keldi, etmish ikki tomirimga etdi, tur, dedi, irg'ib turdim, tur deganning o'zini ko'rmadim, jo'ralar-ov, eshitganimni aytyapman, eshitganimga ergashib boryapman...

Yo'l boshlayin, jo'ralar, ha-a, yo'l tortaylik, Asqar degan tog'larga! Toqqa chiqqansizlar-ay, tog'ni ko'rmagansizlar, ko'nglingiz tog' bo'lmasa, tog'ni qaydan ko'rasiz-ah! Tog'ni sevmaganlar qolsin shu erda, tog'ni bilmaganlar yursin Asqarga! He-ey, ustiga chiqqanda g'aflat bosmasin, o'ngiga qarab ko'rsin — tog'u toshni ko'radi, chapiga qarab ko'rsin — tog'u toshni ko'radi, orqaga qarab ko'rsin — tog'u toshni ko'radi, oldiga qarab ko'rsin — tog'u toshni ko'radi, osmonini bir ko'rsin-ey — o'zi turgan bo'ladi, jo'ralar-ov, balandda turib ham o'zini ko'rmagan qancha, pastda yurib ham balanddan qarayotgan qancha, jo'ralar, dunyosining usti past, pasti—ust-ov, odamzoddan balandi yo'q, o'sha balandlarga o'lmay etaylik, umidimizni etim qo'ymasin, odamzodga azobidan baland sabot berar ekan..."

Shodi aka atrofiga to'rtta ko'zani quyib olgan morbozday muqom qilib so'ylaydi, qoshlari, ko'zlari bir zum harakatdan to'xtamaydi, biz—to'rt laqma, choponning ichidan bo'ynimizni cho'zib, Shodi aka imo qilgan tomonlarga alanglaymiz, chapga salom bersa — chapga boshimizni buramiz, o'ngdan alik olsa, o'sha yoqda odam bordek, o'ngga qaraymiz, uv tortib ho'y-ho'ylagan paytlari g'alati bir engil vahmda badanlarimiz jimirlab ketadi. Shodi aka biz bilmagan, eshitmagan butkul boshqa bir dunyoning o'ngu chapi, osti-ustini ta'riflaydi, bir sir-sinoat, telba sezimlar to'lqiniga tushib olgan.

Bizdan bir kurs yukorida Ro'ziqul degan kurashchi bola o'qirdi. Daroz, badani bo'shtob, qorni ham ancha turtib chiqqan, burni pastga solintirilgan boshmaldoqqa o'xshar, polvonlik siyog'i yo'q, lekin ikki yildan beri kuragi erga tegmagan edi. "By — bir palakat, jinnisi bor, kurashda shu jinnisi kelib, engib beradi", deyishardi. Uning kurashiga to'p-to'p bo'lib boramiz. "Ana, mana, jinnisi kelyapti", deb jon hovuchlab o'tiramiz. To'shakning naryog'idan har oyog'i yo'nilmagan bolorday, naq Ahraman devning o'zi mo'ylov burab chiqib keladi, bu tomondan esa halpillagan ishtonini ko'tarib qo'yib, zinkayib Ro'ziqul boraveradi, bel ushlaydi, Ahraman dev siqimlab o'ziga tortganda, Ro'ziqulning chayir oyoqlari dir-dir titraydi, bir-ikki aylanishgandan keyin Ahraman dev "Ho'-o'f!" deb xitob qiladi-da, Ro'ziqulni erdan uzadi, ko'tarib uradi, ammo Ro'ziqul to'p etib oyog'ida o'ng tushadi. Yana bel tutishadi, Ahraman dev "ho'-o'f!" deb na'ra tortib, yana Ro'ziqulni ko'taradi, ammo boyagiday ko'tarib urolmaydi, Ro'ziqul oyoqlari bilan Ahramanni akashakday chirmab, qotib turaveradi, zo'r berganidan Ahramanning ko'zlari olayib ketadi. Ro'ziqul qaltiraydi, birga dumalashadi, Ro'ziqul uning tagidan mushukday sirg'alib chiqib ketadi, yana dumalashadi, kurash hakami ularni ajratadi. Endi Ro'ziqul xuddi kurashni tashlab ketayotganday to'shak chetiga keladi, Ahramanga tomon o'girilib shum tirjayadi, xuddi kuy

boshlanishini kutayotgan raqqosday qo'llarini kerib ko'tarib, barmoqlarini pastga solintiradi-da, birdan ingichka, chinqiroq, odamni seskantiradigan g'ayritabiiy ovozda "Hiy-ya!" deb qiyqiradi, elkalarini o'ynatib, qiypanlab Ahraman devga qarab boraveradi,—“jinnisi kelgani”, ya'ni jununi qo'zigani shu, jununi qo'zisa, unga odam zoti bas kelolmas edi,— to'g'ri kelib Ahramayaga chil beradi, Ahraman guppa uchib tushadi, ko'zlarining paxtasi chiqib yana Ro'ziqulga yopishadi, Ro'ziqul hiyya-hayyalab yana chil beradi...

Ruzikul talay musobaqalarda qatnashib yutib chiqdi, shu, esimda yo'q, O'zbekiston chempioni bo'lgan edimi, bo'lmoqchi edimi, yana bir jununi ochilib qoldi — polvonpaqirning qo'li egri ekan, o'g'irlik ustida qo'lga tushib, qo'lga tushirganni urib, haydalib ketdi.

Lekin jununi borligi rost, u yiqitgan polvonlarning kelbatini ko'rgan odam bunga shak keltirolmas edi.

Shodi akaning badanida ham Ro'ziqulning jununiga o'xshagan nimadir bor edi. Aldarmidi, rost aytarmidi, nega shularni yozmaysiz, desak, yozolmayman, chunki faqat shunday – sizlarga o'xshaganlarga qarab so'z boshlagan paytimda keladi kallamga - birdan ko'nglimga vahiy tushadi, shularni anavilarga ayt deb qulog'imga pichirlab turadi, aytib bo'lganimdan keyin ketadi, hamma gapni o'zi bilan olib ketadi, kallam bo'm-bo'sh bo'lib qoladi, der edi.

Vahiyning qay vaqtda kelishini ham bilaman, der edi, avval ko'kragim kuyushib, havo etmayotganday bo'ladi, demak – yaqinlashyapti, shu vaqti derazaga qarayman, shunda byuilaman - keldimi, yo'qmi, yo'li oydinlashadi, gara derazadagi har bir chiziqni, har bir burchakni, hatto anavi burg'i bilan teshib, cho'p qoqilgan joyigacha aniq, dona-dona ko'rsam, shu ko'rganlamimning hammasi bir-biriga ulanib, birikib, bitta narsaga o'xshasa – bo'ldi – keldi! – kallam tiniqlashadi, ichimdan bir narsa ko'tarilib chiqadi, kirib ulgurgan bo'ladi-da, keyin chiqadi, aytmoqchi bo'lgan gaplarimni birov shivirlab turganday, ko'nglim dirkillab ketadi...

Ba'zi paytlari esa bizni qoyil qoldirganidan taltayib, aytganlarimni qog'ozga tushirsam, kuchi yo'qoladi, hamma gap – tovushimda, bularni o'qigan bilan birov bir narsa anglolmaydi, o'zim gapirib berishim kerak –hamma tilsim o'zimda, deb qo'yar edi.

Ataylab shunday qilarmidi yo o'zi ishonarmidi, hozir ham tushunmayman, Shodi aka aniq-ravshan narsalardan ham doim bir sir-sabab ko'rar edi. Hatto boshining og'rishini ham ota-bobosi, ajdodlarining shajarasiga olib borib taqar edi:uzoq o'tmishda, nodirshohmi, undan boshqasimi bostirib kelganda o'n oltinchimi, o'n ettinchimi avlod oldingi bobosi jangga chiqib, boshidan qilich egan ekan-u, o'sha jarohatning og'rig'i Shodi akaning boshida qo'zg'alayotgan emish, chunki o'sha bobokaloni qilich tekkan zahoti o'lgan bo'lib, og'riq yashamay qolgan, har boshlangan narsaning oxir topishiga ko'ra, kelib-kelib endi qo'zg'alayotgan emish.

“O’ninchida o’qiyotganimda o’sha bobom tushimga kirgan. Tushimda katta bir toshoynaning oldida turib, chetidagi o’yma naqshlarni tomosha qilayotgan ekanman. Birdan oynaning ichidan: “Shodibek, o’zingni bir ko’rib qo’ymaysanmi?”, degan muloyim tovush eshitildi. Bunday qaragam, oynada, ne ko’z bilan ko’rayki, salla-sovut-qalqonda o’zim turibman, boshim yalang, salla yo’qolib qoldi, peshanamning manavi erida bir enli, qip-qizil qoni sho’rg’alab turgan jarohat - qilichning izi! Baqirib yubordim. Uyg’onib ketibman. Narigi uydan enam chopib keldi. Suv ichirdi. Peshanam zirqirab og’riyotgan edi. Shu-shu, miyam sanchadigan bo’lib qoldi. Aslida, oynada o’zim emas, o’sha – necha yuz yil burungi bobom, ayni shu boshidan qilich eb o’layotgan chog’ida ko’ringan ekan. Buning hech ajablanadigan joyi yo’q. Olamdagi hamma narsa nasldan naslga o’tadi, takrorlanadi, suyak suradi. Men otamga o’xshayman, otam – bobomga, bobom ham otasiga, shu taxlit davom qilsa, ketaversa, tabiatning o’sha qadimda yashab o’lib ketgan bobokalonimizni menda takrorlagan bo’lishi hech gap emas, ko’nglim yomoln narsani sezadi, meniyam o’sha og’riq olib ketadi-yov...”

“Sizlar ko’p narsani tushunmaysizlar. Mana, hadeb Sultonni so’kasizlar. Lekin uning nimaga shu ahvolga tushganining tubini o’ylab ko’rmagansizlar. Aslida, Sultonda gunoh yo’q. Hamma illat – ajdodida: yo onasi, yo buvisi, ular ham toza chiqsa, yo ona tomonidan, yo ota tomonidan urug’ida qaysi bir asrda yashagan birxotin buzuq bo’lgan, oqibatini o’ylamay buzuqlik qilib qo’ygan. Endi o’sha buzuqlik keyingi avlodning qoniga o’tib qolganda, tinch yurib-yurib, oxiri, Sultonning badanida uyg’ongan. Sulton sho’rlik buni bilmaydi, erkaklar bilan yotish o’zimga yoqadi, deb o’ylaydi, aslida, uni shu illat chaqiradi, shuning qo’lidabir o’yinchoq, uni engish mumkinligini xayoliga ham keltirolmaydi, sehrlangan. Endi bari bir, uning bironta bolasimi, nevarasimi, badaniga erk bersa, bo’shlik qilsa, buzuq bo’lib qoladi. Bitta matal bor: karvon kechuvdan o’tayotganda bitta tuya suvning o’rtasida to’xtab qopti, tuyakash harchand ura ham joyidan qimirlamabdi, shunda karvonboshi — ko’pni ko’rgan kekxa tuyakash ekan,— yosh tuyakashga urma, peshob qilsin, bo’lmasa, yurmaydi, buning onasining onasida shunaqa odat bor edi: aqlsiz hayvon, doim shu kechuvda suvning o’rtasida to’xtab peshob qilardi, bolasi bunaqa qilmagan edi, nevarasiga o’tibdi, urug’ida bor ekan-da, debdi. Endi, jo’ralar, tuyakarvonning yo’li yuz yilda ham bitta bo’lib turaveradi, odamzodning yurar yo’li ko’p, yaxshi erkakka tushsa, Sultondan ham yaxshi xotin chiqishi mumkin, ammo illat qoladi...”

“Mana, yashayapmiz, o’qib yotibmiz, mustaqil bo’lamiz, deb o’lib-tirilamiz, fe’li-xo’yimizni faqat o’zimizniki deb bilamiz, lekin munday tanamizga o’ylab ko’rsak, bir xislatimiz otamizdan, bir xisla-timiz bobomizdan, ularga ham o’zidan oldingi ota-bobolarimizdan o’tib kelgan. Bir xil zo’r odamlar bo’ladi, gavda ketvorgan, vajohat qoploday, otasi ham, bobosi ham polvon o’tgan, ammo o’zi shu soxt-sumbat bilan o’lguday qo’rqoq. Nimaga shunday? Sababi juda oddiy — ota-bobosidan burungi ajdodlaridan bironta odam qo’rqoq bo’lgan, qo’rqoqlik bularning g’ururiga kirib qolgan-da, kelib-kelib shu odamning qonida uyg’ongan, gavdasiga qaramagan. Endi, sizlar hammasi oldinda bo’lgan bo’lsa, qaytarilaverar ekan, deb o’ylamanglar. Odamzodga iroda, chidam, manavi kalla nima uchun

berilgan—to'g'ri yashasin deb! Demak, jo'ralar, odam toza yashashi, illatga bo'y bermay, yomon ishlardan o'zini tortib yurishi kerak. Bir xil odamlar zimdan gunohga botadi, imi-jimida yuribman, hech kim bilmaydi, deb o'ylaydi — bekor gap. O'zi biladi-ku! Uning gunohi keyin bolasidami, nevarasidami, chevarasidami, lop etib yuzaga chiqib qoladi. Odamning bilgan narsasi ko'ngilga o'rganish bo'ladi, ko'ngilga o'rganish bo'lgan, bitta odamning odatiga aylangan illat uning qoniga ham o'tadi, keyin suyak suradi. Tirik odam o'z avlodining qonini toza tutishni o'ylamasa, dunyosi-ning dunyoligi qoladimi...”

Shodi akaning shunday laqqi donishmandligi bor edi: “E-e, jo'ralar, g'o'rmiz, bilmaymiz, hali boshimizga ko'p savdo tushadi, yaxshimizning yomon, yomonimizning yaxshi bo'lib ketishi bor...”, deb yurardi.

“Ko'raman hali”, deb qo'yardi, go'yo bizga hayot emas, uning o'zi ko'rsatib qo'yadiganday...

Shodi aka juda yomon o'qirdi, imtihonlardan har yiqilib chiqqanida, elkasini devorga berib: “E-e, bu ilmlaring bizga to'g'ri kelmaydi-i”, deya siniq iljayib turaverardi.

YOlg'onchi edi, guyo bormagan joyi, ko'rmagan yurti yo'q, xayoliga kelgan uydirmani, orqa-oldiga qapamay, chippa-chin qilib gapirib tashlardi. Unga ishonsaq, burnog'i yili birgina avgustning o'zida kolxozda hisobchilik qilib, bir qizni yaxshi ko'rgan, uni olib kochayotganda qo'lga tushib, o'limichi kaltak egan, geologlarga qo'shilib, Pomirning avval Sangizamin, keyin Sangiosmon degan tog'larida qon qidirgan, Bulung'ur vino zavodidan bir sisterna “Olmazor”ni qo'riqlab borayotib, Aris degan bekatda ulfatlar orttirgan-da, qirq kuncha ichib yotavergan, sisterna yarimlay deganda, milisiyaning qo'lga tushib, o'n besh kuncha qamalgan, shu ko'yi Qozog'iston dashtlarida o'rimda ishlab qolib, qaytayotganida topgan uch ming so'mini qartaga yutqizib qo'ygan, institutga imtihon topshirib, “soqqasini cho'zolgani uchun”, mandatdan yiqilgan bo'lib chiqar edi. Hammasi shu birgina avgustning o'zida! “Moskvada ishlab yurganimda, ahmoq, birinchi xotinning gapiga laqqa uchib, Tallindan uy sotib olibman, uch oydan keyin havosining namligiga chidash bermay, uyni xotinga tashlab, hayyo-huyt, buyoqqa jo'nab kelaverdim”, degan gaplarni aytish unga cho't emas edi. “Aldayapsiz”, desak, “Ishonmasanglar, Tallindagi ratushada Ayvo Purkkala, ikkita “k” bilan yoziladi, shunaqa jo'ram ekskurso-vod bo'lib ishlaydi, xat orqali so'ranglar. E-e, u bilan necha marta qisqichbaqa ushlagani chiqqanmiz. Pivoga juda zo'r ketadi-da”, deb gapni boshqa yoqqa burardi. Ishonmasak ham ko'nglimizda shubha tug'iladi, uy sotib olmagan bo'lsa ham, sayohatga borgandir, yo'qsa, ratusha degan narsalarni qaydan biladi, pivo ichganini gapiryapti-ku, deb o'ylaymiz. “Shodi aka, rostini ayting, necha marta o'ylangansiz o'zi?”, deb so'raymiz. (Qiziqda — qaysisiga qanday o'ylanganlarini aytib beradi.) Shodi aka boshini orqaga tashlab, ko'zlarini yumib oladi-da, hisoblab chiqadi: “Bu xotinim Tuyg'un—oltinchi, yo'q, ettinchi, yo'g'-a, bittasi bilan o'n kungina yashadim, hisob emas, to'g'ri, oltinchisi ekan”. Kulamiz: laqillatayotganini bilib turamiz,

ammo olti-etti marta o'ylanmagan bo'lsa ham, shunchasi bilan yurgan chiqar, nomma-nom, adashtirmay aytyapti-ku, deb havasimiz keladi.

“Ma'divoy,— otimni o'zicha shunaqa o'qimishli qilib aytardi,—bularingizni qo'ying—oddiy odamlar, meni aldaydi deb o'ylashadi,— degan edi bir marta.— Siz boshqa, menga o'xshaysiz. Ikkalamiz bu to'daning ichida rimlik avgurlarmiz. Rim avgurlarini bilasizmi? Ikkitasi ko'cha to'la olomonning ichida uchrashib qolsa, mana bunday qilib, ko'z urishtirib, imo qilishar ekan. Shu imoda, qarang, bulardan qanchalar balandmiz, degan ma'no, oddiy odamlar uch kecha-kunduz yotib muhokama qiladigan gaplarning mazmuni bo'lar ekan. Ba'zan-ba'zan bularga qo'shilib, menga ishonmay qolasiz. Unaqa qilmang, men rostini aytaman, yolg'on gapirmayman. Odam bir martagina yashaydi, shu umri ham juda qisqa. Qayta tug'ilishning iloji yo'q. Shunday ekan, berilgan umrni bir marta emas, takror-takror, qayta-qayta armonsiz yashab olish kerak. Men shundayman: kolxozda ham ishlaganman, Pomirga ham, Pavlodarga ham borganman, institutga urinib ko'rishni ham esdan chiqarmaganman, hammasini qilganman, shu bir oying ichida, boshqa qay vaqtda qilaman, u vaqtlarning o'z ishlari bor, nega bularingiz ishonmaydi, ichimga kirib chiqishmagan-ku, hayronman, faqat ko'rsatganingni ko'radi, odam bunaqa bulmasligi kerakda...”

“YAshash zerikarli-da,—der edi u yana.—Shu yurish-turishimga o'zimdan ham bir narsalar qo'shib turmasam, bo'g'ilib ketaman...”

Shodi akaning o'sha bormagan Pomirida ko'rgan bir odam yovvoyi choldan eshitgan hikoyasi bo'lardi, cholning boshidan o'tganmi shunday voqea yo Shodi akaning o'zi to'qiganmi, biron ertak kitobdan o'qiganmi, ishqilib, biz uchun juda qiziq, ko'zlarimiz yonib, yuragimiz gumurib eshitar, aytimchimiz ketgandan keyin, ayni imtihonlar qistalang payti shuncha vaqtimizni laq-luq gap bilan olganiga xunob bo'lib, orqasidan so'kar edik...

Shodi aka go'yo o'sha geologlarga ergashib, kon qidirib chiqqanda, Sangiosmon degan kimsasiz joyda shu cholni uchratibdi. Bir cholki, har elkasiga ikkita Suvon bemalol sig'ib o'tirar, har bilagi bizlarga o'xshagan yigitning soniday kelar, bo'y-basti, hay, bilmadik, bu eshiklarga sig'mas ekan. Ko'zi yomon, tikilsa odamni teshib yuborar emish. Yuzida ko'ndalangiga to'rtta chuqur-chukur chandiq bor ekan.

Shodi aka hamma gapni shu chandiqdan keltirib chiqargan, bir aytganda, o'n besh kun, bir aytganda, bir oy, yana birida qirq kun deganda cholning ko'nglini topib, nega odam oyog'i tegmagan joylarda yolg'iz yashayotgani, boshiga qanday kulfat tushib buyoqlarga kelib qolganini so'ragan, chol ham azbaroyi Shodi akamizni yaxshi ko'rib, ko'ngliga yaqin olganidan, olis-olis, baland-baland cho'qqilarga qarab chuqur uh tortgan-da, sarguzashtini aytib bergan...

Chol yigitligida osmondagi burgutning ko'zidan, uchib borayotgan pashshaning qanotidan bexato uradigan, otgan o'qi tegmasa, qayta otishni or biladigan dovqur ovchi bo'lgan ekan. Boshqa qishloq, boshqa urug'dan bir sohibjamol malak bilan ahd-paymon qilib, qizning otasi, qarindoshlari qarshiligini qanday engishni bilmay, boshi qotib yurgan kezlar. Endi bizlar bilmaymiz, balki

Hasanboy xabardor chiqar, uyoqda bir urug' bir urug' ga qiz bermaydi, udumi juda qattiq—udumning buzilishi qon to'qishga olib kelar emish...

Xuddi shu kunlari tog'da bir ayiq paydo bo'lib, atrof qishloqlarga dorib, kunda-kunora bir sigirnimi, ho'kiznimi gumdon qilib ketaveribdi. Ko'p ovchilar ayiqning payiga tushibdi, ammo izning o'zi yo'q, tomday-tomday buqalarni oldiga solib, mo'ngratib haydab ketayotganini ko'rgan odamlar bor, ammo ayiqning na o'zi, na makoni bor, qayoqdan kelib, qayoqqa ketganini hech kim bilolmas ekan.

(Shodi aka bu ayikning sirini tog'lik soddalar bilmagan, men bilaman, degan ma'noda qoshlarini uchiradi, hikoyasi vahimaliroq chiqadi.)

Bu orada ovchi yigit ham miltig'iga to'ng'izo'qdan joylab, ayiqni hech kim otolmaydi, lekin, mana, biz otamiz-da, deb tog'u toshni kezadi, biron belgi, iz topolmagandan keyin, hech qanaqa ayiq yo'q, odamlar-ning ko'ziga ko'ringan, vahqma ran, degan xulosaga keladi-da, ayiqni ko'rganlardan surishtirish bahonasida sevgilisining kishlog'iga borib, u bilan gapni bir joyga qo'yadi, unisi ertasi kuni tunda tugunchasini kultiklab, uylarning orkasidagi chorborda kutadigan, bunisi kelib olib qochadigan bo'ladi, shunaqa vahimali damlarda bu ishimizni hech kim bilmay qoladi, deb o'ylaydi ovchi.

Shartlashilgan kuni ovchi kech kirishi bilan yo'lga tushadi. Tog' oqshomlari yomon qorong'i, ovchiga bunaqa qorong'ilar cho't emas, sohibjamolning visoliga etishni o'ylab, toshdan-toshga sakrab, yo'lbarsday yo'l tanobini tortib boraveradi. Ikki tomoni tikkalab ketgan chuqur daraning tor bo'yniga kelganda, xuddi ko'krigidan birov itarganday yurolmay, taqqa to'xtab qoladi, sababiga o'zi hayron, korong'iga sinchiklab tiqilsa, besh qadamcha oldinda bir qoruvli odam qotib turgan emish! Qo'rquv nimaligini shu paytgacha bilmagan ovchini birdan vahm bosibdi, go'yo qo'rqadigan narsaning o'zi yo'q emish-u, ammo yuragi potirlab ketaverarmish. Zo'rg'a tili kalimaga kelib: "Ho'y, tu ki, insmi, jinsmi? Javob go'? Bo'lmasa otib tashlayman!", debdi. Javob o'rniga haligi odamdan bir g'uldirash eshitilibdi. Ovchining yuragi tubga tortib, sochining har tuki bigizday tikkayib, kallapo'shini ko'tarib yuboribdi: qarasa, oldidagi qora hech qanaqa odam-podam emas, katta, bahaybat, gumbazday hurpaygan ayiq! Oyog'ida tikka turib olganidan odam bo'lib ko'ringan ekan. Endi qizig'inn eshitaylik: ovchi hadaha elkasiga qo'l yuborsa, miltig'i yo'q! Uydan chiqayotganda moylab, o'qlab, taxt qilib elkaga olgan miltig'i yo'q! Ovchi taxtaday qotibdi, ha, o'ldim endi, shuncha jondorni bejon qildim, o'zimning jonim ham jondorning qo'lida ekan, deb kalima qaytaribdi. Lekin ayiq unga tashlanmabdi, shu turganicha xuddi bir narsani tushuntirmoqchiday g'urullayveribdi. Ovchi sal-pal es-hushini to'plab, asta-asta orqaga tislaniydi, ayiq ham bu ishing tuzuk deganday, g'ur-g'ur qilib turibdi. Ovchi sal uzoqlashgandan keyin, orqasiga qayrilib qochibdi. Endi yana qizig'ini eshitaylik: qochib borayotsa, dumbasiga to'p-to'p qilib qattiq bir narsa urilarmish, qo'lini orqa-siga yuborib, ushlab ko'rsa - qo'ndiq! Miltiq elkasida ekan! Ovchini qora ter bosibdi, bir xarsangtoshning ustida o'tirib, belidagi belbog'ini echibdi-da, terini artibdi (shu joyi esingizda tursin), boya esim teskari bo'lib, elkamdagi miltiqni topolmabman-da, deb jahli chiqibdi, miltiqni qayta o'qlab, orqaga

qaytibdi. Miltiqni mahkam changallab, haliyam yo'lda turgan bo'lsa, padarla'natini varanglatib otib tashlayman, deb pusib-qapishib boraveribdi.

(Shodi akaning yuzida, ha, nodon-a, bunaqa ayiqni otib bo'ladimi, degan sirli-norozi ifoda o'ynaydi.)

Bir vaqti shunday qo'log'ining tagidan boyagi g'urillash chiqib, hatto ayikning issiq nafasi betiga urilibdi: shundoq yonginasida turganmish! Miltiq esa bu tomonga qaragan, to o'nqlab, tepkini bosguncha, ayiq uning o'zini tappa bosishi mumkin. Ayiq yana boyagiday g'urillab, ket-ket, deganday tovush qilarmish. Ovchi yana orqaga qaytibdi, yana toshning ustida o'tirib o'ylabdi. Yo'lga tushsa, yana shu hol: qarshisida ayiq turibdi! Shunda ovchining qoni qaynab, ayiqqa: "Ho'y, xirsi go'rso'xta! Chi ba tu rohi man band kuni? Daf shud-e, padarashba la'nat!", debdi. Padarashba la'nat, deganda ayikning jahli chiqibdi, ovchining boshidan oshirib, bir toshni otibdi, tosh tepadagi harsanglarga urilib mayda-mayda bo'lib tushibdi. Ovchining kayfi uchib ketibdi, lekin bilibdiki, ayiq unga daf qilmoqchi emas, bo'lmasa, toshni to'g'ri mo'ljallab otardi. Xunob bo'lib, ahvolini ayiqqa tushuntirmoqchi bo'libdi: "Ho'y, menga qara, jo'ra! Men sevganimni olib kelishga boryapman. Nega yo'limni to'sasan? Seniyam jufting bordir, yaxshi ko'rsang kerak, meniyam tushun-da, axir!" Ayiq esa javob o'rniga yana g'ur-g'ur qilarmish, qayt-qayt, deganday bo'larmish. Jahli chiqqan ovchi miltig'ini havoga to'g'rilab, ustma-ust bo'shatib, ayiqni qo'rqitmoqchi bo'libdi, ammo harchand tepkini bosarmish, tepki chiq-chiq qilarmish-u, miltiq otilmasmish...

(Shodi aka nodon ovchining ustndan mug'ombirlik bilan kuladi: xuddi ayiq o'ziniki, hamma gapni unga o'zi o'rgatganday.)

To shunaqa oldinga yur, orqaga qayt, ayiq bilan gaplashish, unga yalinish bilan tong ham otibdi, atrof yorishibdi, birdan ayiq g'oyib bo'lib qolibdi, ammo endi foydasi yo'q — kun yoyilganda qizning qishlog'iga borishdan hech qanday ma'ni chiqmaydi. Ovchi alamidanda miltiqni osmonga qaratib tepkini bossa, gumburlab otilibdi. Kuyinganidan nima qilishini bilmay, o'tirgan joyida miltiqni gumburlataveribdi. Bir vaqt ko'rsa, o'q tugagan. Yig'laguday bo'lib, qishlog'iga qaytibdi. Shu kuniyoq oziq-ovqat bilan o'q-dorini g'amlab, qanday bo'lsa ham sevgani bilan topishishga to'sqinlik qilgan bu g'alamis jondorning surobini to'g'rilash uchun yo'lga o'tlanibdi. Ovchi odamga ovidan engilishdan ham ko'ra sharmandalik yo'q, to uni terisini shilmaguncha, qaytmayman, deb so'z beribdi o'ziga.

Kechasi ayiq bilan to'qnashgan joyiga kelib, bu erda ayiqning bironta izini, belgisini topolmabdi, haligi ayiq otgan toshning bo'laklari ham, tekkan joyi ham yo'q, ayiq turgan joylarda esa biron-ta ham tosh-posh siljimagan, bironta o't-maysa ezilmagan. Ovchi odam, ayiq tugul kaklik yo'rg'alagan joydan ham belgi topadi, juda hayron bo'libdi, ammo yigit so'zidan, arslon izidan qaytmaydi, axtarib ketaveribdi. Olti kun tentirabdi, ettinchi kuni peshinda nihoyat iz topibdi: bir emas, ikkita,— biri ayiqniki, biri molniki, shu izdan daraklab borib, ayiqni ham ko'ribdi, o'sha kechasi uchratganiga qaraganda, chog'roq ekan, endi ho'kizni yorib, jigarini eyman, deb tumshug'ini qoringa tiqqan payti ekan, nafsi quturganidan ovchining

pisib borganini sezmad, ovchi uning qulog'ini mo'ljalga olib, bir o'qni jo'natibdi. Ayiq bir o'kiribdiyu chappa qulabdi. Xuddi shu vaqti cho'qqining orqasidan juda ham yomon, dahshatli bir o'kirik ham eshilib, ovchining esi teskari bo'lib ketibdi. Bir toshning panasiga o'tib, tepaga qarasa, cho'qqidan lapanglagancha bir ayiq, bir ayiq tushib kelyapti! Bu dunyoning ayig'i emas, manov o'lib yotgan ayiqqa to'rtta keladi! O'sha ayiq! Juftining yoniga tushib, iskab ko'rib, chunonam o'kiribdiki, yoru ko'k titrab, tog'u tosh larzaga kelibdi. Ovchi miltig'ini changallab, tura qochganini biladi, qanday qishlog'iga etib kelgani, qanday yotib qolgani, qancha kun alahlaganini bilmaydi!

Endi bundan ham qizig'ini eshitaylik.

O'sha ayik otilgan, tog'dan boshqa bahaybat ayiq tushib, juftining tepasida zor-giryon o'kirgan kuni ovchining sohibjamol malagi ham birdan qattiq og'rib, shu og'rishi bilan etti kecha-kunduz ana ketdi, mana ketdi bo'lib yotadi. Tog'da tabib zoti borki, hammasi keladi, muolija oti borki, hammasini qo'llashadi, lekin befoyda — qiz yonib tagiga etgan shamday so'nib boraveradi. Ettinchi kuni, qiz tildan qolib, imo bilan rozi-rizolik tilashayotgan paytda, qarindosh-urug'lari to'planib, yig'i-sig'i boshlamoqchi bo'lib turgan bir vaqtda, tog' tomondan sochi ham, soqol mo'ylabi ham qizg'ish-sarik, badanini ham shunaqa jun bosgan, yalang'och, faqat ovratini belbog' bilan yashirgan bir dalli-devona lapanglab tushib, to'g'ri kasal yotgan uyga kirib boradi.

Qo'llaridagi tirnoqlari o'sib qayrilib ketgan, oyoqlaridagi tirnoqlari yursa, erni timdalab, qatir-qutur tovush berar ekan.

(Bu devonaning qanaqa devonaligini sezib, jo'r bo'lib: "Xiy-y!" deb yuboramiz, Shodi aka battar jo'shadi.)

Devonaning yo'lini hech kim to'smaydi, uning vajohatida odamni o'ziga bo'sundiradigan, men aytganday qilasan, degan bir kuch bor edi. To'g'ri jon taslim qilayotgan qizning bosh uchiga o'tirib, o'zicha g'uldirab, nimalarnidir o'qiydi, qiz ko'zini ochadi, onasiga qarab: "Suv bering, chanqab ketyapman", deydi, keyin birdan devonaning belidagi belboqqa ko'zi tushib, o'ylanib qoladi. Devona unga qarab bir narsalarni g'uldiraydi, bechora soqov ekan, hech kim uni tushunmaydi. Devona qizning otasiga qarab yana g'uldiraydi, keyin qo'lidan ushlab tashqariga tortib chiqadi, bir qiz yotgan uyga, bir ovchining qishlog'i tomonga ishora qilib, o'zining kallasini uning boshiga yaqinlashtiradi, to'planganlar uni o'yin tush-yapti, deb o'ylab kulishadi, devona esa erga yotib, ko'zlarini olaytirib, o'layotgan qizning ahvolini muqallid qiladi, o'rnidan turib, bir tayoqni oladi-da, miltiq otayotgan bo'ladi, tushunishmaydi, keyin devona bir odamni erga yotqizib, bir odamga tayoq ushlatib, keyin ikkovini quchoqlashtiradi, yana o'sha ovchining qishlog'i tomonga ishora qiladi, agar shunday bo'lmasa, degan ma'noda bosh chayqab, o'zi uzala cho'ziladi-da, o'lgan qizning ahvolini ko'rsatadi. Nihoyat qizning otasi tushunadi. "E-e, dalli-devona, angladim nima demoqchiligingni, ko'p g'uldirayverma, aytganingday qilamiz. Bo'ldi! Qizimning umri shunga bog'liq ekanmi, sen xohlaganday bo'ladi", deydi-da, ovchinikiga bir otliqni jo'natadi...

Tushundingiz!

Devonaning aytgani bo'libdi: otasi kirib, "kasalingning davosi shu ekanmi, ona qizim, men roziman, o'sha yigitnikiga odam yubordim", deganidanoq sohibjamol malakning rangiga qon yugurib, o'rnidan turib ketadi. Buyoqda esa xushxabarni eshitgan yigit ham, alahlashi to'xtab, isitmasi tushib, bir kunda sog'ayib ketadi.

Hafta-o'n kun ichida to'y ham bo'libdi, to'ygga soqov devona ham kelib o'tiribdi, oldiga ovqat qo'yishgan ekan, besh panjasini urib, chapillatib, to'kib-sochib ebdi, chanqagan ekan, kuyov-kelinga nikoh o'qilayotgan supaga otilib chiqib, ovchi endi ichaman degan kosani undan tortib olib, nikoh suvini ichib yuboribdi. Ovchining rangi okarib, devonaning belidagi belboqqa tikilib qolibdi, devona esa unga qarab irjayganday bo'libdi. Hech narsadan bexabar odamlar esa devonani kula-kula nari haydab, xursandchilikni davom ettiraverishibdi. Endi, to'y, rasm-rusumni bilasizlar, kuyov yuzini bekitib, to qizni uyiga olib ketishmaguncha, sal panalab yurishi kerak, shunday bir paytda yurgan bir devona, ustiga-ustak soqovni qisti-bastiga olib, belbog'ni qaydan olding, deb quvlab yurish noo'ng'ay, ovchini g'am bosib, xursandchilik tatimay o'tiraveribdi... Devona esa xuddi o'zining to'yiday o'yinga tushibdi, bo'kirib-g'uldirab ashula aytgan bo'lib, hammaning ichagini uzibdi. Fag'at uning yuzi ovchiga juda qaxrli, qasosliday ko'rinibdi, kulishining ham irillashdan farqi yo'q ekan...

Kelinni ham olib kelishibdi, soch silatar, yuz ko'rsatar, bet ochar degan rasm-rusumlar utib, hamma tarqab, ertalabiga qizning oq ko'ylagini tekshiradigan yangalar ham qiqir-qiqir qilib, nihoyat uyquga ketishgandan keyin, yigit sohibjamol kelinchagining qo'yniga kiradi, ammo, ey, eshitgandan nari, yigit odamning boshiga bunday kulfat tushmasin!.. O'ziyam ovchi shu devonani ko'rgandan beri, yursa, er tortib borayotganday, madorsiz, ichiga chiroq yoqsa ham yorishmay turgan ekan, bu ham ustiga-ustak bo'lib, ko'ngliga yomon xavotir oralabdi: baxti boylangan ekan! Kelin unga taskin berib, ko'nglini ko'tarmoqchi bo'lib, bir-ikki og'iz so'z qotibdi. Ovchi shundan keyin o'sha kuni uni olib qochib kelishga borayotganda, yo'lda ayiqqa duch kelib o'tolmagani, keyin iziga tushib, uning o'zini emas, juftini otib o'ldirganini aytib bergan ekan, kelinchak "voh!" deb qichqirib yuboribdi. Endi yana orqaga qaytamiz: hu, ovchi bilan sohibjamol ahdlashayotgan paytda, ularning gapini qizning yangasi bodomning orqasiga panalab, hammasini eshitgan, keyin oqizmay-tomizmay eriga etkazgan, aka boshqa aka-ukalarga, ular ham o'z navbatida otaga, ota esa qizni uyga qulflab, keyin oltove-ttov qarindosh bo'lib, miltiqlarni shaylab, keldi — otamiz, deb chorbog'da poylab yotishgan ekan.

Buyog'ini endi o'zingiz tushunib olaverasiz: nega ayiq ovchining yo'lini to'sgan, nega yalinib-yolvorsa ham o'tkizmagan...

Shu vaqt eshik ichkariga itarilib, zulfinlari o'ynab ketibdi, kimdir eshik orqasida gup-gup yurganday bo'libdi. Ovchi o'rnidan turmoqchi ekan, kelinchagi dahshat ichida mahkam bo'yniga yopishibdi. Ovchi-ni esa ichidagi bir kuch tashqariga tortarmnsh. Ni-hoyat kelinchagining qo'llaridan bo'ynini kuch bilan

bo'shatib, eshikni ochibdi, tashqkariga qarab ikki odim tashlabdi. Qarasa, qorong'ida o'sha soqov devona irjayib turibdi, ovchi sal o'zini bosib: "Ket-e, g'oyib omadani hirs", degan ekan, devona kulochini kerib, uning yuziga shapaloq tortib yuboribdi, shapaloq zarbi shunaqa kuchli ekanki, ovchi qichqirishga ham ulgurmay uchib ketibdiyu boshi bilan devorga urilibdi...

Shu yotishida qancha yotgan — noma'lum, ko'zini ochsa, tepasi to'la odam, qiy-chuv, uydagi hamma narsa ag'dar-to'ntar, to's-to'polon, kelinchak esa hech qaerda yo'q, sim-siyoh g'oyib bo'lgan, birov ko'ruvdim, demaydi...

Ana shunaqa, jo'ralar, sizga yomonlik qilmaganga hargiz yomonlik qilmang—o'zingizga qaytadi, ovchi—ning kelinchagi... Mayli, davomini eshiting.

Ovchi oshnamiz endi ayiqdan tayin o'chini olish uchun o'ttiz to'qqiz kun, miltiqning qayishi elkasini yag'ir qilib, tog'u toshni kezadi, qirqinchi kuni, Sangiosmondagi menga ko'rsatgan g'origa etib keladi, boshini suqib qarasa, xotini ham, dalli devona ham shu erda! Devona xotinning tizzasiga boshini qo'yib, pish-pish uxlayapti, xotin esa uning qizg'ish-sariq, tikraygan sochlarini silab o'tiribdi. Kiyimlari abgor, ko'zlari bejo, bu ham bir devona! Ovchi ko'zini chirt yumib, devonani otib tashlabdi, yovvoyilashib ketgan xotin irillab unga tashlangan ekan, ikkinchi o'q bilan bunisini xam tinchitibdi. Devona esa jon berish arafasida unga o'ngarilib qarabdi-da, irjayib... asliga qaytibdi — ayiqqa, o'sha bahay-bat ayiqqa aylanibdi, keyin o'libdi. Xotin o'q tekkan zahotiyog jon taslim qilgan ekan.

Ovchi ayiqni sudrab chiqib, o'sha erdan go'r kavlab ko'mibdi-da, xotinning jasadini elkalab, to'g'ri qaynotasinikiga kirib boribdi, bo'lgan voqeani bir-bir aytib beribdi, miltiqni uning qo'lga tutqazibdi. "O'z qo'llaring bilan men bebaxtni otib tashlanglar, bu dunyoda yashaguligim qolmadi", debdi. "O'sha g'orning oldida o'zimni-o'zim otardim-u, lekin manavi, mening jaddimga qolgan bechora janozasiz ketmasin, dedim. Mana, etkazib keldim, endi meni o'ldirsalaring, ulug' ish qilgan bo'lasizlar", debdi.

Endi, jo'ralar, Pomir xalqi juda mard keladi, ular bekorga tog'da yashamaydi, tog'da yashagan odamning ko'ngli ham tog' bo'ladi, dardi ham shunga yarasha, shafqati ham, ovchining gunohiga qonga — qon, jonga — jon, deyishmabdi, aksincha, "Xuningdan kechdik, o'zi seni xudo jazolabdi, u dunyoingni ham, bu dunyoingni ham kuydiribdi. Bor, ketaver, faqat ko'zimizga ko'rinmaysan, dardimizni eslatmaysan, odamlar orasida yashamaysan", deb aytibdilar.

Shu gap, jo'ralar, cholning yuzidagi to'rtta chuqur chandiq o'shanda ayiq shapaloqlaganda qolgan jarohatlarning izi ekan, o'zi esa o'shandan buyon shu kimsasiz joylarda yolg'iz kun kechirar, xudodan rost ajal tilab yurar ekan. Cholni o'z ko'zim bilan ko'rib, boshidan o'tganlarni o'z qulog'im bilan eshitmaganimda, o'sha g'orning ichiga kirib, qadamlab o'lchab chiqmaganimda, sizlarga bu gaplarni aytib o'tirmagan bo'lar edim...

Ishonsanglar ham, ishonmasanglar ham—ixtiyor o'z'laringda, cholni o'tgan yili ko'rgan edim, baquvvat edi, hali o'lmagan bo'lsa, o'sha kimsasiz joylarda yolg'iz g'amini elkalab yurgandir. Aytib bo'ladimi, dunyo asli o'zi keng-u, lekin

bandasining yurar yo'llari tor, bir tasodif bilan Pomirga chiqib, Sangiosmon degan joyiga borib qolsanglar, shu erlarda Amirsho degan ovchi o'tganmi, uning kelinchagini ayiq olib qochib ketganmi, deb so'ranglar. Ha-ya, sal bo'lmasa unutibman: sho'rlik kelinchakning otini Mohiro' degan edi ovchi, Mohira emas, Mohiro'—pomir-cha ot...

“...Mayli, Haqberdi, siz ishonmang,— deydi Tangir o'ylanqirab.—Lekin qaysi ertak bo'lgan? Hammasi xam to'qilgan-da.”

“Shu yashashimizning o'i ham to'qilgan,— deb tu-shuntirmokchi bo'ladi Shodi aka.”

“Ja-a, gap sotishni yaxshi ko'ramiz-da,—deb kinoya qiladi Haqberdi.”

“Xotinni otgan, odamlardan ayrilgan, bola-chakasi yo'q, hamma narsadan mahrum, nimaga yashab yuradi bu ovchingiz?— deydi Suvon qizishib.— Bir o'q bilan o'zini ham...”

“E-e, siz qiziq ekansiz,— deb cho'chinqirab jilmayadi Hasanboy.— Gunohga botadi-ya!”

“Nimaga yashaydi? Yashaydi-da!— deb chimiriladi Haqberdi.— Jon shirin, hamma o'limdan qo'rqadi.”

“E-e, shunaqa yashagandan ko'ra...—deb qo'l siltaydi Suvon.”

“YAxshimi, yomonmi, turmush og'irmi, engilmi, bari bir, odam umrini to'la yashashi kerak,— deydi Shodi aka.”

“Avvalasi shuncha yomonlik qilmaslik kerak,— deydi Tangir salmoqlab.— Qilgandan keyin qochmaslik kerak — nomardlik bo'ladi...”

“Shunaqa yashash mardlik bo'ladimi?— deydi Suvon yana qizishib.— Rasvosi chiqqandan keyin, o'limni ham bo'yniga olishi kerak!”

“Mayli, shunday deylik, lekin ovchining qilmishlariga beriladigan jazo kimning bo'ynida qoladi?—deydi Shodi aka.—Axir, jazoni ham kimdir tortishi shart-ku.”

“To'g'ri,— deydi Tangir yuzlari yorishib.— Ovchi o'zini o'ldirsa, ertakda ham ma'ni qolmaydi.”

“E-e, bularning hammasi gap,— deydi Haqberdi.— hayotga to'g'ri kelmaydi. Agar odam ertak bo'yicha yashasa...”

...Shodi aka ketishini ham, qolishini ham bilmay, mung'ayib o'tiradi. Cho'pchakni muhokama qilishdan charchaymiz, gapxona soviydi, yana indingi imtixonning g'ami tushadi, Haqberdi konspektini qo'lga oladi, Suvon yana ko'rpasiga kiradi. Tangir derazaga tikilib, go'yo katta iarsalarni o'ylab, o'ylaganlaridan ko'ngli qolganday, “Ha-e, shu-da”, deb qo'yadi, Hasanboy bu gapdan dik etib turib, dasturxonni chaqqon yig'ishtiradi, hujramizdagi yakkayu yagona kursini Shodi aka egallagani uchun, bir zum tek qotadi, keyin Tangirning yoniga omonat qo'nib, er ostidan hammamizga bir-bir qarab chiqadi.

Puchayib o'tiramiz, bir-birimiz bilan sabrsiz ko'z urishtiramiz: ketmaydimi endi...

Shodi akaning oilasi to'g'risida shivir-shivir gap ko'p edi, biz uchun bu gaplar sirli va ayanchli tuyulardi. Shodi akaning o'zi: "Bir munday o'tay ham demaysizlar. Tuyg'un, kursdosh ukalaringizni olib kelmaysizmi, deb ko'p so'raydi", deb qanchalar aytgan bo'lsa xam, hech bormaganmiz, negadir o'sha Tuyg'unoyning ko'ziga Shodi akaning kursdosh ukalari sifatida ko'rinishdan orqilar edik.

Shodi aka Tuyg'unoyga u boshqa bir yigitdan homilador paytida uylangan. Tuyg'unoy bizdan ikki kurs yuqorida, muzfakda o'qiydi, o'zlarining fakul tetini bitirayotgan Nozir degan bir yigit bilan ilakishib, bo'yida bo'lib qolgan, u xonasallot ham ayshini surib yurib-yurib, Tuyg'unoy homilasi borligini aytgandan keyin, davlat imtihonlaridan qutulgan payti ekan, uyida oyday xotini, gulday bolasi borligini aytib, diplom olishga ham qaramay Turkistoniga juftakni rostlabdi. Tuyg'unoy yozgi ta'tilda uyga borishga yuzi chidamay, akalaridan qo'rqib, o'zini bir nima qilishga jur'ati etmay, ikki qo'li—bir tepa, qismatini karg'ab, sho'r-sho'r ko'zyoshlarini oqizib yurgan kezlarda qishlog'idan sinfdoshi Shodi aka hujjatlarini qo'ltiqlab, institutga kelib qoladi-da, dardini yorishga kimsa topolmay yurgan qiz, unga sardaftarini ochadi. Shodi aka nodon yoshlarni topishtirishga g'ayrat bilan kirishadi, Tuyg'unoydan adres olib, Turkistonga ustma-ust, biri biridan tahdidli telegrammalar jo'natadi, Nozirboydan sado kelmagach, nomard qochoqning nega jimligini tekshirish, oilasi chindan bor-yo'qligini bilish, yolg'on chiqsa, birato'la shoshqalok oshiq-ma'shuqlarning boshini qo'shib qo'yish uchun, Tuyg'unoyni etaklab safarga otlanadi, shu bilan to Nozirboyni topib, oilasi borligini ko'rib, Tuyg'unoyga taskin berib kaytib kelishguncha, birinchi imtihon ham o'tib ketgan buladi.

Endi, birov kimga osilishni bilmay yurib, shartta Shodi akani tutgan, deb Tuyg'unoyni so'kadi, birov sarqit yalashdan nomus qilmagan Shodi akani, o'rtalarida Turkistondan qaytishlarida nima bo'lgan, nima qo'ygan, o'zlariga ayon, ishqilib, kelganlaridan keyin, u paytlari Tuyg'unoyning homiladorligi uncha bilinmagan chiqar, o'zi suqsurday narsa, Shodi aka uni sevib qolganmi, balki bir insonni xor-zorlikda yurishiga ko'ngli chidamagandir, o'ziga turmushga chiqishni taklif qiladi. ZAGSdan o'tib, oila qurishganini qishloqdagilariga bildirishga ikkovining ham yuragi dov bermay, birga yashab yuraverishadi, lekin, teshik quloq, bunaqa gap erda yotadimi, og'izma-og'iz o'tib, Tuyg'unoyning akalariga etib boradi, ota — kolxoz raisi, bir aka — rayondagi jami "moliya"larning kattasi, biri—prokuror yordamchisi, biri — PMKning boshlig'i, urug'laridan chiqqan sharmandalarning ikkalasini ham bir go'rga tiqish uchun qora bulutday bostirib kelishadi. Ammo, kelib ko'rishsa, yana bir nevaralik, jiyalik bo'lay, deb turishibdi, to'rvaqoqdi tilla qiz garajning piyonista qorovuli Turdimat nonemasning turshakday bolasi bilan ko'mirxonaday bir katalakda yalashib-yulqashib o'tirishibdi, uyat — o'limdan yomon, Shodi akani bir-ikki shapaloqlagan, o'ldirvoramiz, urug'ing bilan quritvoramiz, deb udag'aylagan bo'lishadi, nachora, zamon shunaqa, bu ko'rgulik bitta ularning boshiga

tushayotgani yo'q, yopig'liq qozonni ochib o'tirmay, uncha ham gurillamagan, muncha ham pisillamagan to'y o'tkazishadi, to'ydan keyin, jigarimiz kimkimlarning eshigida darbadar yashamasin, deb nomuslari keladimi, chog'rok hovli olib berishadi. Hammasi yonlaridan, ko'plashib. Shodi aka shuncha xo'rlik ko'rib ham — bular, kimsan — Bo'riboevlar — Bo'riboev rais, Bo'riboev “moliya”, Bo'riboev “prokuror”, Shodi akaning otasi esa, oilasida etti jon, topgani o'ziga etmaydi, - “Hoy insonlar, Tuyg'unoylarningning asl sardaftari mundoq edi, ochmay yopnb turibman-ku”, demaydi, bunaqa deydigan odam ham emas, urish so'kishlarga boshini xam qilib, shundoq nomdor oilaning qizini yo'ldan urgan, ulug'larga kanaday yopishib olgan ustomon kuyov bo'lib yuraveradi. Qurilishda ishlaydi, topganini ro'zg'origa tashiydi, Tuyg'unoy o'sha zinodan bo'lgan bolasini tuqqandan keyin, birov so'ramasa ham: “Nozir degan olifta Tuyg'unning boshini aylantirishga uringan ekan, shovurini eshitiboq etib keldim-da, shartta yo'lini to'sdim. Ayrimlar har xil bemaza gaplarni tarqatib yuribdi emish, agar kimligini bilsam, naq onasini ko'ziga ko'rsataman”, deb hammaga aytib chiqadi. Tinchgina oila qurib yurgan odamga kim ham: “Bolang seniki emas-ku”, deb betlab gapiradi deysiz, o'zi bilmasa, boshqa gap edi...

Lekin, endi, ayol kishi birovga o'zining sharmisorligi ochmasin, ochsa ham, shu odamni hadeb ko'ravermasin ekan, Shodi aka esa uning sardaftaridagi shamolda shildirayotgan qora varaqday yonida yursa, bu haqda gapirma, yuziga solmasa, jilla qursa, xo'jako'rsinga ham ham aybdor xotinning ko'zini ko'kartirib, biqinini momataloq qilib turmasap, erkaklik hurmati ketar ekanmi, Tuyg'unoy Shodi akani yomon ko'rib qoladi, ajralay desa, u yoqda badnom kechmishi, bu yoqda ikki-uch yillik o'qish, o'rtada boshqadan to'ragan bo'lsa-da, kun-kundan kelajagini talab qilayotgan farzand, tepasida “o'zing pishirgan sho'rish-sho'rani o'zing ichasan”. Deb zug'umlab turgan ota, akalar, kimdan tig'eganini bilmagan urg'ochi yo'lbarsday, alamini Shodi akadan oladi.

Shu gaplarning hammasini Haqberdi aytib bergan. Ichimizda ming xil mishmishning tagidagi gapning asl mag'zini faqat shu chaqadi, qolganimiz kim ishontirib aytsa, shuning og'ziga termilishdan boshqasiga aqlimiz etmaydi...

Shodi aka uyida toriqib ketgan paytlari ko'ngil yozgani biznikiga keladi, hangomamizning ezilib, suvi chiqib, faqat po'chog'i qolganini sezib tursa ham, yana nimalargadir ilhaq bo'lib o'tiraveradi, menga og'ir tushadi... Haqberdi teshib yuborguday qarayveradi...

Shodi aka bundan to'rt yil burun o'libdi. Haqberdining shu paytgacha u bilan bordi-keldisi bor ekan, janozasiga etib boribdi, qarindoshlaridan bir-ikkitasi: “Bechoraga Tuyg'unoy kun ko'rsatmadi, kuydirib o'ldirdi”, degan gap qilibdi, mayli, o'tgan ishga salavot...

Beziyon, ko'nglida kiri yo'q odam edi rahmatli!

Bilmayman, nega shunday, bo'lmasa, uchinchi kurslardan boshlab, yotoqxonaga o'tganimdan keyin, Shodi aka, Haqberdi, Suvon, Hasanboylardan tamom yiroqlab ketdim, darslarda quruqqina salomlashib qo'yishimni hisobga olmaganida, ularning bor-yo'qligini payqamay ham qoldim. YAxshi o'qib, har xil

to'garak, klub, konferensiyalarda karillab yurganimdan, o'zimga o'xshagan "ilm ixlosmandlari", "bo'lajak" shoiru yozuvchilar bilan do'stlashib, ikki yil ijarada yashaganim, Shodi akaning valaqlashlarini og'zimni ochib eshitgan kezlarimni ular bilan birga eslashishga ham nomus qiladigan bo'ldim, hali ham ularning ijarasiga borib, bazmi-jamshidlariga qatnashishni kanda qilmagan Tangirga ham ajablanib yurdim, ammo hozir talabaligimni o'ylasam, xotiramga o'sha kerosin hidi sasib turgan katalak hujralar keladi, to'rt yil nuqul Shodi akaning uydirmalarini tinglab o'qiganday bo'laman, shuncha kursdosh, tanish-bilishning orasidan faqat Shodi aka, Haqberdi, Tangir, Suvon, Hasanboyning qiyofasi tuzukroq jonlanadi, keyingi yillarim qanaqadir ola-g'ovur auditoriyalar, polidagi linoleumi eyilib ko'chgan, laxtak-laxtak ko'lmakday yiltirayotgan uzun-uzun dolonlardan iborat tuyuladi, hatto o'zim bilan birga yurgan qizlarni ham tuzukroq eslolmayman, go'yo ular bilan faqat qorong'ida o'pishib, kunduzlari ularning yuzlarini sira ko'rmaganday...

Haqberdi Shodi akaning o'lganini aytganda, - umr o'tgan sayin, odamning ko'ngli bunaqa narsalardan qotib borar ekan, - uncha ta'sir qilmadi. "E-e, bechora, yaxshi odam edi, nimadan o'libdi?", deb so'radim. Haqberdi uning miyasidan rak bo'lmib o'lganini aytgandan so'ng, "E-e, sho'rlik, e-e, sho'rlik". Deb turib, tuyqusdan dahshatga tushdim: doim boshi og'rib yurishi, bobokalonining boshidan qilich eb o'lgani to'g'risidagi gaplarini elab, yuragim tubga tortib ketdi, xuddi kallamda tubsiz bir quduqning og'zi ochilib, shu quduqqa o'zim yiqilib borayotganday, vahima bosdi: "...og'riq", "uyg'onmagan, ajdodlarining qonida yurib-yurib, Shodi akaning boshida turgan og'riq... ko'nglim sezib turibdi, meni ham shu og'riq olib ketadi..." Avlodlar qoni... shu og'riq bilan badar ketib, Shodi akaning avlodi tomirida oqayajak qon tozalanimikan... og'riq endi kasallik bo'lib qaytalamaydimi?..

Shodi akaning umri men tasavvur qilolmaydigan, sodda aqlim etmaydigan qandaydir bir mangu harakatga –odam avlodining davom qilishiday ulug' bir daryoga – asrlardan buyon oqib kelayotgan nasl daryosining oqimini tozalash uchun qurbonlikka keltirilgan edi, nazarimda, Shodi aka bu daryoda uzoq oqqanday, hali-hanuz oqib borayotganday tuyuldi, oqimda bo'ynini cho'zib, bir vaqtlar uqtirmoqchi bo'lgan abadiy tilsimotni tushunmasdan, pisandga ilmay, tashlab kelganim uchun ta'nali boqib turganday, hali ham bo'lsa, o'sha sir sinoatni tinglab ko'rish uchun dimiq hujralarga qaytishimni ilhaq kutayotganday ko'rinib ketdi. Men bu oqimga tushib ko'rishim kerak edi, lekin hozir ham tushishga qo'rqayapman, qaytib chiqolmasligimdan, qaytib chiqsam ham butun turmushim, hayotim, oilam buzilib ketishidan qo'rqayapman, avval tushib ko'rishim, avval-boshdan boshqacha yashashim kerak edi, endi kech, anglamay o'tib ketdim, bilmay o'tib ketibman, endi bilolmayman, bilganim taqdirda ham bu tirikligim o'sha tilsimotning oldida sariq chaqaga ham arzimay qoladi, yo'qolib ketaman.

Aft-angorim o'zgarib ketdi shekilli. Haqberdi yupanch berdi:

"Qaynag'alari Leningradga oborib operasiya qildirishmoqchi ekan, yaxshi ko'rishardi, harholda, bola-chaqasiga armon bo'lib qolmasin, deyishgan-da, o'zi ko'nmabdi, qolgan besh-to'rt kunimni bolalarim oldida o'tkazay, diydorlariga

to'yay, debdi. Kuni qisqa ekan bechoraning, shu qisqa umrida ham munday kun ko'rib yashamadi-ya. Peshona ekan-da. Tomir qoldirdi-ku, - ikkita o'g'ilchasi bor, tog'alari odam qiladi", dedi, qizini qo'shmadi. Shodi aka shu qizaloqqa bo'lakcha mehr qo'ygan edi, o'zi-ku – tirik etim, norasida narsa, yana etim bo'ladimi, deb Tuyg'unoydan ajralmagan edi.

Indamadim, gapirolmadim: shuncha yil Shodi aka bilan oshnachilik qilib, hatto uning kasali ma'lum bo'lib, erta – indin uzilay deb turganda ko'rishga ham borib, hech narsa bilmagan – eshitmaganday, tong oqarguncha undan-bundan bamaylixotir gapxona qurgan, uni mutlaqo tushunmagan, yolg'iz rasmi, quruq surati, sirti-po'chog'i bilan gaplashib yurgan Haqberdiga bularni qanday ham aytayin?

So'rab qolish kerak edi!

O'zi bilarmidi?

Bari bir Shodi akani o'ylasam, ichimda qanaqadir yopishqoq bir achinish paydo bo'ladi, xarchand urinmay, sho'rlikni o'zimga yaqin ololmayman, rahmim keladi, ko'nglida kiri yo'q, beziyon, to'zimli, yaxshi odam edi, deyma-u, yaxshi ko'raman, deb baralla aytolmayman, nimadir xalal beradi...

Ancha yillar oldin, Isrofil bilan qurilish tashkilotining yotoqxonasida birga yashagan kezlarimda, unga Shodi aka to'g'risida gapirgan edim. U paytlari Shodi aka tirik, maktabda ilmiy bo'lim mudiri bo'lib ishlar edi. Isrofil gapimni nari-beri yurib, ichiga bir og'riq qamalib qolganday, bezovta eshitdi.

“Sen bu odamni mutlaqo tushunmabsan,-dedi u Shodi akani ilgari biladiganday. – Hayolingda o'zing bo'yab, chiroyli qilib olgan boshqa odamni-obrazni gapiryapsan. Aslida, Shodi akang hech qanaqa fidoyi ham emas, tahqirlanmagan ham. Tahqir nimaligini bilmagandan keyin, qanday tahqirlanadi. Ezilgan u emas, xotini! Tasavvur qil: har kuni, balki har soatda o'zining aybini yopgan olijanob erni ko'rib turish qanday azob! Shodi akang esa odamlarning rahmini keltirishdan ham oziq oladi, qaranglar, ko'ringlar, jo'ralar, men qanaqa g'arib odamman, deb bemalol yashayveradi. Juda g'alati xudbinlik...”

O'shanda Isrofil ko'zimga yo'lida uchragan hamma narsani bosib-surib o'tib ketayotgan bir temir vujudga o'xshab ko'rindi—Shodi akaning go'yandaligini, cho'pchaklarini aytmadim, qizg'andim.

Bir marta, Ofiyat Komronga yukli bo'lgan paytlar, unga o'zimning talabalik yillarimdan qizik-qiziq hangomalar aytib, kulishib o'tirib, kursimizda Shodi aka degan shunaqa-shunaqa akamiz o'qiganini ham so'zlab berdim, so'zlayotib o'zim ham ta'sirlandim, ammo gapim oxiriga etmay, Ofiyatning rangi bo'zlandi, Shodi akaning qanday uylanganiyu qanaqa bolajon ekanligini ta'riflayotgan chog'imda so'zimni shart kesdi: “E-e, bo'ldi-e!—dedi, qo'rquv bilan nafrat qorishgan, allaqanday xavotirli tusda.— Odamni bo'g'ib yubordingiz. Boshqa gap qurib ketdimi?! Kampirlarga o'xshab, eski-tuski sandig'ingizni titkilayverib...”

Namozshom edi, derazalar duv qorayib, uyimiz sim-siyoh; zulmatga cho'nganday bo'ldi, og'zimdagi — og'zimda, bo'g'zimdagi — bo'g'zimda, angrayib qoldim; yo'q, Ofiyatning o'zini tanimagan-bilmagan, otini ham endi eshitgan, bundan keyin ko'rish-ko'rmasligi ham gumon begona odamni yomon ko'rganidan emas, o'zgacha, bir yangi tuyg'udan—Ofiyat aniq bir narsani o'ylab, meni, o'zini, kutayotgan dunyosini, endigina ilashib, alanga olayotgan oila o'chog'imizni shu tobda kimqaysi tupkaning tagida yurgan Shodi akadan, to'g'rirori, uning bebaxtligidan jon-jaxdi bilan qo'riyotgan, shu tinchgina yashashimiz, shu chunkillashib o'tirishimizni deb, har qanaqa Shodi-podi deganlarni toptab tashlashga, bunaqalarni xotiramdan ham o'chirib chiqishga tayyor edi.

Shunday tuyuldiki, hatto Ofiyat bilan Shodi aka o'rtasida ikkalasiga taalluqli, menga aytilmaydigan bir sinoat borday, Ofiyat shu sirning ochilib, turmushimizga rahna solishidan ko'rqayotganga o'xshadi; lop etib Shodi akaning mudom oq shim kiyib yurishi yodimga tushdi, Ofiyatning Kal kuttada jala kuyib, ko'chalar iflosga to'lib oqqani, uni yonidagi bir kishi ok shimini tizzasigacha shimarib o'tkazib qo'ygani to'g'risida yig'lab aytganini esladim, sog' kallaga sig'masa ham, Shodi aka bilan Kal kuttaning o'sha yomg'irli kuni, Ofiyatning yig'isi orasida bog'lanish sezdim: balki... tabiat Shodi akaga o'xshagan yana bittani yaratib, Ofiyatga uchrashtirgandir, u ham Shodi aka singari bebaxt chiqib,

Ofiyatni umuman insonning bebaxtligidan zada qilib, qismati sho'r odamlar bilan faqat uchrashib gaplashishdangina emas, otini eshitishdan ham bezdirib qo'ygandir, balki Ofiyat axtarganini — o'z qadri-g'ururini biladigan, hayotdan hakini yulib oladigan chovut changalli odamni mendan topib, endi baxtli yashayman deb turganda, bir bebaxtning sho'rish savdolarini iliq mehr bilan so'zlashimdan mening fe'limda ham shunday mo'rtlik, bepandlik sezib, er-xotinlik taqdirimizdan, yana yig'lab, ko'zyoshlari hayf ketishidan xavotirga tushayotgandir — bu shubha-gumonlar shu qadar tubsiz, shunchalar mubham ediki, nafaqat xotininga aytib, so'rab ko'rishga, balki shu beradigan savollarimni bir ma'niga tizishga ham ojiz edim; derazadan namozshomning qora ro'yolariga qaragancha, hammasini ichimga yutib, indamay o'tiraverdim...

“Shubha-gumon qirqoyoqqa o'xshaydi, ming tikil, qaysi oyog'ini bosganini ko'rolmaysan—hammasi birdan qimirlaydi”— kim aytgan edi shu gapni?

Eslolmayman, kimdir aniq birov o'zimga aytgan edi, eslolmayapman.

Qirqoyoq doim boshimda jimirlab yurganday, qulog'imga kirib ketishidan qo'rqaman, cho'chiyman.

Xayolimning qay bir to'lqinlarida qalqib yurgan Tangir bir kuni lop etib paydo bo'ladi.

Shu uyimizga yangi ko'chib, hali tuzukroq ham joylashib ulgurmaganmiz, oldingi bir xonalik uyimizda narsa qo'yishga joy yo'q edi, endi to'rtta xonani qanday to'ldirishga bosh qotib, ozgina qo'r-qutga nimalar olishni cho'tlab, deraza oldida chekib o'tirgan edim, pastda bir moshrang “Uazik” g'iyq etib to'xtadi, hali

uning ichidagilarni ko'rmasdanoq, meni yo'qlab kelishdi-yov, degan xayolga bordim, go'yo bugun kunbo'yi, faqat bugun emas, ko'p kunlar, oylardan buyon deraza oldida shularning yo'liga termilib o'tirganday bo'ldim, behuda o'ylamagan ekanman, avval shopir yigit tushdi, birinchi qavatga kirib chiqdi-da, kabinaning ochiq eshigidan menga faqat tirsagi bilan tizzalari ko'rinayotgan odamga, shu uy, deganday bosh irg'adi, unisi—barvasta, yuzlari tovoqday to'la, bo'lali bir odam ham tushdi, tap-tup er tepinib, oyog'ini mashina zinasiga qo'yib, pochalarini qoqdi, keyin o'girilib qaddini rosladi-da, tepaga, to'g'ri menga qaradi, nimasidir juda yaqin, juda-juda tanish – e,e, “Irg'ay”ku – Tangir! Qani, meni ham tanirmikan, deb indamay turaverdim. Tanimadi, salom o'rniga do'g'ayib: “O'-o', jo'ra, domla Ashrapovning uylari qaysi? Otlari Mahdi”, deb siyosat qildi. E, e, padari qusur, otimni shuncha hurmatlaganingdan keyin, o'zimga buncha do'qlamada, dedim ichimda, o'sha “otlari Mahdi” – o'zim-ku! Tangir indamaganimga bir soniya ajablanib turdi-da, birdaniga yosh boladay qiyqirib yubordi: “Ho'-ho'y! O'zingmi, sart!..”

Institutni bitirganimdan buyon Tangirni tez-tez eslab, bir shataymas jo'ram bo'lardi, deb yurardim, ammo o'zini ko'rsam, bunchalar quvonaman, deb tasavvur ham qilmagan edim, quchoqlashayotgandan ko'zimdan iliq bir narsa toshganini bilmay qolibman, Tangir ham ta'sirlanib, xuddi necha yilga dom-daraksiz yo'qolib, birdan topilgan akamday, mana, keldim, keldim-ku, degandan nuqul elkaga qoqadi, ko'zlari yiltillaydi, qiz boladay iljayadi...

Tangir “Ha, jo'ra-e, shu erda yashayman, de”, deb xonalarga bir-bir bosh suqib ajablandi: “Pulni sandiqqa bosasanmi deyman, yo hecham olmaysanmi? O'zimga aytsang-ku, har yili to'rt-beshini yuborib turardim...” Botirning hali qirqi ham chiqmagan edi, Tangir irimchi Ofiyatning men bilan ma'noli-ma'noli ko'z urishtirishiga parvo qilmay, chaqaloqni olib chiqartirdi-da, yuzini ochib ko'rdi, go'yo kishi bilmas, yo'rgagiga bitta yuz so'mlikni qistirdi. “Bo'yinsa, qo'rqmang... Otingiz nima? Opyat, Opyatoy. Xotinni ham oti o'zingga mosidan topgan ekansan, Mahdi, to'g'ri aytish uchun biz qishloqilar yana to'rt yil o'qishimiz kerak. Qo'rqmang, Opyatoy, ko'zim yo'q, oltitasi bor, xotin hozir ettinchisini qorniga qamab, ana chiqaray-mana chiqaray deb turibdi. Qiztaloqning zoti quyonmi, to'nimning etagi tegib ketsayam, bo'yida ushlab qoladi...” deb Ofiyatni duv qizartirdi.

Shopir yigit oti Isamat ekan, bu orada xalta-xalta bozorliqlarni tashib kirdi.

Tangir ko'p o'tirmadi, bir-ikkita “juda nozik odamlarga haq berishini”, mening u erga “to'g'ri kelmasligimni” aytib, qo'zg'aldi. Ketayotib sirli iljaydi-da: “Ertaga uyda bo'lgin. Bitta-yarimta odamlarim bilan kelishim mumkin, tag'in uyalib yurmay”, deb tayinladi, tushuntirib aytmadi.

Ertasi kuni, Tangir ko'plashib kelar ekan, deb kechagi o'zi keltirgan bozorligidan mo'l-ko'l solib, sho'rva ostirib o'tirgan edim, eshik gursilladi, nazarimda, tepishayotganday bo'ldi, bu qanaqa qo'pol tashrif ekan, deb borib ochsam, ikki girdig'um yigit katta televizor qutisini ikki tomondan achomlab: “Domla Ashrapufning uylarimi?”, deb turishibdi, go'yo men o'sha “Ashrapuf”ning

eshigida yuradigan dastyoriday. “Qo’l tolib ketdi, aka, - dedi birovi. – Yo’ldan qoching. Hali shuncha narsani chiqarish kerak”. Ularning ortidan suvqog’ozga o’ralgan katta gilamni elkalagan Isamat ko’rindi. “Domla, shularni siznikiga joylashtirar ekanmiz. Tangir Qurbonovichning o’zlari kechqurun kelib tushuntirar ekanlar”, deb shum jilmaydi. “Ashrapuf” o’zim ekanligini sezgan yigitlar bir ko’rimsiz menga, bir ko’rimsiz uyimga ajablanib alanglashdi...

Ikki soat o’tar-o’tmas, katta xonamizni bir boyvachchanning yasog’li mehmonxonasiga aylantirishdi, devorni uzunasiga qirmizi-qoramtir yiltillayotgan “stenka” egalladi, parketga uchu to’rt, qizg’ish gulli qahvarang gilam to’shaldi, “stenka”ga ro’baro’, o’tirgan odamning ketini og’ushlab, turgani qo’ymaydigan divan-kreslolar qo’r to’kdi, rangin televizor dunyo boyliklarini jilvalantira boshladi – hammasi tushunarli edi, Isamatning buni qaerga qo’ysak, shunday joylashtirsak, sizga qanday, deb menga sinovchan qarashlari, allanechuk havasmand-havasli o’ynab ko’zlaridan Tangirning bu yigitni yaxshigina pishiqlab yuborgani shundoq ko’rinib turar, ammo ishongim kelmas, shuncha narsani Tangir nima uchun, nima maqsadda menga marhamat qilganiga aqlim etmay, bunday emasligiga boshqacha izoh topolmay, xunobim oshar, Isamatni qistovga olib aniqlashga esa yuragim dov bermas edi.

Bunaqa narsalarni boshqalarnikida ko’rib, o’zinikida ham shunaqa narsalar bo’lishini hali faqat orzugina qilgan Ofiyatning pitirlashiga mumkin kadar ishontirib: “Ha, Tangir o’ziga olgan ekan, moshin topilmabdi, vaqtincha turadi. Xonani bekor band qilmasin, foydalanib turaverishsin, depti” degan javob berdim...

Kechqurun Isamatning o’zi keldi. “Tangir Kurbonovichning zaril ishlari chiqib qoldi, o’zingiz yurarmishsiz. Iltimos qildilar”, dedi.

Bordim. Tangir xonasida yolg’iz dasturxon tuzatib o’tirgan ekan, meni gunohkorona kulib qarshi oldi, ikki piyolani to’ldirib kon yak quydi.

“Aytib o’tirma. Isamatdan so’radim, ziyrak bola, yuzingdan ham bilinib turibdi. Mana, bo’ynimni egib turibman. Shuni oldindan sezib o’zim olib bormagan edim. Ashqol-dashqolingni ko’tar, deb qolsang, sharmandam chiqmasin deb. Endi, jo’ra, gap bunday, hech qanaqa iltimosim yo’q. Katta o’g’lim endi to’qqizinchida o’qiyapti, sening filfagingga kiritmayman, odam qilmoqchiman. Ukalarni o’qitganman. Uyingga yuborgan narsalarim shunchaki... Uy ko’rish-ga... hadya... Qanday tushuntirsam... shu, jo’ra, bir vaqtlar institutda o’qib yurganimda, agar kunim tug’ib, baxt qarab, oshig’im chikka tursa, boyib ketsam, boyligimdan ko’p emas, qirqdan birini Mahdiga beraman, deb ko’nglimga tukkan edim. Menga sen u vaqtlar pir qatori eding. Agar o’zgarmasa, buzilmasa, deb shart ham qo’yan edim. Kecha ko’rdim — haliyam o’sha-o’sha, “sart” Mahdiligingcha turibsan. Shu boshqacha hech gap yo’q. Qo’lingga tutqazsam, olmas eding. Narsa qildim...”

“Bilaman bunaqa gaplarni: ko’pchilikning haqini iflos yo’llar bilan... Ko’pchilikning haqi bo’lsa, shuni ko’pchilikka berish yo’lini top-chi!”

“Qanday tarqatasan? Qaysi vedomost bilan? Cho’ponlar bilan munday maxinasiya qilgan edik, zagotkontorada munday kelishgan edik, mana, yuz ming foyda topdim, shuni teppa-teng bo’lib olaylik, deymanmi?..”

“Qirqdan biri ham emas. Faraz qil, menda yuz so’m bor, sen esa muhtojsan, men senga bir so’m emas qirq tiyinmi, ellik tiyinmi berdim, shu bilan davlatim kamayarmidi? Tangalab emas, so’m lab, katta-katta so’m lab topaman-ku. Endi solishtir: o’qib yurgan paytlarimiz, Gulchehra bilan kinoga borishga pulim bo’lmasa, uch so’m ber, desam, berarmiding— berarding, o’zingga tanga qolsa, bas edi. Qaytarasan, demasding. Men ham shunday qilardim, Bunaqa uch so’m lardan qanchasi mendan senga, sendan menga o’tgan. Hozir endi yuz so’mimdan atigi qirq-ellik tiyin chaqasini bersam, oriyating qo’zg’aydi. Senga kerak-ku. Mayli, biz boshqa-boshqa odam bo’lib chiqdik, sen — yaxshi, men yomon chiqdim, lekin o’sha paytlari qilgan jo’rachiligim qoldi-ku!..”

“Men bu pullarni harom xisoblamayman, topshir, deyishsin, topshirmayman. Chunki har kuni, har soat-da o’zimning yigit umrimni, olti bolamning taqdirini jodi tagiga qo’yib topyapman. Senga esa, Mahdi, qilgan sovg’am happa-halol, jo’ra — toza ko’ngil bilan beryapman, o’zing ham toza odamsan...”

“E-e, oshna, g’alati odamsan, xirmonning ustida ag’anab yotibman, seni ko’rib, ko’nglim iyib ketdi-da, bir changalini hotamtoylik qildim. Nima bo’pti shunga?”

O’ylab o’yimning tubiga etolmayman: “stenka”— uch ming, gilam — bir mingu yuz, televizor — etti yuzu ellik olti, jami — “yuz so’mdan qirq-ellik tiyin...” Tangirga termilaman, shuncha puli bor odamga o’xshamaydi, ezilaman, nahotki diydori bilan ko’zimni yoshlatgan jon jo’ram “qirq-ellik tiyini” bilan meni toptayotganini, saxovati bilan xo’rlayotganini bilmayotgan bo’lsa, yo davlati oshgani sayin odamning fahm-farosati tumtoqlashib boraveradimi?

Ehsoni bilan meni o’ldirayotganini bu millionchi boyning o’ziga qanday tushuntirsam?

Tangirboy, shuncha yil o’zimni toza saqlab keldim, endi sen, he yo’q, be yo’q, nogahonda imonimni toptab ketaverasanmi?

Tangirboy, shuncha yildan beri mening ham bo’ynimga o’n minglab pullar jalab xotindek osildi, tegmadim, bo’ynimni bo’shatolmay, yonimdagilar bemalol olib, meni ham olsang-chi, kosangni oqartirsangchi, deb qistashganda ham bo’g’ilishga chidash berib kelaverdim, endi sen bitta hotamtoylik bilan bardoshimni yanchib ketaverasanmi?

Tangirboy, shuncha yildan buyon xotim, bolalarimning ko’z o’ngida har qalay izzat-hurmatim bor edi, endi sen bu himmating bilan ularga mendan kengroq, istaganini bir dasta pul bilan bemalol muhayyo qiladigan dasti uzun odamlar ham bo’lishini ko’rsatib, meni bir tiyin qilib, yana bir kambag’alga qayishdim, deb shod ketaverasanmi?

Insonga eng og'iri — birovning boyligi oldida bo'ynini qisib yashash ekanligini nahotki shuncha pul topgan miyali boshing bilan o'ylamasang, Tangirboy?.,

Boshim chatnab ketadiganday, o'yxonamga gurros-gurros bostirib kirayotgan bu gaplarning Tangirga zaifona o'jizlik bo'lib tuyulishini, qorni to'q saxiy qorni och yo'qsulning tekin ne'matdan bosh tortishini hech qachon tushunmasligini bilib, ochiq aytolmayman, erga urilayotgan odamligimni faqat: “Kerak emas edi. Tangir, bekor ovora bo'libsan”, deb g'o'ldirash bilan himoya qilaman, battar xo'rланaman. Tangir tushunmaydi, battar mamnun bo'ladi. “Qo'ysangchi, shunaqa gaplarni. Hay turibdi-da uyingda, o'zing ham bir kun olarding-da. Odamning qadri narsa bilan o'lchanmaydi-ku. Arzimagan taxta-tuxta deb ikki jo'ra arazlashmaylik”, deb jilmayadi...

Odamning xotirasi karvonsaroyga o'xshaydi: ko'p odam yashaydi, kim unga bir qo'nib, shu bilan hamishalik muqim makon qurgan, kimlar esa bir to'xtab o'tganicha, qaytib qorasini ko'rsatmagan — odamning o'ziga bog'liq emas.

Suvon, Hasanboy singari gala-gala kursdoshlarimni g'ira-shira eslayman, tumonatning ichida, hammasi bir-biriga o'xshab, unisining qiyofasi bunisiga aymashib, aralash-quralash, vag'ir-vug'ur qilib qayoqlargadir oqib o'tib ketishganday tuyuladi, juda ko'plari yodimga tushmaydi, olomonning ichida shakl-shamoyilsiz bir qoralar turtinib-surtinib borishayotganday ko'rinadi...

O'n yildan buyon talabalarga dars beraman, ko'z o'ngimda to'da-to'da almashib turishadi, o'n yildan beri g'ala-g'ovur qilib oqayotgan daryoning o'rtasida qoqilgan qoziqday turib, ochilib-yumilayotgan og'zimga bir nafasga to'xtab qarab, yana gurros-gurros, ikki yonimdan aylanib o'tib, yo'lida borayotgan yoshlar oqimiga termilib qolaveraman...

Shodi akani ko'p o'ylayman, gaplarini eslayman, ammo o'zi qanday ko'rinishi esimdan chiqib ketgan, yodimga tushgani — g'o'ra eyayotganday bujmaygan yuzi, ushoq gavdasi, doim tekis dazmollangan, tekisligi uchun egasini nimagadir haqir ko'rsatadigan oq shimi xolos, shular ham Isrofilning boshlaboq yoqtirmay tashlab yuborgan qoralama — eskizlariga o'xshaydi; Hasanboy hozir ham ko'z o'ngimda faqat iljayib yurganday, faqat iljayishi, yuzi esimda yo'q, Suvon hali ham burnini karrakday kerib, angrayib turganday, Tangirdan xotiramda faqat daroz bo'yi, zavqdan qisilgan ko'zlariyu mo'g'ultaxlit beti qolgan.

Xotiram karvonsaroydan ko'ra, bir vaqtlar yaqinlarim boshpana topib, vaqtincha yashagan, keyin hammasi yurt-yurtiga ko'chib, ko'chayotganda irim qilib ul-bul keraksiz narsalarini tashlab ketishgan g'arib musofirxonaga o'xshab ketadi, ba'zan uni yana o'sha odamlar bilan obod, gavjum qilishga urinaman, lekin ilgari ko'rganlarim endi ko'z oldimda boshqacha rostlanadi...

Tangir bilan o'qish tugagandan so'ng qaysi yo'lni tanlash to'g'risida ko'p tortishar edik. Men-ku, endi bilsam, aql-hushimni tanigandan buyon, xuddi sopqondan otilgan toshday, shu turish-turmushimga otilib kelayotgan ekanman. Tangirni ham til kafedrasiga olib qolishmoqchi edi, u esa shaharda yashashni

salkam odamzotning baxtsizligi xisoblardi. “Sening yo’ling boshqa, ichingda hamma narsaga chidaydigan, qiyinchilik deganni pisand qilmaydigan bir narsa bor, qishlog’ingga borsang ham, sig’masang kerak. Men esa oylikdan oylikkacha mustar yashay olmayman, oshqozon kasal bo’lib qolaman. Otamning yoniga qaytaman. Ikki stavka dars olib... Avval otamning o’qishga kirishimga bergan uch mingini ishlashim shart. Akam yaqinda uylandi. Otamning boshida borganimdan keyin meni uylash ham turibdi. Yana bir ukam kelasi yili o’ninchini bitiradi, o’qishga kiraman, deydi. Unga ham... Bitta otam shularnng hammasiga qaydan etkizadi!..”

Tangirning qamalganini eshitgunga qadar, u bilap bahslashib yurdim.

“Bir kuni derazadan qarab o’tirgan edim, pastda bir moshrang “Uazik” to’xtab...

avval shopiri tushib...

bo’lali, yuzlari oytovoqday to’la Tangir...

to’g’ri menga qarab...

“Domla Ashrapovning uylari...”

“Ho’-ho’y, sart Mahdi...”

xonalarga bir-bir bosh suqib...

“Sira olmaysanmi?..”

bitta yuz so’mlik...

“to’nimning shamoliga ham...”

eshikni gursillatib tepishadi...

to’rt-besh minglik ashyolar...

kechqurun, boyligiga, menga qilgan yaxshiligiga mast Tangir...

boyligu odamgarchilik, pul, to’g’rilik, olishu olmaslik to’g’risida echimi yo’q bahslar...”

Yana:

“...bir kuni derazadan qarab o’tirsam...”

Yana...

Yana...

Xuddi hammasi rost, bo’layotganday...

Bahsimizning yakunida hamisha men Yo’lchiga o’xshab o’lsam ham, ma’naviy galaba qozonaman — Tangir hijolatga tushadi, gunohkorona-mamnun — yaxshilikka jazo yo’qligini bilib iljayadi...

Men pulining sassig’iga chidolmayotgan Tangir bilan emas, uning ichidagi o’sha, “xo’b toza odamsan-da”, deb menga ixlos qo’ygan, nima desam, ishongan, oqko’ngil — tanti Tangir bilan bahslashayotgan bo’laman, negadir eng oxirida

uning hadyasini endi nima qilishga aqlim etmay qolaveradi, goh magazinga topshirib, pulini egasiga qaytaraman, goh qarz, hozir Tangir arzimagan pulga muhtoj emas, keyin uzaman, deb ko'nglimni tinchitaman...

Men toza qoldimmi?

Keyin bilsam, sovxoz direktorlarining tagida bitta moshin bo'lmas, moshrang "Uazik"larini dalaga, oppoq "Volga"larini shaharlarga minishar ekan...

Keyin bilsam, yangi zamonning boylari aysh-ishratga chamadon-chamadon pullarni sochishar ekan-u, hatto do'stu yoronlariga ham bir so'mni behisob berishmas ekan...

Keyin bilsam, Tangir direktorligining boshlarida sovxozni ko'tarib, obodonchilikka zo'r bergan, ammo mash'al bo'lishga ko'nmay, boshqa kolxoz-sovxozlar shitob bilan ilgarilayotgan yo'ldan yurmay, o'zini chetga olgan, faqat etishtirganini topshirib, keyingi ikki yil hatto planni ham bajarolmay, rahbarlarga yomon ko'rinib qolgan, to'g'ri amalidan tushirilishga odamlar o'rtasidagi obro'si monelik qilib, ustidan material to'planayotgan ekan...

Keyin bilsam, zora ko'pchilikka edirsam, odamlarning haqiga xiyonat qilmasam, egam menga ham zuriyod berar deb, ro'zg'origa harom aralashmay, topgan bud-shudini o'n olti yil ichida uch marta almashtirgan xotinlarini shaharma shahar, tabibma-tabib olib yurib qaratishga ketkizar ekan...

Keyin bilsam, Tangir o'z yog'iga o'zi qovrilib ikki jahonga sig'may yurgan kezlari, qo'yib yuborgan birinchi xotini nihoyat erga tegib, Hasan-Husan tuqqan, shu bilan uning nuqsini oydinlashtirgan, Tangir viloyat markazidagi majlisda ham o'tirolmay, uyiga qaytsa, uni saharga qadar kutgan bu xotini moshrang "Uazik"ning shopiri bilan Layli-Majnun bo'lib yotgan ekan; Tangir yomon baquvvat edi, "Muning badanida yomon bir qora kuch bor", der edi Shodi aka, shoshganidan joypo'shga chalkashib yiqilgan shopirni ikki musht bilan shakar tomiriga urgan ekan, o'ldirib qo'yibdi, xotini derazadan tashlab qochibdi...

Shofyorning ismi Isamat emas, onasi shoshilib tuqqanmi yo o'zi dunyoga kelishga oshiqqanmi, odamning tushiga ham kirmaydigan ot — Qistovboy bo'lib, bir tomoni Tangirga xesh - amakisining qaynisi ekan...

Tangir birinchi xotini bilan etti yil turib, befarzandligi uchun qo'yib yuborgandan keyin, Chorjo'yning qaeridadir dars berib yurgan, hali ham turmushga chiqolmagan Gulchehrani axtarib boribdi, Gulchehra uni xush kutib olibdi-yu, ammo singan kosani yamab bo'lmaydi, deb qaytaribdi...

Bu gaplarning asli qanday bo'lganini Tangirlarning qishlog'idan qirq chaqirim naridagi maktabda ishlagan Haqberdi topib keldi.

Institut hovlisidagi qayrag'ochning tagida uchrashib qolgan kunimiz, salom-alik, so'rashishdan keyinroq Haqberdining birinchi aytgan gapi shu – Tangirning sho'rish-savdosini hikoya qilish bo'ldi, fakul tetga ishga o'tayotgani, ministrlikdagi bir hamyurti qo'llab yuborayotgani haqidagi ming tumanli shamalarni keyin bildirdi...

Shuncha yildan buyon ikkinchi qavatdagi uyimning derazasi oldida, pastda – o’zini tanitishga – men xayol qilganday buzilib ketmaganini aytishga kelib, qarashimni kutib mung’ayib turgan Tangirga orqamni o’girgancha, borlig’imni ikki odamga – gunohsiz va gunohkor Madhiga, saxovatli va ta’magir Mahdilarga bo’laklab, ularni bir-biri bilan urishtirib o’tirgan ekanman.

Moshrang “Uazik”ning shopiri Tangirning uchinchi xotini bilan zino qilishini sezib yurganday edim, yo’q esa, nega uni oti Isamatmi, Qistovboymi, bari bir, doim Tangir bilan birga, shum iljayib yurgan holda o’ylar edim?

Go’yo men Tangirning olti bolasi bor, xotini ettinchisiga yukli deb o’ylaganim uchun ham u befarzand yurganday?..

Mabodo, taqdir meni Tangirning o’rniga qo’yganda, u qilmagan ayni shu gunohlarni o’zim qiladiganday edim, yo’qsa, nega uni har gal ko’z oldinga keltirganda, menga qiladigan sovg’asini ham ko’rar va bu sovg’ani qaytarish chorasini topolmay qolar edim? Ko’nglimning tub-tubida odamning qadri pul bilan o’lchanmasligi haqida o’qigan qop-qop ma’ruzalarim – Tangirning ko’zini ochish evaziga to’rt-besh ming so’mlik molni tama qildim shekilli...

Nega, shuncha yildan buyon ichimda tinmay buzuqboshlik qilayotgan devga qarshi kurashaverib tinkam quriyotganday...

Nega shuncha yildan buyon derazam tagida moshrang “Uazik” to’xtamadi?

Haqberdining aytishicha, aslida ham shunday bo’lishi kerak edi – Tangir har yili uch-to’rt marta ish yuzasidan poytaxtga kelib ketar ekan.

Tangir o’zi to’g’risida mening bu qadar yomon xayollarga borishimni bilarmidi?

U men haqimda - oiladan tinchigan, turmushda baxt qarab, oshig’i chikka turgan, monografiyalari bosilib, doim ishi o’ngidan kelib yurgan, shunga qaraganda, yaqinda doktorligini ham yoqlaydigan, hozircha dosent Mahdi Ashrapov to’g’risida qanday o’ylar ekan?.. “E-e, bilaman, bularga qanday erishayotganini...” demasmikan?

Yana: jazosini o’zi tortishga mardligi etarmikan?

Yana: odamlar o’rtasida bosh ko’tarolmaslikday og’ir jazosini xotiniga qoldirib ketmadimi?

“Bilmadim, kimga qanday, lekin Mahdi menga hamisha o’rnak, - dedi Haqberdi, tug’ilgan kunimda qadah so’zi aytib. –Mahdi bilan birga o’qimaganimda, bilmadim hozir qaerda yurardim. O’qishda ham, turmushda ham Mahdidan orqada qolmaslikka tirishdim, endi etdim deganda, u yana ilgarilab ketaveradi, ammo mana, uni quvlab kam bo’lmadim: qishloqda yursam ham yoqlab oldim...”

Ko’pchilik o’tirgan edik: Isrofil, kafedradagilar – hammasi kandidat, bu boshog’riqdan allaqachonlar qutulib, endi bamaylixotir katta boshog’riqqa tayyorlanayotgan odamlar to’planib qolibdi, dissertasiya yoqlaganini baxtining

salkam yakuni hisoblayotgan Haqberdining gaplariga hali hayotning achchiq-chuchugidan bexabar bolaning shodligiga qaraganday, bepisand jilmayishdi, Isrofil indamay stolni chertib o'tirdi...

Menga esa Haqberdining bu gaplari zamirida o'ksinish bilan alam yotganday tuyuldi.

Aslida ham shunday edi.

Noqulay ahvolga tushdim: nahotki Haqberdi bor umrini menga etib olish uchun sarflab, mendan ham balandroq odamlar borligini, dunyoning ustivorligini, kengligini, bu kenglikda Mahdi Ashrapov degan odamning hayoti tor bir tuynuk ekanligini bilmay o'tib ketaversa...

Agar, deylik, charxning kaj raftori bilan Haqberdi mening o'rnimga tushsa – o'zi orzulaganday, menga etishib olsa, nimalar qilgan bo'lur edi, - bilmayman, shunday o'ylasam, men – ishbilarmon iste'fo berib, joyimga bir ishga nouddanoshud, lekin tinmay gap kavlab yuradigan odamni tayinlashayotganday qizg'anchda qolaman...

Institutni bitirgandan keyin, voqealar ravishi o'zgarib, o'zimning Haqberdining o'rniga qishloqqa ketib, o'sha yoqda dissertasiya yoqlab, keyin institutga kelishimni va mening hozirgi o'rnimda bo'ladigan Haqberdiga havas qilib yashashni sira-sira istamas edim...

Haqberdining havasida men doim xatar ko'raman...

Birinchi yili Haqberdi yomondan nari, yaxshidan beriroq dars berib yurdi, har qalay, talabalarga o'rta maktab o'quvchilariga dars o'tayotganday. "Xo'sh, Yo'lchi qanday obraz bo'lgan ekan? Qani, bu she'rni o'qigandan keyin qanday kayfiyat oldik, kim aytadi?" qabilidagi gaplarni gapirishdan bir qadar qutuldi, o'zi aytganday, metodikasini ancha takomillashtirdi, lekin: "Xo'sh, shunday qilib, inqilob g'alaba qozondi, jamiyatda yangit odamlar etishdi, bu esa o'z navbatida adabiyotda yangi qahramonlarni barpo etdi, demak: yangi hayot - yangi odamlar – yangi qahramonlar, bularning hosilasi – yangi adabiyot", deb m a'lum tushunchalardan munchoq tizishdan nariga o'tmadi. Talabalar unga shunaqa gaplari uchun, bir tomoni yaqinda kelganini nazarda tutib, "yangi qahramon" deb laqab taqishibdi.

Bu yiliga esa Haqberdi chindan ham, g'alatiroq bo'lsa-da, qahramonga aylandi.

Haqberdi odamning gapini "ha, him", deb ma'qullaganday eshitadi-yu, ammo ko'zlari doim bir tusda chaqnab turaveradi, yaxshi gapga kulganida ham, yomon gapdan ma'yus tortganida ham, ko'zlaridagi istehzo o'zgarmaydi — xuddi qoshining tagidagi ikkita teshikdan boshqa bir odamning ko'zlari poylayotganday...

Chindan ham, Haqberdining sirtini ichidagi boshqa birov kiyib yurganday, unga xuddi ikki kishiga: biri—meni qadrlaydigan, menga ishonib-suyanadigan, ikkinchisi — har so'zimga g'ayirlik qilayotgan, ishonmayotgan, — bir tanada

yashayotgan qo'shaloq odamlarga gapirganday, orqa-oldimga qarab, yig'ishtirilib so'zlayman, nazarimda, — negadir bunga ishonaman ham,—o'sha, tili achchiq, tiyrak talaba Haqberdi turmushning og'irligidan, fe'lining yomonligidan takror-takror zarba eb, endi, mana, bosilib quyulgan, ehtiyotkor bo'lib qolgan bugungi Haqberdining ichiga biqinib olganday tuyuladi.

Bilmayman, nega shunday, Haqberdi bilan yolg'iz qolsam, har gal unga va'da qilgan juda zarur narsamni, esimdan chiqqanidan emas, berishga qizg'anganimdan, atay uyda qoldirib kelib, endi o'tirik bahonalar bilan o'zimni oqlab o'tirganday o'ng'aysizlanaman...

Odam hamisha kimdandir qarzdor, kimlarningdir oldida burchli, juda ko'p odamlardan yaxshi narsalar olganman, juda kamini qaytarganman, Haqberdidan ham olgan bo'lsam kerak, ammo qaytarishga uning o'zi arzimaydi, bari bir qaytarganimning qadrini bilmaydi, unga nima kerak, deb hisoblayman—xuddi ko'r kampirning tillalarini o'zimmiki qilib olganday...

Agar, aytgani rost bo'lib, u menga ergashgan, mendan ko'p narsa olgan bo'lsa ham, shularning orasidagi eng asosiy narsani faqat o'zimda olib qolganman...

Nima shu?..

Bir kuni dushanbada Karim aka Etmishboev dag'dag'a qilib kelib qoldi: "Singarmonizmning respublikadagi otasi men bo'lsam, men dissertasiya yoqlaganda sanlar onangning qornida eding!", deb Tolibovaga baqirib ketdi, aybi nimadaligini uncha tushunmagan Yulduzxon ko'zyoshini qalqon qilib oldi.

Bungacha sal-pal gap o'rmalab, talabalarning domlalariga qanaqadir "musbat-manfiy"lar qo'yib, kimlarnidir almashtirishni taklif qilishgani to'g'risida shovur kelib, asli o'zi nima dahmaza ekanini bilmay, ajabsinib yurgan edik.

Karim akaning jiyani o'zimizda o'qir edi, kechqurun yig'lamsirab boribdi: amak, eng ko'p "manfiy" olganingiz uchun sizni haydab, o'rningizni Tolibovaga olib berishar emish — bachalarning og'zida shu gap, ketib qolsangiz men qanday bitiraman?..

"Singarmonizmning otasi" shusiz ham darslari oshib-toshib yotgan Yulduzxon uning ham darsini olsa, qanday eplashini o'ylab ham o'tirmay, kechasi bilan to'lg'anib chiqqancha, ertalabiga shovqin solib kelaveribdi.

Yulduzxon: "Nahotki men... Nahotki sizday kishiga..." deb o'pkasi to'lib gapirolmay turganda, bo'ron qo'pganday Suhrob kirdi-da, bir dunyo mish-mishni to'kib tashladi: kecha bozorga tushib, bitta shumgina talabamizni uchratibdi-da, gapga solibdi; emishki, ministrlikka fakul tetning chirib borayotgani to'g'risida ko'p signallar tushib, ministrluk bu "bardak"ni tozalashga zimdan kirishibdi, Abdiqulov, ya'ni biz bechoragina deb yurgan shu Haqberdimiz aslida shaxsan ministrning maxfiy topshirig'i bilan oramizga tashlangan, ichidan pishib ketgan ustomon odam ekan, shu vaqtgacha har bir domlani miridan-sirigacha o'rganib, etarli material to'plabdi, anketa so'rovi tashkil etishi ham shunday material, to'g'rirog'i, materiallariga ob'ektiv dalil bo'lib, hozir ministrlukda komp yuterlarga

solinib, ko'rsatkichlari hisoblanayotgan emish, natijalar juda yomon chiqibdi, ayni shu kunlarda qaysi domlani qoldirish, qaysisini ketkizish to'g'risida masala ko'rilyotgan, birinchi galda, ellik foizdan kam "musbat" olganlar, keyin asta-sekin oltmish uchu uch foizdan kam "musbat" olganlar, o'rniga odam topilishiga qarab, jildirilar emish, ungacha, turgan gap, fakul tetni o'tirg'izib qo'ygan rahbarlar, avvalo dekanimiz Mahmudali aka qattiq hayfsan bilan bo'shatilib, o'rniga o'qituvchilar orasida ham, talabalar o'rtasida ham obruyi baland yosh bir dosent qo'yiladi, bu ham Hakqerdining kimni ko'rsatishiga bog'liq, hozirdanoq aniq bir taxmin bor-u, faqat buni aytilish Suhroba noqulay...

Suhrob o'zidan ham ancha-muncha gaplarni qo'shib-chatib gapirdi, hammamiz kuldik, Karim aka, qarilik qursin, odamning esi kirdi-chiqdi bo'lib qolar ekan, deb Yulduzxonadan kechirim so'radi, sal-pal engil tortdigu ko'nglimizdan gidir ketmadi: mana, shunday ko'pchilik vag'ir-vug'ur o'tirib, suv olarmish, tom bosarmish degan oldi-qochdilarning avra-astarini ag'darish, cho'kirtak qilichini o'ynatib qo'rqitmoqqa urinayotgan uvoqqina yog'iyni chertib-chertkilab mayna qilish yaxshi, hatto juda zavqli edi, biroq har birimiz o'zimizcha o'ylaganda, o'sha yog'iya qarshi yolg'iz turganda, bu mish-mishlarning tagi borday, nimasidir asosliday, ko'nglimizda noaniq bir tahlika uyg'onar edi.

Birinchi darsim to'rtinchi kursda edi, odatdagiday o'tdi-yu, faqat talabalar ko'zimga boshqacharoq ko'rindi, buni oldingi kunlari ham payqaganday edim, lekin, to'g'risi, biron-bir o'zgarishga, xususan Haqberdining dahmazasiga bog'lamagan edim; ular o'zlarini menga ilgorigidan ham yaqinroq tutishayotganday, gaplarimni quvonibroq tinglashayotganday, har holda, ularning savol berishlarida, keyin go'yo chin "a'lochi"dan imtihon olayotganday, tez-tez bosh irg'ab, javobimni mamnun eshitishlarida odatdagidan ancha farqlanadigan o'ktamlik, o'zlariga ishonch, menga madad va hatto, domla, bo'sh kelmang, biz bormiz, qarab turmaymiz, deb homiylik qilish ham borday, menga shunday tuyulgan bo'lsa ham, Haqberdining oxirini o'ylamay qilgan ishi yomon tus olib, talabalar bilan domlalar o'rtasida shu paytgacha cho'kib yotgan ko'p narsalarni yuzaga qalqitib chiqarayotgani sezilib turar edi.

Darsdan chiqib dekanatga kirsam, yana odam, g'ala-g'ovur, Turg'un qo'lini ko'tarib, nimadir demoqqa urinadi, Karim aka: "Mahmudalining oldida nima degan odam bo'ldik? Sizga ishonib ketyapman, Karim aka, degan edi-ya!", deb vag'illaydi, Marhamat opamiz burchakda piq-piq yig'layapti, Yulduzxon unga suv tutyapti, Jamshid devorga elkasini berib, xayoli qochibroq turibdi, Suhrob qovog'ini uyub, o'zini tashvishmand tutishga urinadi, lablarini yig'ishtirolmaganidan, esi og'ib qolganday ko'rinadi, qolganlarning yuzida ham, shamol yo'g'-u, daraxtlarning uchi qimirlashi nimadan, degan hayronlik, faqat Sunnatov bosiq, qo'lini chuntagiga tiqib, uyoqdan-buyoqqa yuradi, kim kirsam, eshikka qarab, yopib qo'ying, degan amirona ishora qiladi.

Nazarimda, hamkasblar ishongilari kelmayotgan narsalarga ishona boshlashgan, boyagi bepisand kulgidan asar yo'q, bir-birlariga sinovchan qarashlari, unsiz savollarida odatdan tashqari, noqulay bir yotsirash paydo bo'lgan,

hech kim o'zini qanday tutishni bilmas, agar beparvo ko'rinishga urinsa, bor gapni bilib, aytmayotganday, kulib yursa, bu gaplardan quvonayotganday, xafa yursa, yuraksizlik qilayotganday, bir mujmal ahvol vujudga kelgan edi.

Mish-mishlar soat sayin bolalar edi:

Marhamat opaning kursi Jamshidga olib berilishi kerak emish...

Talabalar, Etmishboevga sidirg'asiga "manfiy" qo'yib tashlashgani etmaganday, ism-sharifini ham o'chirib chiqishgan emish...

Sunnatovning "musbat-manfiy"lari teng...

Yulduzxonning "manfiy"i kam...

Keldievaga "musbat-manfiy" qo'yib o'tirmay, "Tannozi" deb yozishgan...

Mahmudali aka hozir Olmaotada — fol klorshunoslar kengashida emas, balki Moskvada, tanish axtarib chopib yurgan emish...

Ashrapovning "manfiy"i umuman yo'q, emishki, Haqberdi anketa tarqatayotib: "Mahdi Ashrapovichday domlarning qadriga etishlaring kerak, u kishi ham sizlarday talabdan katta bo'lgan, hali yana o'sadi", deb shama qilibdi...

Hammasidan ham Haqberdining o'zi yo'qligi sirli edi. O'tgan seshanbada bir qorasini ko'rsatgandan buyon yo'q. Balki, rostdan ham kasal yotgandir, ammo buyoqda shuncha gapni qo'zg'ab, o'zi ko'rinmayotgani ko'p shubha-gumonlarga sabab bo'ldi.

Marhamat opa to'rtinchi kursga mendan keyin kirgan ekan, leksiyasining o'rtasida Eshnazar Boboqulov degan a'lochi talabamiz qo'l ko'tarib o'rnidan turibdi. Marhamat opa undan: "Ha, Eshnazarjon, nimani tushunmadingiz?", deb so'rabdi. Yaramasning tushungan narsalariga opamizning aqli etmaydi.

"Navoiy merosi bilan bugungi kunda ro'zg'or tebratish problemasiga qanday qaraysiz? Bunday qilish ulug' shoir xotirasini toptash bo'lmaydimi?", deb savol beribdi. Bechora opamiz o'zini tushunmaganga solib, Navoiy ijodining buyukligi, klassik she'riyatda "ro'zgor" so'zi oddiy ro'zg'ordan chuqurroq ijtimoiy ma'nolarni tashishi, ulur shoirimiz xotin-qizlarga oddiy ro'zg'or bekasi deb qaramagani, balki bir pok xotinning oyoq izini yuzta erkakdan baland qo'rganini gapiribdi-yu, bari bir, Eshnazarning achchiq iljayib tinglayotganiga chiday olmay, bir tomoni, erining nouddaligidan besh bolani edirib-ichirish, uylantirish-chiqarish o'zining zimmasida qolib, yigirma bir yil oldin "Navoiy ijodida ijobiy xotin-qizlar obrazi" degan mavzuda amal-taqal kandidatlik yoqlaganidan beri ilm bilan shug'ullanolmay, mana, bugun kenja o'g'li qatori bolalarga mayna bo'lib o'tirganiga xo'rliigi kelib yig'lab yuboribdi.

Nima deb taskin berishga ham hayron edik. O'zimiz-ku, uning hatto qaysi qiziga qancha ko'ylak tiktirganigacha talabalarga gapirib berishidan kulib yurar edik. Boboqulovni dekanatga chorlab, tartibga chaqiramizmi? Nima deb? Aqli pichoqday kesadigan bola, "Agar gapim noto'g'ri bo'lsa, isbotlab bersinlar", desa, nima deymiz? Shu yil uni hatto paxtaga ham yuborisholmadi, haydaymiz deb ham

qo'rqitishdi, hatto stipendiyadan ham mahrum qilisholmadi — paxta ixtiyoriy, mayli, biron joyda majburiy, deb yozilgan qoidani ko'rsating—boraman, chora ko'rsangiz, men ham chora izlayman, deb oyoq tirab turaverdi! Mahmudali aka, bilmadim, nega uning laqabi “Boybo'ribiy” bo'lib ketgan, Alpomishning otasi bu biyning oldida ancha laqma bo'lib chiqadi, “Hali alohida gaplashaman sen bilan, juda qashshang bola ekansan”, dedi-yu, tag'in terim kompaniyasiday mas'uliyatli damda bu gap kattarib, bir balosi chiqib yurmasin deb, o'zi

VKKdan “Psixicheski nenormal niy” degan spravka oldirib, seyfga tashlab qo'ydi.

Ertasiga Jamshidni uchinchi kursdagilar qarsak bilan kutib olishibdi — Marhamat opa kechagi mash-mashadan keyin darsga kelmay, o'rniga kirgan edi...

Birinchi kursga kirgan Keldieva auditoriyadan hech kimni topolmabdi. Ikkinchi kursdagilar bugun drujinachilikka borishdan bosh tortishibdi. Sunnatov ovozini balandlatgan ekan: “Bizga baqirishga haqqingiz yo'q”, deb qo'rslik qilishibdi.

Etmishboevning qon bosimi ko'tarilib, “Tez yordam” chaqirdik, baqir-chaqirdan sal qutuldik — janjal tinchiguncha davolandi.

Men leksiyamni “Qizim senga aytaman...” qabilida tashviqot bilan o'tkazdim, kattalarni hurmat qilish kerakligi, odob haqidagi gaplarim bilan o'zimni ham, talabalarni ham zeriktirdim, dars oxirida Eshnazar: “Domla, qo'rqqoqlik asli odamning tabiatida bormi yo uni muhit qo'rqqoq qilib qo'yadimi?”, degan ilmoqli savol berdi. Ichimdan ichqirindi o'tsa ham, “E-e, uka, botirlar ham qo'rqa-qo'rqa, oxiri qo'rqaqaverish joniga tekkandan keyin botir bo'lgan”, deb kulgiga burdim, tanaffusda uning o'zini burchakka olib, domlalarga bunaqa betgachoparlik qilishi noo'rinligini va fakul tetda yurgan gaplarda hech qanday asos yo'qligini uqtirdim. “Bir asos chiqarsak-chi, domla, qo'shilmidingiz, siz ulardan ko'ra bizga yaqinroqsiz-ku?”, dedi...

Urishib berdim.

Bo'lmaydigan narsalar bo'layotganday, mish-mishlarda asos bormi-yo'qmi, bunga qaramay, hammasi oshkor tus olgan, ta'lim-tarbiya jarayoni izdan chiqib, auditoriyalarda kechagi mo'min-qobil talabalarimiz emas, yuzi tanish, o'zi notanish g'animlar to'dalashib, har bir xatti-harakatimiz, gaplarimizni imtihon qilayotgan, ustiga-ustak, o'zimiz ham guruh-guruhlarga ajralib, yovlashib borayotgan edik.

Bir yoqda “yosh bir dosent” to'g'risidagi “taxmin” aniq menga kelib taqalayotgan, besh-olti domlalarning menga munosabati ham “tag'in keyin...” tarzida sezilarli o'zgarib boshlagan edi...

Aksiga olib, “Boybo'ribiy”, Olmaotada, oqsoqol professorlarimizdan biri, bivosili qo'zib, kasalxonada yotibdi, biri monografiyamni yakunlayman, deb uyga qamalib olgan, partkom—malaka oshirishda, Turg'un dekan o'rinbosari bo'lgani bilan, birovni yo'lga solish uyoqda tursin, o'zining ham qaysi yo'ldan yurishini

bilolmay boshi qotgan, xullas, fakul tetdagi ahvolni so'rab-tergab turadigan bironta boshchi yo'q — shunday vaziyatda Haqberdining bu ishni oxirigacha o'ylamay qilganiga ishonmay qo'ydim.

Oti olib qochayotgan chavandozga o'xshab, aqlimiz shoshib qoldi: “mumkin emas”, “kurakda turmaydi”, “talabalarning o'zi to'qigan”, “tuturig'i yo'q” degan omonat to'siqlardan bosib-xatlab o'tib ketyapmiz, na otimiz jilovga bo'yin beradi, na ustidan sakrab tushishni eplaymiz...

Eng yomoni — mish-mish, oldi-qochdi, asabozlikni bir chetga surib, voqealarning tubiga sinchiklab nazar solsak, chuqurlardan, kimga yaxshi, kimga xatarli, mubham, mudroq haqiqat o'rmalab chiqayotganini ko'rar edik.

Qo'l qovushtirib turaversak—bo'lmaydigan, o'ladigan kasal emasdir, o'zini olib kelaylik, yurolmasa, suyab kirarmiz, nima g'alva ekanini o'z og'zi bilan tushuntirsin, u egan somsaga biz pul to'lab o'tiraveramizmi, tagiga etaylik, dedim,

Hasanning mashinasida Sunnatov, Shamsiev Haqberdinikiga ketishdi.

Haqberdining kelishi ko'p mish-mishlarni puchakka chiqardi-yu, ammo munosabatlarimizni chalkashtirib yubordi...

Keyingi gaplar ayanch, achchiq, g'arib haqiqat, jinlar bazmiday ro'yo va betayin edi...

Ertasi kuniyoq Olmaotadan “Boybo'riby” etib keldi: Sunnatov telefon qilgan ekan.

Haqberdi anketalarni dushanba kuni tarqatib, seshanbada ertalaboq kursboshilar orqali yig'dirib, odamga aytishga ham uyaladigan joyidan chiqqan chipqoni gazak olib, yurg'izmay qo'ygani uchun chorshanba kuni mukka tushib yotib qolgan ekan, keyin sezishimcha, Sunnatov u qaratgan poliklinikaga borib, rost-yolg'onligini tekshirib ham kelibdi.

Avvaliga Haqberdi hech kimga hech qanaqa anketani ko'rsatmayman, buni o'z ilmiy ishim — metodikani sosiologik jihatdan o'rganish uchun qilganman, deb oyoq tirab turib oldi-da, janjalga battar moy quydi.

Kafedrada to'plandik, dekanatda g'alva bo'ldi, Haqberdi anketalarni o'zicha o'ylab topgani, o'zi tuzib, tarqatish-yig'ishda bashqa hech kim qatnashmaganini aytdi — yuqoridan topshiriq yo ko'rsatma yo'qligi oydinlashdi-da, uning qo'lidagi anketalarni nima qilish to'g'risida bahs ketdi; bir qismimiz Hakberdining ilmiy izlanishlariga aralashish noto'g'riligi, olimlik etikasiga to'g'ri kelmasligini ta'kidlab, tadqiqotiga xalal bermaylik, dedik, ko'pchilik, birovi azbaroyi qiziqqanidan, birovi o'zidan qo'rqqanidan, anketa hammamiz haqimizda bo'lgandan keyin, hammamizga tegishli, ko'rishimiz kerak, deb turib olishdi.

Oramizdagi kunda bahs, kunora g'urbat talabalarga boshqacha ta'sir qildi — bu tortishuvlarning nima bilan tugashini kutib, tinchlanib qolishdi, darslar ham izga tushib, silliqroq o'ta boshladi.

Boshqa “bo’sharmish”, “ketarmish” degan gaplar bosilib, faqat Haqberdining o’zi, qo’lidagi anketalarga muhrlangan sirning o’zi qoldi, men, Suhrob, Yulduzxon, yana katta Boqiev bilan Tillaboev uni yoqlab chiqdik, anketa talabalarning xulqiga yomon ta’sir o’tkazgan bo’lsa, sababi anketaning o’zida emas, fakul tetdagi ahvolda, dedik: Sunnatov, Shamsiev, Sherboevga o’xshaganlar anketa talabalarga qutqu berib ta’lim-tarbiya jarayoniga zarar etkazdi, o’qituvchilarni obro’sizlantirdi, bu uchun Abdiqulov javob berishi shart, degan gapga yopishib olishdi; yana guruh, guruhchalarga ayrildik, tepamizda — bunaqa paytlari qarshi tomonlarning fikrlarini tinglab, go’yo ko’nglimizni topib yarashtiradigan, shu bilan rahnamoga aylanadigan hamishagi “Boybo’rimiz” — achchiq-tiziq, aytishib yuraverdik.

G’urbatimiz rektoratga ham ikki-uch marta chiqib tushdi.

Ammo Haqberdi aytganidan qaytmadi, “Boybo’ribiy”, malaka oshirishdan bir haftaga javob olib kelgan partkom Orzimurodovning aldab-suldashlari, kollektivni hurmat qilishga chaqirishlari ham, muloyimgina tahdid-po’pisalari ham kor qilmadi. “Yuz o’n etti qorako’zning menga ishonib bildirgan ko’ngil haqiqatini sizlarga topshirib qo’ymayman. Bunaqa talab qo’yishga huquqiy vakolatlaring ham yo’q, aksincha, menga yordam berishlaring kerak edi”, deb turib oldi.

Oxiri “Boybo’ribiy”ning o’zi shunaqa huquqiy-qonuniy yo’lini topdi, to’g’rirog’i, biz tortishib yurganda, eski tullak, kim bilan uchrashsa, uchrashib, o’qituvchi qaysi vaqtda qanday anketa so’rovi o’tkazishi mumkinligi to’g’risidagi tartib-qoidalarni aniqlab olib, masalani ko’ndalang qo’ydi: Haqberdining ishi g’ayriqonuniy ekan! O’qituvchining anketa so’rovi o’tkazishi oldindan fakul tetning ham, kafedraning o’quv planida belgilanishi, shundan so’ng o’zining individual ish planiga kiritilib, kafedrada tasdiqlangan bo’lishi, shunda, mavjud qoida bo’yicha, o’qituvchi boshqa hamkasblari haqida emas, faqat yolg’iz o’zi to’g’risida savollar tuzib, ob’ektiv fikr to’plashiga ruxsat bor ekan. Haqberdining bu ishni o’z bilgicha — na dekanat, na kafedra bilan “predvaritel no!” kelishib olmay, individual ish planida ko’rsatmay, “neglasno!” qilganligi ta’lim-tarbiya jarayonida “grubeyshee narushenie!” bo’lib, masala, albatta, partkom yig’ilishida ko’rilib, tegishli xulosasini olishi shart ekan; “Boybo’ribiy” bunaqa paytlari kerakli so’zlarni enasining mahriga tushib, keyin o’ziga meros qolganday, shu gapim bilan istagan odamingni varanglatib otib tashlayman, deb ishlatar, ammo tegib ketsa, xun to’lab yurmay, deb nishonni sal teparoqdan olar edi.

Haqberdining anketalarni olib kelishdan boshqa chorasi qolmadi, lekin o’z navbatida u ham shart qo’ydi: yig’ilishda mening masalam ko’riladigan bo’lsa, anketa natijalarini ham oshkora muhokama qilasizlar, bu uchun avval komissiya tuzasizlar, dedi. Orzimurodov—boshliq, o’zbek tili kafedrasidan professor Begaliev (chaqirib kelinadi), Sunnatov, o’zbek adabiyoti kafedrasidan men bilan Suhrob komissiya sostaviga kirdik. Sunnatovni kiritgani uchun “Boybo’ribiy”ning o’zi “Men — “zainteresovanniy lichnost !” xolis turay, ish ob’ektiv bo’lsin”, dedi..

Haqberdining o’zi yonidan pul to’lab, o’zining ham, bizning ham boshimizga orttirgan mashmashasining mazmuni shunday edi — dekan bilan ikki professor —

kafedra mudirlaridan boshqa, qolgan o'qituvchilarning ism-shariflari ilmiy unvon-darajalariga qarab:

1. dotsent ETMISHBOEV K. E.
2. dotsent ORZIMURODOV B. S.
3. dotsent TOLIBOVA YU. S...
15. ffk. BOQIEV Q. A...
18. k. o'q. KELDIEVA B. T...
22. kch.o'q. BADALOV J. Y...

tartibida bir ustunga tirkalib, qarshidagi “bilim saviyasi”, “dars saviyasi”, “muomala madaniyati”, “talabchanligi”, “xarakteri” degan ustunlarga har bir talaba o'z bahosini “musbat” yo “manfiy” shaklida belgilab, eng oxirgi —“takliflar” degan ustunga, agar o'qituvchini o'z fanini o'tishga noloyiq, hisoblasa, bunga munosib o'qituvchining shu ro'yxatdagi tartib raqamini yozadi, masalan, “II. dos. SAYDULLAEVA M. H.—Q—Q 22, ya'ni Marhamat opamizning “muomala-madaniyati”, bilan “xarakteri” yaxshi, ammo boshqa “saviya”lari past, uning fani—“O'zbek adabiyoti tarixi” kursini “22. kch. o'q. BADALOV J. Y.”— kichik o'qituvchi Badalov Jamshid Yo'ldoshevich o'tgani ma'qul, mabodo, talabanning fikricha, bu fanni o'tadigan o'qituvchi fakul tetda bo'lmasa, “no'l” qo'yib qo'yiladi (masalan, “9. dos. SHAMSIEV T. K. — — Q Q Q 0, demak, dosent Shamsiev Tavakkal Karimjonovichning “bilim saviyasi”, “dars saviyasi” yomon, boshqa jihatlari yaxshi, u o'tadigan “Eski o'zbek tili” kursiga chetdan o'qituvchi chaqirish kerak.

Anketani to'ldirgan talabanning ism-sharifi mahfiy qoladi.

Anketalar bilan bir o'tirishdayoq tanishib chiqdik, o'rganib tekshiradigan hech narsasi yo'q, hammasi kunday ravshan, Haqberdi o'z ishini tartib-reja bilan sidqidildan bajargan, har bir o'qituvchiga qanchadan “musbat”, qanchadan “manfiy” tushganini cho'tga qoqib, foizga chaqqan, almashtirish haqidagi takliflarni ham vijdonan ko'rsatib qo'ygan edi. Anketalarning o'zida, Haqberdining hisob-kitob qilgan qog'ozlarida ham anglashilmovchilik yo'q— bari to'g'ri, faqat... biz mish-mish, oldi-qochdi, betuturiq deb yurgan gaplar bu qog'ozlarda aniq-taniq, hech bir e'tirozga izn bermaydigan “musbat”, “manfiy”lar, raqamlar bilan berahm haqiqatga aylantirib quyilgan edi:

1. dos. Etmishboev K. E. Q 8%;—92 %; qarshi—113
2. dos. Orzimurodov B. S. Q 44 %;—56 %; qarshi— 59
3. dos. Tolibova YU. S. Q 93,6%;— 6,4%; qarshi — 3
4. dos. Sunnatova A. Sh. Q 45,7%; —54,3%; qarshi—60
5. dos. Shamsiev K. B. Q 73,2%;—26,8%; qarshi—36

| | |
|-------------------------------|-----------------------------|
| 6. dos. Ashrapov M. A. | Q 98,1%;— 1,9%; qarshi— 0 |
| 7. dos. Rajabov X. D. | Q 39 %;—61 %; qarshi— 73 |
| 8. dos. Sherboeva K. Sh. | Q 31,3%; —68,7%; qarshi— 72 |
| 9. dos. Shakarov T. Sh. | Q 17,5%;—82,5%; qarshi—81 |
| 10. dos. Mamanova M.M. | Q 49,3%;—50,7%; qarshi—66 |
| 11. dos. Tillaboev B. T. | Q 48,4%;—51,6%; qarshi—59 |
| 12. dos. Saydullaeva M. X. | Q 22 %;—78 %; qarshi — 91 |
| 13. ffk.Egamov S. E. | Q 92,9 %;— 7,1%; qarshi— 10 |
| 14. ffk.Boqiev I. I. | Q 38,5%;—61,5%; qarshi—68 |
| 15. ffk.Boqiev I. M. | Q 63,8%;—36,2%; qarshi — 43 |
| 16. ffk. Baydullaeva T.A. | Q 86,3%; —13,7%; qarshi— 12 |
| 17. ffk. Abdikulov X.U. | Q 50,6%;—49,4%; qarshi— 56 |
| 18. k.o'q. Keldieva B.T. | Q 2,8%;—97,2%; qarshi—114 |
| 19. k.o'q. Berdinazarov X. F. | Q 72 %;—28 %; qarshi — 37 |
| 20. kch.o'q. Bektosheva Sh.M. | Q 32 %;—68 %,- qarshi — 67 |
| 21. kch.o'q. Halimboeva D.N. | Q 88,8%;—21,2%; qarshi—29 |
| 22. kch.o'q. Badalov J.I. | Q 100%; — 0%; qarshi— 0 |

Har ehtimolga qarshi buxgalteriyadan bitta elektrokalkulyator olib kelib, ro'yxatning har joy-har joyidan beshta o'qituvchining “musbat-manfiy”larini qayta hisoblab, foizga chaqdik—to'ppa-to'g'ri chiqdi, masalan, Etmishboevga 8 foiz “musbat”, 92 foiz “manfiy” qo'yilibdi, 113 talaba uning o'z fanini o'tishiga qarshi chiqqan...

Suhrob, o'zining ko'rsatgichlari boshqalarnikiga nisbatan hattoki juda yaxshi (92%;—7,1% qarshi—10) bo'lsa ham, rangi oqarib, g'uldirab qoldi. “Xuddi hali o'lmagan odamlarning janozasida o'tirganday bo'lyapman”, dedi, Sunnatovning yuziga bir shum ifoda qalqdi-yu, indamadi, tamakiga zo'r berdi, professor Begaliev juda zerikkanday cho'zib uf tortdi, Orzimurodov hammamizga bir-bir qarab chiqdi-da, Sunnatovga imo qildi, Sunnatov chiqib ketdi. Bir-birimizni tomosha qilib o'tiraverdik. Ancha jimlikdan keyin Orzimurodov yig'lamsirab gap boshladi: “Bularni birovga ko'rsatib bo'ladimi? Sharmanda qiladi-ku?” “Sharmanda bo'lamizmi, bo'lmaymizmi, lekin bor gap”, dedim men. “E-e, qoyilman!—dedi Suhrob.—O'zini ham qo'shib, to'g'risini ko'rsatib qo'yibdi-ya! Ahvol shunaqa ekanda-da, a? Hammasi joyida ko'rinib yurgan edi, buni qarang!” “Kollektivni o'ylaysizmi, yo'qmi?—dedi burilib Orzimurodov.— Yo faqat o'zingizning yaxshiga chiqqaningizga quvonib yuraverasizmi?” “Shuyam kollektiv bo'ldi-yu”, dedi Suhrob. Begaliev derazaga qarab: “Yaxshimi, yomonmi —kollektiv,—dedi.— Bitta Abdikulovlarningning haqiqatni ochishi bilan ahvol tuzalib qolmaydi. Buni

tuzatish dekaning ham, rektorning ham, hatto ministringizning ham qo'ldan kelmaydi. Ming yildan beri aytaman: fakul tetga har kimni olavermaylik, deb. Mana, oqibati!" Orzimurodov uning gapni qayoqqa burayotganini tushunmay, sapchib tushdi: "O'n yildan beri bor-yo'g'i to'rtta odam oldik-ku, domla! Mana, Ashrapov, Baydullaeva, Suhrojon bilan Abdiqulovning o'zi..."

Begaliev unga qarab ruhsizgina: "Yashang", deb qo'ydi. Orzimurodovning alami keldi: "Gap ahvolni tuzatish to'g'risida emas, bu kog'ozlarni nima qilish to'g'risida ketyapti, siz bo'lsangiz..." "Qog'ozlarnimi?— dedi Begaliev kinoya bilan.— Gugurtingiz bormi?" Suhrob cho'ntagiga shapatilab ko'rib, gugurt oldi. "Menga emas,—dedi Begaliev.—Yigirma yildan beri chekmayman. Ana, Berdimurodga bering, yoqib tashlaydi". Suhrob shosha-pisha gugurtni cho'ntagiga tiqdi. Orzimurodov yana ezildi: "Nima qil deysiz, bo'lmasa? Mana, sanab chiqing: nechta odam? Haydaymizmi shularni? Shuncha odamni bo'shatib, o'rniga qaydan odam topamiz? Boshqa institutlarda ham shunday. Ja shu Abdiqulovning qog'ozlari bilan ko'zimiz ochilgani yo'q, o'zimiz ham bilar edik..."

"Kim sizga haydang, deyapti? Haydash bilan ish bitsa ekan", dedi Begaliev. "Ochiq partiya majlisi o'tkazaylik-da, muhokama qilaylik,—dedim.—Kun tartibiga kadrlar masalasini qo'yaylik. Mana shu ko'rsatkichlar asosida doklad tayyorlaylik — komissiya nomidan. Haqberdi ham o'z fikrlarini ochiq aytsin. Mayli, talabalardan ham eshitib ko'raylik..." Orzimurodov jirillab berdi: "Qachondan beri o'qituvchi o'quvchiga imtihon beradigan bo'lib qoldi?! Hamma gaplaring to'g'ri, ayb bizda, deb aytamizmi talabalarga? Kulgili ahvolda qolamiz-ku! Ha, endi qaysisi ko'p yiqilgan, javob berolmagan bo'lsa, uchini olgan-da bu qog'ozlarda." "Yoppasiga hammasi alamzada emasdir", dedi Suhrob. Majlisda bu tomonini ham aniqlab olamiz", dedim. "Hali kim biladi, balki bu Haqberdi jo'rangiz... Ja boshqalarni anoyi deb o'ylamang", dedi Orzimurodov. "Ko'p mijimiji qilmaylik,— dedim.— Hammasi shu yig'ilishda oydinlashadi. Bu erda hal qilolmaymiz", "Ko'rinib turibdi-ku,—dedi Orzimurodov.—To'qson sakkizu bir! Kecha kelgan bolaga yuz foiz! Badalov shuncha tajribali bo'lib qoldimi?" "Obbo,— dedi Surob,— anketalarni Abdiqulovning o'zi to'ldirmagan-ku!" "Minus"larni "plyus" qilib chiqish qiyin ekanmi?— dedi Orzimurodov.— O'shanaqa siyoh bilan bitta chiziqcha tushirsa bo'ldi-da,— mana, bunaqa qilib..." Suhrob uning qo'ldan ushladi: "Buzmang!" "Ana shu bilib yurganlaringizni ham yig'ilishda ochiq aytasiz,— dedim.— Biz ham anoyi emasmiz, Abdiqulov "plyus"larni o'zi "minus" qilib chiqqan, deysiz". Orzimurodov menga xafa bo'lganday qaradi: "E-e, men... endi shunaqa mayda gaplarni yig'ilishda ko'tarib yuramizmi? Bo'lishi mumkin deyapman, shunday qilgan, demadim-ku". "Shubhangiz bo'lsa,— dedi Suhrob,— kelinglar, anketalarni ekspertizaga beramiz, tanishlarim bor, bir kunda tekshirib berishadi..." Begaliev yoqimsiz kuldi: "Agar bu qog'ozlar tashqariga chiqsa..."

Judayam tashvishmand, o'ta shijoatli tusda "Boybo'ribiy" kirdi — go'yo bu erda biz yosh bolalar ishni rasvo qilib qo'yganmiz-u, bu kishimiz ham gunohimizdan o'tadi, ham xatoimizni to'g'rilab beradi...

Sunnatov unga ergashgan ko'yi bidirlab ketdi: "Men nima deyapman, Mahmudali Asqarovich? Bularga ham tushuntirdim. Mana, Suhrobjon ham bu qog'ozlarni kollektivga suiqasd, deb to'g'ri aytdi..." Suhrobning ko'zlari olayib ketdi: "Qachon?" Sunnatov shosha-pisha gapini to'g'riladi: "Men noto'g'ri tushungan bo'lishim mumkin, Suhrobjon, lekin siz kollektivning janozasida o'tiribman, dedingiz, hammamiz eshitdik. Hali juda erta bu gapni aytishga..." "Menmi?" dedi Suhrob battar lovillab. "Hoy, qo'yinglar, yaxshimas,—deb inoyat qildi "Boybo'ribiy".—Tilning suyagi yo'q, og'izdan chiqib ketgan bo'lishi mumkin. Bukvalniy tushunmang, Ahrorjon. Xo'-o'sh..." "So'kinmang,—dedi Sunnatov Suhrobgaga. — pedagog, olim odamsiz!" "E-e, men so'kinmayapman, tavba, deyapman,—dedi Suhrob angrayib.—Odamni bunaqa..." "Boybo'ribiy" kordonlik bilan ularni to'xtatdi: "Xo'-o'sh, tanishdinglarmi, nima qarorga keldinglar. Domla, qanday, bu qog'ozlarda gapirsa, arzigulik bir narsa bormikan? Bu Abdiqulov ukamiz o'zi o'tirgan shohga bolta urmabdimi? YOmon yiqilsa, bizdan ko'radi-da, keyin..." Begalievning o'rniga Orzimurodov javob berdi: "Hayronmiz, bir tomondan, bu kog'ozlarda... ikkinchi tomondan, mana, Mahdi Ashrapovich ham..." Sunnatov yana bidirlab ketdi: "Bularga ham tushuntirdim, hozir sizga aytgan gaplarim, Mahmudali Asqarovich: anketalar juda savodsizlik bilan tuzilgan: mana, o'zingiz ko'ring, "bilim saviyasi", "dars saviyasi" — ikkovi bitta narsa emasmi? Yana qarang". "Muomala madaniyati" ham bor, "xarakteri" ham bor: "muomala madaniyati" "xarakter"dan kelib chiqmaydimi, o'zi emasmi? Nega bunaqa bo'lib tashlagan — "minus"larni ko'paytirish uchun! "Takliflar" emish! Kimni olib, kimni qo'yishni yosh bolalar belgilaydimi? Unday bo'lsa, dekanatni, rektoratni tarqatib yuboraylik — bolalarning o'zi xohlagan o'qituvchisini chaqirib dars tinglayverishsin! Men tushunmay qoldim, Mahmudali Asqarovich, bu sovet pedagogi, etuk olimlarni masxara qilishdan boshqa hech narsa emas!" "Boybo'ribiy" Sunnatov gapirayotganda hammamizni kuzatib turdi — o'rgandi. "Juda oshirib yubormang, Ahrorjon. Gaplaringiz ko'p tomondan to'g'ri-yu" juda sgustit qilyapsiz. Shusiz ham bu borada hamma yakdil, deb o'ylayman. Hozir har xil shaxsiy munosabatlarni yig'ishtirib qo'yib, kollektivni o'ylash kerak. Talabalarning oldida o'qituvchilarimizning ilgarigiday avtoritetini ko'tarish—mana, glavniy vopros. Bir buzg'unchini deb... umuman, yaxshi emas. Xo'-o'sh, domla, meningcha, bu ishni cho'zib yurmasak, men bir jiddiy, umumiy ishimizga yordam beradimi, deb o'ylagan edim, arzimas ran ekan..." Begaliev derazadan ko'z o'zmadi. Uning o'rniga yana Sunnatov bidirladi: "Hammamiz ham shu fikrda to'xtagan edik, Mahmudali Asqarovich;". Suhrob, ko'zlari qisilib, engagini cho'zdi: "Qaysi fikrda?!" Sunnatov unga yalingannamo qaradi: ishni buzmand-da, jo'rajon! "Bu masalani oldinroq—shu Abdiqulovni nshga olayotganda o'ylash kerak edi,—dedi Begaliev derazadan ko'zini olib,—esingizda bo'lsa, o'shanda nosinashta odamni olishdan ehtiyot bo'ling, deb aytgan edim, Mahmudali, quloq solmadingiz". "Aytgandingiz, aytgandingiz,—dedi "Boybo'ribiy" gunohkorona tusga kirib.—Lekin ministrlikdan qo'ng'iroq bo'ldi, mana, Mahdijondan so'radim, o'zi qanday odam, keyin bizni uyaltirib qo'ymaydimi, deb. Juda yaxshi odam, deyishdi". "Endi yaxshiligini ko'rmaysizmi! Mana, sanab chiqing, nechta odamning yuziga loy chaplagan!"—dedi Sunnatov.

“Da-a,—dedi qayg’u bilan “Boybo’ribiy”.— Oltmishga kiriyapmiz-u, haligacha odam tanishni bilmaymiz. Yaxshi yigit, deb unga ishonch bildirib yursak, qilgan ishini qarang! Chisteyshee provokasiya! Shularni bitta savol qilsa ham bo’lar ekan. Nima keragi bor edi, a talabalarni ham chalg’itib. Jo’rangizning maqsadini tushunmayapman, Mahdijon. Fikrlarini ochiq yozib bersa yo biron majlisda aytsa ham bo’lar edi-ku. Ahrorjon, endi uka, siz ham juda bunaqa... oshirib yubormang. Odamlar noto’g’ri tushinishi mumkin. Aytganday, sanab oldingizmi?”

“Sanadim,— dedi Sunnatov.— Bir yuzu o’n ettita”. “Sanamay qo’yarmidi!”, dedi Suhrob. Begaliev soatiga qaradi: “Nima qildik endi? Komissiya xulosasini kim yozadi?” “Hali hech qanday xulosaga kelmadik-ku,— dedim zo’rg’a o’zimni bosib.— Nuqul Haqberdini yomonlayapmiz. Anketalarni, ulardagi faktlarni nima qilamiz? Ko’z yumib ketaveramizmi? Siz aytganday, Mahmudali aka, Haqberdi noto’g’ri yo’l tutgandir, lekin to’g’risini ochibdi-ku. O’rtaga qo’yib, kengashib olaylik”. “Boybo’ribiy” qo’lini ko’ksiga qo’ydi: “Albatta, albatta, Mahdijon, ana shunday reshitel niy gaplaringiz uchun hurmat qilamiz-da, sizni. Kengashaylik, kelishaylik. Mana, domla, siz, Ahrorjon, Suhrobjon, o’rtoq Orzimurodov — kamchilik emassizlar”. “Men ko’pchilik deganda, hammani aytyapman,— dedim.— Anketalarni hamma ko’rib chiqsin, munosabatini bildirsin: to’g’ri bo’lsa—to’g’riligini, noto’g’ri bo’lsa—noto’g’riligini...” Orzimurodov qiynalib qaradi: “Hech tushunmayapman sizni! Yo soddalikka solyapsizmi o’zingizni? Biz kimmiz — shu ko’pchilik vakolat bergan komissiya! Biz nima desak, shu hammaning fikri-da”. “Lekin bu erda ko’pchilikning fikrini aytmayapmiz-da,— dedim.—Har kim o’zinikini o’tkazish payida”. “Juda mantiqni sevasiz-da”, dedi Orzimurodov boshqa rap topolmay. Sunnatov chichongladi: “Nega o’zimizniki bo’lar ekan? Mana, Mahmudali Asqarovich, chisteyshee provokasiya, dedilar-ku! Bu provokasiya kimga karshi qilingan—ko’pchilikkami? Biz kimni himoya qilyapmiz? Abdiqulovnimi yo shuncha yildan beri qo’lni-qo’lga berib, ahil ishlab kelayotgan kollektivnimi? Shunday ekan, ko’pchilikning fikri qaysi tomonda bo’ladi?” “Siz tomonda!”, deb kesatdi Suhrob. “Siz ko’p ham gapni buravermang,— dedi Sunnatov.— Men ko’pchilik tomonida turganim bilan faxrlanaman. Provokatorning yonini olish bilan emas.” Orzimurodov unga engil tin olib qaradi. “Shunaqa so’zlarni sal o’ylab ishlataylik,— dedim mumkin qadar vazminlik bilan.— Mavqeimizga ham, yoshimizga ham yarashmaydi”. “Ha, yoqmayaptimi?— dedi Sunnatov tantana bilan.— Provokasiyani provokasiya, demay, yana qanaqa atash kerak?” “Avval isbotlaysiz,—dedim.—Yig’ilishda! Manavi anketalar misolida. Hozir ayblovchining o’zini aybdor qilaman, deb urinyapsiz. Lekin aybning o’zini ham tushuntirasiz”. “Tushuntiraman! Lekin, hayronman, yana qanaqa isbot kerak sizga? Nima, meni yig’ilishda bu gaplarni aytolmaydi, deb o’ylaysizmi?” “Boybo’ribiy” ilonday buraldi: “O’rtoqlar, ukalar, arzimagan narsani deb... Mahdijonning gapi hech noto’g’ri emas. Abdiqulov bu ishni dushmanchilikdan qilmagan bo’lishi mumkin. YAqinda qishloqdan kelgan, oliy o’quv yurtining tartib-qoidalarini bilmaydi. Rayono-payono o’lchovi bilan yurgan odam-da. Balki u bizga yaxshilik qilishni ko’zlagandir. Komissiya xulosasiga, Mahdijon to’g’ri aytdilar, bunaqa “provokasiya-mrovokasiya” degan gaplarni kiritish shart emas. Asli o’zi shunaqa-yu, endi, nima qilaylik, burnim

sassiq, deb kesib tashlolmaymiz. Kecha o'zimiz Abdiqulovni quchoq ochib qarshi olsak-da, bugun ketiga tepib yuborsak, yaxshi emas. Tushuntiraylik, tarbiyalaylik bu galcha kechiraylik. Adashib jar yoqasiga borib qolgan odamni to'xtatish o'rniga, itarib yuborsak... Shaxsan o'zim yaxshi ko'raman shu odamni, achinaman: kelganidan beri bitta kostyum-shimda yuribdi! Balki unga moddiy yordam kerakdir. Hovli olaman, deb ancha qarzga botganini eshitdim, kvartira olib berolmayganimizdan ezilib ketdim, ishonasizlarmi, juda ezildim. Ba'zan ish-ish deb, odamni unutib qo'yamiz. Kelinglar, mayli, bu yil, ran oramizda qolsin, bittayarimta odami bo'lsa, to'g'ri menga uchrashsin, har kimga sarg'ayib yurmasin, to'g'ri o'zimga uchrashsin, bo'ynimga olaman. Mayli-da, kim-kimlarga yaxshilik qilmaymiz, o'zimizga ham qarashaylik. Qapzini uzsin, ko'ragini ko'tarib yursin. Menimcha, keyin bunaqa noma'qulchiliklarni takrorlamaydi... Bunday, yaxshisi, Ahrorjonga topshiraylik, iltimos, Ahrorjon, dekanat bilan partkomning osobiy zadaniyasi — komissiya xulosasini uyda yozib, ertagtayyor qilib kelasiz. Bu erda aytilgan hamma fikrlarni inobatga olasiz: boya o'zingiz aytgan gaplar, anketalar savodsizlik bilan tuzilganligi, oqibati, hm, yana... endi, buyog'ini o'zingiz to'g'rilaysiz, lekin takror aytaman, oshirib yubormang, Mahdijon ham juda to'g'ri taklif kiritdilar, boyagidaka gaplarni yozib yurmang, oramizda qoladi. Rektorat ham qistoqqa olyapti, ularga tezroq etkazish kerak xulosani. Ular ham o'qib, iya, orangizda provokator paydo bo'libdi-da, tezroq, dumini tuinglar, deb qolishsa, Haqberdijonga ham yaxshi bo'lmaydi, ha, bir insonni, olimni yo'qotib yuborishimiz mumkin, keyin qachon o'nglanadi? Oshibka joylarini ukazat qiling, ma'qulmi? Bir kuni kelib unga qanday yaxshilik qilganimizni o'zi tushunib olar... Keyin o'rtoqlar, bu masalani partmaylisga qo'yib, hammaning dilini og'ritib yurmaylik, juda xunuk gap, keyin boshqa joylarga o'rmalaydi, har xil gap-so'z... Komissiya xulosasi oxirgi nuqta bo'lsin, deyman. Mayli, ertagami, keyinmi, Haqberdijonning o'zini taklif qilaylik, komissiya fikri bilan tanishtiraylik, xatolarini mardlik qilib bo'yniga olsin, biz ham mardlik qilib, ayrim joylarini yumshatamiz. Endi, bu qog'ozlarni mening seyfimga bekitib qo'ysak, tag'in bittayarimtaning ko'zi tushib..." o'zimni bosganim sayin, bosilib-yanchilib ketayotganday bo'ldim-da: "Bu erda komissiya tekshirishi emas, teatr tomoshasi ketayotganga o'xshaydi", dedim, gapimni davom ettirolmadim, Suhrob lovillab berdi: "Nega sizning seyfingizga gumdon bo'lishi kerak? Nega hammamizning nomimizdan Sunnatov yozadi? Bunaqa ekan, Orzimurodov, Sunnatov uchovlaring yozib qo'yaveringlar edi! Komissiya deb bizni qo'g'irchoq qilish shartmidi?" "Boybo'ribiy" alplar zamonida yaratilganidan beri bunaqa jizzaki to'g'riso'zlarni ko'raverib, pishib ketgan edi, yana buraldi: "Meni tushunmadingiz, Suhrobjon. Pishirib eymanmi bunaqa qog'ozlarni? Nahotki menga kerak, deb o'ylasangiz? Tag'in yo'qolib-netib, Abdiqulovning tadqiqoti chippakka chiqib yurmasin, degan niyatda aytdim-ku. Komissiya bir xulosaga kelsin, keyin o'ziga topshiramiz — ishlayversin. Umum ishimizga yordam. Xulosani tezroq yozsak, Abdiqulovga ham yaxshi emasmi— ishi to'xtab turibdi. Men shu tomonini o'ylayapman. A, Ahrorjon, fikrlaringizni bir tartibga solgandan keyin, o'zingiz ham ko'rasiz, qo'l qo'yib berishingiz kerak-ku. Keyin, Mahdi Ashrapovich, shunday nozik ishni tomosha deb, bizni ham artistga chiqarib qo'yganingiz yaxshi emas, mayli, men bu

gapni hazil, deb tushunaman. Sizni shaxsan men ham, kollektivimiz ham juda hurmat qilamiz. Tartuga borib, shuncha e'tiborli, nomdor odamlar qatorida sizning dokladingiz ham ta'kidlab o'tilganiga qancha quvondik! Mana, Olmaotada ham sizni Ayvar Kalnin sh degan fol klorshunos so'radi: "Qanday yuribdi?" dedi. "Juda yaxshi, juda yaxshi, juda iste'dodli odam, etuk olim, yaqinda yoqlaydilar", dedim, bag'oyat xursand bo'ldi. O'sha erning o'zidayoq "Avtoreferatlarini shaxsan o'zingizga yuboramiz, bitta quling o'rgilsin taqriz uyushtirib berasiz", deb va'dasini oldim. "Pajalista", dedi. Doktorlik yoqlash juda og'ir ish, mana, hozirdan yordamni tayyorlayapmiz, shoshib qolmang, deb. Mana shu g'alvalar o'tsin, sizga albatta sharoit yaratib beramiz. Gapim qat'iy lekin". "Sunnatov yozgan xulosaga indamay qo'l qo'yib bersam, meni ham dosentlikka o'tkazsangiz kerak,— deb uzib oldi Suhrob.— Hujjatlarni tayyorlayveraymi?" "Boybo'ribiy" qo'llarini ikki yonga kerdi: "Ana xolos, shunaqa qilmang-da, endi, Suhrobjon! Dosentlikni men bermayman, VAK tasdiqlaydi-ku, axir. Hay, dekanman, lekin fakul tet menga otameros emas-ku, doim shu ishda tursam. Bugun — men, ertaga — siz. Dosent ham bo'lasiz, professor ham... Hali bu gaplarni eslab kulishib ham yuramiz. Xudo xohlasa, Mahdijonning zashitasini eson-omon o'tkazib olsak, dekanlikni shaxsan o'zim qo'sh qo'llab topshiraman. Charchadim, shunaqa g'alvalar deb ilmiy ish qolib ketyapti, men ham doktorlikni yakunlab olay..." "O'rtoqlar masaladan juda uzoqlab ketdik,— dedim, Begaliev menga yalt etib qarab oldi.—Mayda-chuyda gaplarni qo'yib turaylik. Dekanlik to'g'risidagi mish-mishlarni oldingi majlisda aniqlab oldik, bu masalaga qaytmaylik". "Men to'g'risini aytyapman, Mahdijon,— dedi "Boybo'ribiy" gul-gul ochilib.— Agar doktor bo'lsangiz, shu ishni sizga topshirmagan nomard!" Uning gapini eshitmaganga oldim: "Meningcha, bunday, komissiya xulosasini shu erda, hammamiz birga yozamiz. Anketa so'rovi natijalarini, o'sha oldingi kelishganimizday, yig'ilishga qo'yamiz. Xulosamiz ham shu faktlar asosida bo'ladi. Agar, Mahmudali aka, anketa so'rovi o'tkazish jarayoni noto'g'ri bo'lsa, Haqberdining o'zi tushuntirish beradi: nima maqsadda, nima uchun qilgan, bu yo'lning noto'g'ri ekanligini bilganmi, yo'qmi — aytadi". "Men ham shuni aytyapman-da, Mahdi Ashrapovich,—dedi "Boybo'ribiy" engil tortganday.—Mutaxassislar bilan gaplashdik. Pednaukka bordim, o'zimizning psixologiya kafedrasidagilardan aniqladim, hammasida bir gap—narushenie, grubeysee narushenie! Faqat... yig'ilishga qo'ysak, unda... Abdiqulovga ofisial niy chora ko'rishim kerak bo'lib qoladi-da. Taqdirini o'ylayapman, qarang, qancha odam to'g'risida yomon gaplar... Talab tashlashmaydimi? Zo'r bilan olib qolsak ham, keyin, hammani o'ziga dushman qilib, qanday ishlaydi?!" "Mayli,— dedim,—bu tomonini dekanat, partkomning o'zi hal qiladi. Shunaqa maxsus qaror bo'lsa, Haqberdi tegishli jazosini olar. Lekin men uncha ishonmayman: anketa degan narsa mavjud ahvol to'g'risida ob'ektiv fikr to'plash, buning yo'llari qanday qilib cheklab qo'yiladi? Komissiya degan otimiz bo'lgandan keyin, yig'ilishgacha buni ham aniqlashimiz kerak. Lekin, nima bo'lsa ham, Abdiqulovning anketa so'rovi o'tkazishi faktlarni ochiq-oydin qilib qo'ydi..." "Mahdijon,— deb meni gapdan to'xtatdi shu paytgacha o'zini mudraganga solib o'tirgan Begaliev.— Siz fanda juda zo'r odamsiz, ammo hayotda hali juda yoshsiz". "Domla,—dedim men ham uning gapini kesib,—gap hozir mening g'o'rligim to'g'risida emas, kattaroq

narsa — haqiqat to'g'risida ketyapti. Bu erda hadeb eshakning go'shti haromligini muhokama qilib, mehnatini gapirmayapmiz". Begaliev qaddini rostlab o'tirdi, chinakam ilmiy bahsga hozirlangandek, jiddiy tortdi: "A, xuddi shu masalada yoshsiz! Bu erda eshagingizning go'shti ham xarom, mehnati ham, kechirasiz-u, harom. Ya'ni ochgan haqiqati ham, agar uni haqiqat, deb qarajak ham, ob'ektiv emas. Sub'ektiv! Ha-a, sub'ektiv! Hozir isbotlab beraman. Birinchidan, bu anketalarni osmondan tushgan farishtalar emas, o'zimiz o'qishga qabul qilgan bolalar to'ldirgan..." "Nima, Abdiqulov boshqa fakul tetning bolalariga to'ldirtirishi kerakmidi?", dedi Suhrob ajablanib. "Shoshmay turing, uka, sizga emas, Mahdiga gapiryapman, — dedi Begaliev uni siltab. — Ikkinchidan, ularni, qay tartibda qabul qilganmiz? A? Nechtasi o'zi kirgan? Birovi—ukalaring, birov— xotinalaringning ukalari, katta ammangizning kenjasi, kichik xolangizning to'ng'ichi... Har gruppada, bo'lsa, o'zi kirgan ikki-uchta, boringki, beshta bordir. Xo'sh, Mahdining odami yo'q, sezdirmay kiritgan bo'lmasa, bilmadim. Lekin, mulla Suhrob, siz nechta odam kiritgansiz? Faqat to'g'risini ayting". Suhrobning rangi yana oqardi: "Men hech kimdan yashirmaganman: bitta ukam bilan bitta qaynim o'zimizda o'qiydi. Opamning o'g'lini fizmatga kiritganman, buni ham aytishim mumkin. Uchchovi ham "a'lo"ga o'qiydi. O'zim shu erda ishlab, boshqa institutga olib borishim kerakmidi? Menda unaqa pul yo'q..." "Sizni ayblamoqchi emasman,— dedi Begaliev.—hammalarining shunday". Mening jahlim endi chiqdi: "Sizda-chi, domla? Hozir shu muhokama qiladigan masalami? Anketalardagi faktlarni ranlashaylik". "E-e,—dedi ko'zlarini javdiratib "Boybo'riby",— necha marta Beknazar Turdievichga aytdim, bunaqa sharoitda ishlab bo'lmayapti, bo'shating, deb. Hammaga yaxshilik qilasan, bir yomonlik kelsa, yolg'iz o'zing qolasan. Hamma yordamingni olganlar chetga chiqib, tomosha qilib turaveradi". "Meniki juda ko'p, Mahdijon,—dedi Begaliev ko'ngli yumshab,— qanchasi bitirib ketdi, qanchasi o'qiyapti, qanchasi, xudo menga umr bersa, endi keladi. Hammamiz ham shunday. Mana, Orzimurodov nega har yili yozda qabul komissiyasiga pashshaxo'rda? Ahror Mahmudaliga buncha yopishib olgan? Mahmudalining o'zi buncha qaltiraydi? Shu haqda biron marta o'ylab ko'rganmisiz, Mahdijon? Ustingizdan shisha qalpoqni bostirib olib, menga gard yuqmaydi, deb umid qilasiz... Menga bunaqa jahl bilan qaramang, uka. Sal ko'zingizni kattaroq oching, demoqchiman. Boyagi gapimning ikkinchi tomoni, anketadagi manavi raqamlar, "musbat-manfiy"lar shuning uchun ham haqiqat bo'lolmaydiki, sub'ektiv tomonlar sub'ektiv tomonlar to'g'risida chala fikr bildiriyapti. Fakul tet yomon ahvolda ekanmi, demak, tarbiyaviy jarayon juda yomon, demak, talabalarning saviyasi ham juda past, demak, o'qituvchilarni ham, talabalarni ham birgalikda tozalash kerak. Buni birdan qilolmaysizlar. Shuncha talabga javob berolmaydigan o'qituvchini bo'shatish kerak bo'lsa, demak, shunga teng foizda talabalarning ham bahridan o'tish kerak. Uqdingizmi — yomon ishchini haydagandan keyin, uning brak mahsulotini ham bir balo qilish kerak-mi? Mening taklifim bunday,— dedi Begaliev kutilmaganda,—o'sha shum Abdiqulov bilan kelishinglar-da, ishni yopdi-yopdi qilinglar. O'ziga tushuntiringlar, talabalarni to'planglar, bir chiqish qilib bersin, shoshma-shosharlik qilganini tan olsin. Keyin manavi kog'ozlarini o'ziga beringlar, pishirib eydimi, chalpak qilib

sotadimi — o'zi biladi. Bunaqalarga qarshi kurashganlaring sayin kuch oladi, oxiri yaxshilikka olib kelmaydi. hech qanaqa komissiya xulosasi, partmajlis kerak emas. Maslahatim shu” “Bo'lmagan ran,—dedi Suhrob yana ko'tarilib.— Ishni shu holda qoldirmaymiz. Bu — kompromiss yo'li!” “Biz keksalarning yo'li shu, uka,— dedi Begaliev o'rnidan turib.— Siz yoshsiz, peshonangiz toshdan, devorga uravering, g'ayratingiz ko'p: yo devorni yiqitasiz, yo peshonani yorasiz... Endi menga javob. Mahmudali, yana o'n besh kuncha ko'rinolmayman-da — shu ishni bitiray”. “Boybo'ribiy” juda mutaassir bo'ldi: “Bosh ustiga, domlajon, lekin bu erda o'zingiz turmasangiz, shunday og'ir kunlarda... mayli... bu notinchliklar bir kog'ozgina maqolaga arzisa edi.O'ralashib qoldik-da. Siz boravering, domlajon, shunday qilamiz”.

Sunnatov irg'ib turib Begalievni kuzatishga chorlandi. “Ahrorjon, sizga bir maslahat, uka,—dedi professor xona o'rtasida bir muddat to'xtab,—ko'p ham suvni loyqalatmang, faqat o'zingiz emas, boshqalar ham atrofni ko'rolmay qoladi. Mayli, suzib ketavering, faqat loyqalatmay...” Sunnatov qaytib o'tirdi: “Men loyqalatmayapman, domla, loyqalatganlarni o'zingiz ko'rolmayapsiz”, “Hay, mayli, gapni gapir uqqanga, deyilgan ekan”, dedi Begaliev eshikdan chiqa turib.

Begaliev ketdi-yu, shuncha gaplashganimiz bir tiyinga chiqdi, g'urbatimiz qayta boshlandi: “Boybo'ribiy” anketalarga to'r to'qib, tepasida o'tirib oldi, Orzimurodov yig'lamsiradi, Sunnatovning ko'zlari zirk-zirk o'ynadi — Suhrob ikkovimiz ularning qay yog'idan aylanib o'tishni bilmay, burilib qolaverdik.

Keyin Suhrob aytadi: “Haqberdini tushunmayapman...”

Men aytaman: “Haqberdini bilaman...”

Keyin Suhrob aytadi: “Men ketaman...”

Men aytaman: “Men ketmayman...”

Odamlarni faqat maqsadning o'zigina do'st qilolmas ekan.

Men ilgari ilmga uncha ham qiziqmaydigan, adabiyotning tarbiyaviymi, ma'rifiymi ahamiyati to'g'risida dissertasiya yoqlab olib, endi darsini latifayu hangomalar bilan o'tkazadigan, mardona gurunglarni quvlab yuradigan, oldidan chiroyli qiz o'tib qolsa, gapirayotgan gapini unutib qo'yadigan Suhrobni uncha xushlamas, hatto otini ham tilim kelishmaganday “Surob” deb aytar edim, uning tantiligi ham ko'zimga oliftalik bo'lib ko'rinar edi.

Yo'q, u chindan ham halol-tanti odam ekan: “O'ylab ko'rsam, shu talabalarning sub'ektivligi rost—bo'lmasa, menga ham to'qson ikkiyu to'kqiz foiz “musbat” qo'yishadimi? Dars o'tishim Sunnatovnikidan hech ham avlo emas. O'zimni yaxshi ko'rishsa kerak-da, a? Ja noqulay-e!”, dedi va o'n-o'n besh kun ichida “Bilim” jamiyatidan ish topib o'tib ketdi. “Ketgim kelmayapti-yu, lekin o'zing kurashgan narsaga o'zing noloyiq bo'lgandan keyin... keyin, buyog'iga “Boybo'ribiy” ham meni shunday qo'yib qo'ymasa kerak, obruyim borida etakni yopganim ma'qul. Sizga o'xshab kallasiga monografiyalarim bilan tushirolmasam...”, dedi...

Ochig'i uni to'xtatib qolishga ko'p ham urinmadim: g'urbatning buyog'iga o'zi ham dosh berolmas edi: yo achchiq ustida "Boybo'ribiy"ni urib mayib-sayib qilardi, yo... bilmadim, harholda, u—Haqberdi emas edi.

Bungacha ham o'zi ikki oyga cho'zilgan mashmasha Haqberdidan bo'lak hammaning sillasini quritgan, odamlarga bu ishning qayoqqa, kimning foydasiga bitishi bari bir bo'lib qolgan,— ishqilib, yakunlanishi kerak edi..

Avvaliga "Boybo'ribiy" anketalarda yomon "baho olgan" o'qituvchilardan anchasini Haqberdi bilan Suhrobg qarshi qayradi, to'dani bo'lib ur qabilida ish tutib, qo'lidan kelgancha men bilan yovlashishdan qochdi (hozirgacha), bilamanki, bundan keyin ham ("Mahdijon, sizni avaylashimiz kerak, yaqinda yoqlaysiz, fakul tetimizning obro'siga obro' qo'shishingizni intizorlik bilan kutyapmiz", deb chap berib kelyapti), Haqberdi dim-dim o'ynayverdi, anketalardan boshdayoq oldirib qo'ygan fotonusxalarini (bermayman, deb yurgan odamning birdan qo'sh qo'llab tutqazganidayoq shunday qilganini sezgan edim) tegishli joylarga ko'tarib borishiini shama qilaverdi, janjal ko'tarilib-pasayib, barimizni horitdi, oxiri yana shu beshtamiz: "Boybo'ribiy", Sunnatov— men, Suhrob, tarafma-taraf qoldik. Orzimurodov ham malaka oshirishimga bir borib kelay, deb ketganicha badar ketdi.

Yo'limizni Haqberdining o'zi boyladi: Suhrob ikkalamiz anketalar bilan bir tanishgandan keyin, qayta ko'rolmadik: asli Orzimurodovning seyfida, "Boybo'ribiy"ga ishonmay, o'zimiz qulflaganmiz, endi egasi dumini tutqazmaydi, keyin bilsak, kalitni "biy"ga berib ketgan ekan; nusxalarini Haqberdi bermaydi, ustida qattiq ishlayapman, deydi, gazetaga maqola qilayapman, deydi, ministrlikka olib chiqaman, deydi, olib chiqsammi, deb turibman, deydi,— dastimizda dushmanga uradigan qilichning o'zi yo'q, quruq qo'limizni o'qtalib, ahmoq bo'lib yuraverdik...

Bu orada o'n besh kun ko'rinmayman, degan Begaliev ham qaytdi, yana shunchaga javob olib ketdi, lekin ora-sira ko'rinib, hoy, haliyam tinchimadinglarmi, deb ko'ngil so'rab turdi. Bir marta qo'ltig'imdan avaylab tutib, sayrga boshladi, u doim ishga piyoda kelardi, men uni kuzatib qo'ygan bo'ldim: "Mahdijon, dedi u juda-juda halim ovozda,—etmish to'rtga chiqdim. Shu, desangiz, hozir kallamga g'alati o'y keldi. Agar xudo insonga boshqa odamlarning hayotini yashash imkonini bersa... Tushunyapsizmi? Mana, sizga hafta vaqt ajratilsa-da, shu vaqtda siz meining o'rnimga yashab ko'rsangiz, men eslaydigan narsalarni eslasangiz, ko'rgan-bilganlarimni his qilsangiz. Ishonamanki, qiynalaringiz, lekin o'zingiz uchun ko'p foyda olaringiz. Men yiqitgan odamlarning hammasi sizga o'xshagan edi. Ularning xatolarini ham bilardingiz. Hay, ana, deylik, men ularga yomonlik qilganman, ular-chi? O'zlariga yomonlik qilishmadimi? Meni engaman, deb qancha ishlari qolib ketdi. Chala adolatparvar, chala olim bo'lib qoldi. Ilm ahliga bir-biri bilan kurashib yurish ko'p ham foyda bermaydi. Kim biladi deysiz, shunaqa kurashlarni Mahmudali bilan Abdiqulovning o'ziga tashlab qo'yib, ilm bilan shug'ullanishdan chalg'imaslik kerakmi? Aqli odamsiz — nima demoqchiligimni tushunyapsiz. Huv anavida sizga noto'g'ri

gapirdim. Bekorga kuyib-pishib yurmagandir, bir maqsadi bordir, deb o'ylagan edim... Dekan bo'lishni xohlamaysiz, amalni yoqtirmaysiz, nima qilasiz aralashib, ikkoviga qo'yib beravering. Hozir faqat halal beryapsiz. Agar siz aralashmaganda ikkovi allaqachon kelishib olgan bo'lardi. Mahmudali sizdan cho'chidi, Abdiqulov sizga orqa qiladi. Mahmudali sizning yuzingizdan o'tolmaydi, Abdiqulov esa... sizni aldaydi. Shu jo'rangiz, xafa bo'lmang-u, soddaligizdan foydalanyapti. Boshda, anketa so'rovi o'tkazaman, deb niyat qilgan paytdayoq, Mahmudaliga o'zining kuchi etmasligini va albatta sizning o'ziga qo'shilishingizni o'ylagan, aniq hisob-kitob qilgan. E-e, uka, mening yoshingizga etsangiz, men ko'rgan narsalarni ko'rsangiz, odamning siri qolmaydi. Bu bolaga fakul tetdagi ahvolni yaxshilashning hech qizig'i yo'q, o'zi mustahkamlanishi kerak, vassalom! YAxshilab o'rnashgandan keyin, hammasini qaytadan boshlaydi, Madhmudalining boshiga etmay qo'ymaydi. Keyin, o'lmasak, ko'rarmiz, balki sizni kavlar...— Professor meni o'ziga chindan ham yaqin olib gapirardi, men uni shu paytgacha yomon ko'rganimdan hijolatda edim.— Bir ran aytaymi, sizga kulgili tuyular. Ahror bilan Haqberdi jo'rangizning bir odam, bitta ittifoqdosh ekanini bilasizmi? Mana, qarang, Haqberdi boshladi, to'g'rimi, Ahror esa moy quydi. Shuncha mish-mish, sizning dekanlikka intilishingiz haqidagi bema'ni gaplar qaydan chiqdi? Siz

bilmaysiz, men bilaman. Shu ish tinchisin, keyin ikkovining og'ayni bo'lishini ko'rasiz. Men esa hozir ko'rib turibman... Bu gaplar oramizda qolsin, boshqalarga aytsangiz ham mayli-yu, o'zingiz bilasiz. Lekin o'ylab ko'ring. Men sizni yo'ldan qaytarish uchun aytayotganim yo'q...”

O'shanda ichimda: “Boshimni tuyog'ingiz bilan silamay qo'ya qoling”, deb zaharxanda qilgan edim, ammo, keyin bildim: professor suvga qarab gapirgan ekan...

Biroq na bu ko'pni ko'rgan professor, na “Boybo'ribiy”, na Haqberdi, na Sunnatov bu ishlarning qanday yakunlanishini to'g'ri topdi, men esa taxminan bilardim, ko'nglim sezardi, nimadir... bir kuch— odamlarni harakatga keltiradigan nimadir bir narsa qo'zg'alganini ilg'ab yurgan edim, shunday bo'ldi: umumiy majlisda Haqberdi hammaning o'rtasiga chiqib, xatolarni tan olib, kechirim so'ragandan keyin, “Boybo'ribiy” xudoga shukr qilib, endi bemalol ishlashga o'tgandan keyin, ular esdan chiqarib qo'ygan, hisobga olmagan talabalar, talabalar kutilmaganda bosh ko'tarishdi... Har qalay, endi menga ancha oson, ilgarigiday kuyib-pishib yurishim shart emas, to'g'risini aytmaslikka imkon ham yo'q, keyin shuncha talabaning ko'ziga tik qarab dars berish xakida gapirma ham bo'ladi... Faqat Haqberdiga og'ir — bir tomondan endi topishdim, o'rnashdim deganda Mahmudali akasi bilan Sunnatov jo'rasi undan yana shubhada qoldi, ikkinchi tomondan talabalar...

Haqberdi to'qimoqchi bo'lgan ertagini oxir qilolmadi, to'g'rirog'i, aslida, uning ertagi yo'q edi.

Endi bu uzoq ran, davom etyapti, aniq bir xulosani hozircha aytolmayman.

Bir narsaga hayronman...

O'zi men ko'p narsalarga hayron bo'lib yuraman: bugun Ofiyat manti qilaman, deb xamir yoyayotganda qara-ab turib, zavqim keldi: bir gaz taxta, bir gaz tayoq bilan xamirni shunday yupqa yoyish yo'lini o'ylab topgan insonning aqliga balli-e, dedim, kim birinchi o'ylab topgan shuni, a,mana,qasqon" degan so'zni

qara, qaydan kelgan, nima degani, nimani bildiradi, Ofiyat kulib, ochqabsiz-a, dedi, qara, dedim, hamma so'zning ma'nosi bor, "qasqon"nikini bilmayman, "ochqabsiz"—"ochiqabsiz"—"och qolibsiz"—"och" so'zidan, lekin "och" deganining o'zi nimadan, ilgari odam ovqat egisi kelganini og'zini ochib bildirganmi yo ovqatga qarab og'zini ochishidanmi, qizik, mana, odamni ol, ismi bilan tug'ilmaydi, ism unga keyin qo'yiladi, to'g'rimi, mana, men—Mahdiman, boshqa ism qo'yishlari ham mumkin edi-ku, deylik, xo'sh ana, Ma'ruf, Ofiyat, qo'ysangizchi, dedi, shoshma, kulmay tur, Ma'rufman, demayapman-ku, chaqaloqning ismi peshanasiga yozig'li bo'lmaydi. Komronga men "Mansur" deb ot qo'yaylik, dedim, sen —"Behzod", oxiri guvohnoma obormasa, tug'uruqxonadan chiqarmasligini bilgandan keyin, shoshib-pishib "Komron" deb yozdirib keldim, tasodifan esimga kelib qoldi, endi uni Behzod deb ko'r — bo'lmaydi, u endi—Komron, Behzod ham emas, Mansur ham emas, faqat Komron, ism endi uning o'zini bildiradi, Komron — uning tovushi, ovozi, mendan "Mahdi" degan tovushni olib tashla, hech narsa, tushunasani, hech narsa bo'lib qolaman yo'qolib, chunki, ism —shaxsiyat, Mahdi — menman, Mahdi desang, ko'z oldingga mening dunyom keladi, yana Mahdi ismli odamlar bor, lekin ular boshqa Mahdi, boshqa dunyo, Ofiyat, siz faqat o'zingizning emas, bizning ham dunyomizsiz, meniham, shu uch farzandimning ham ishongan dunyomizsiz, dedi, yo'q, men boshqa narsani tushuntirmoqchi edim, lekin ezmalanib ketdim, aytmoqchi edimki, hozir shu Mahdi degan dunyo — och, muncha imillaysan, ke, o'zim tugishib yuboray, e-e, buni qara, "tugishib yuboray" "tug'ishib yuboray"ga o'xshab ketar ekan; "tugish"—"tug'ish", bir-biriga tamom teskari so'zlar, lekin uyqash, sening xindiy tilingda "larka"—o'g'il, "larki"—qiz, farqi bitta tovush, qaydan paydo bo'lgan shu so'zlar, nega uyqash, yaxshi ham tilshunos emasman — hammaning ensasini qotirib yuborar ekanman, lekin har bir odamning ismi uning o'zida yashirin...

Hayronman bir narsaga: odam nega ming turlanadi, hamkasbing bilan bir yil, ikki yil, besh, o'n yil birga ishlaysan, miridan-sirigacha bilasan, ichigacha ko'rib turasan, lekin senga qarab turlanadi, koshki turlanayotganini bilmasang, lekin turlanaveradi-turlanaveradi, boshing aylanib ketmaydi, chunki birga ishlagandan keyin, endi shunday turlanmasak bo'lmaydi, deb sen ham unga qarab turlanasan, go'yo u seni bilmaydiganday...

Men operani haligacha tuzukroq tushunmayman, to'g'risi umuman tushunmayman, hatto unisi bunisini o'ldirmoqqa chog'langanini ham qo'shiq qilib aytadi; "Ho-ozir se-ni su-ya-ma-ano-o-o!", bunisiga qarab turaman, hozir "E-e, suysang ham, odamga o'xshab gapirib so'y!", deb jerkib berar, deb kutaman, qayoqda, bunisi undan ham cho'zadi: "O-o-o—u-u-a-a-a, xo-om-ta-ama-a-a bo'-o'-o'l-ma-a-a-a!.." Lekin bundan ensam

qotishini hech kimga aytmayman. “Juda yuksak san'at-da shu”, deyman, mayli, shuncha odam tushungani etar, bitta mening aqlim etmasa-etmas, nimadan qo'rqaman, dsmayman—turlan olmay qolishdan qo'rqaman shekilli...

Ba'zan emas, hammavaqt!

“Boybo'ribiy”ning ichi shundoq ko'rinib turadi, lekin nahotki meni unaqa odam, deb o'ylaysizlar, mana, qarang, yaxshilab qarang, men o'zi bunaqa odamman, deb turlanaveradi, u o'ynagan nag'maga Sunnatov ham tushadn, dunyoda raqqos ko'p, lekin kuy bitta deb kir badanini ustidagi laxtak-laxtak jandalari bekitolmasa ham, chiroyli ko'rinyapman, deb bu kishi ham xirom qiladilar. Orzimurodov bechora shunaqa sodda shumki, shum deb atash uni haddan oshiq ulug'lash bo'ladi, ammo shu ham beo'xshov, alpang-talpang shox tashlashini qo'ymaydi — qara-a-ab turib-turib zerikasan, oxiri, zerikish ham joningga tegib, xunobing oshadi...

Odamlarning ko'ngli shaffof, shu qadar shaffofki, hatto, ichidagi hali o'ylanmagan, ertaga, bir yil keyin, o'n yil keyin o'ylaydigan o'ylarigacha ko'rinib turadi—albatta, zerikasan, “Boybo'ribiy” bilan Sunnatovning ko'nglini ko'rib turib, har kuni ko'raverib zerikmay bo'ladimi?!

Ba'zan emas, hammavaqt hayron yuraman: qochgan ham, quvlagan ham bitta—g'olibiyat qo'shig'ini aytadi, “Boybo'ribiy”ning yonidagilar ham umum ishini yaxshilaymiz, deb xonish qiladi, biz ham umum ishini yaxshilaymiz, deb ashulani varanglatamiz, ular ham haqiqatning pardalariga tushyapmiz, deyishadi, biz ham haqiqat kuyiga o'ynayapmiz, deymiz — haqiqatning o'zi qaerda chalinyapti?

Nega qo'shiq aytib gaplashamiz, deb o'ylayman, nega to'g'ri, ochiq, insonga o'xshab gaplashib ololmaymiz, deb xunobim oshadi — turlanishdan to'xtab qolaman.

Yaxshigina oti bor bu odamning—Mahmudali, kelishgan, barvasta gavdasi bor, agar turlanavermasa, to'xtab o'zini ko'rsatsa, xudo menga shunday qomat bermagan-da, a, qanday yarashirli odam, deb havaslanish mumkin...

Sunnatovning otini qarang—Ahror, nimasidir, toza, salqin bir shabada kelayotganday ismidan, otasi kitob ko'rib, ming umidlar bilan shunday ulug' ism bergan, turlanmay tursa, bu qandoq mutafakkirning dono siyog'i ekan deb, to'lqin-to'lqin kumushrang tovlangan sochining o'zini soatlab tomosha qilish mumkin...

Yana o'ylayman: avval o'zingga boq, balki ularning ko'ngillarini ochishlariga o'zim xalal berayotgandirman, balki ular ham meni shunaqa yomon deb o'ylashar: qara, Mahdi degan purma'no oti bor, ko'rinishi ham binoyiday, ammo o'zi... nega buncha...hadeb...

Yana o'ylayman: odamlar o'zlari to'g'risida haqiqatni sevmaydilar, boshqalarning astarini avrasiga ag'darishadimi, bemalol: nega u bizga o'xshab... biz nima uchun kurashayapmiz-u... bu ustomon hayronmiz, koshki bilmasak...

Odamga doim boshpana – boshini bekitib yurish uchun pana joy kerak, faqat uy emas, odam o'zi yashaydigan torgina muhitda ham munosabatlardan boshpana qurib oladi. Munosabatlarni boshga pana qilib yuradi, Deb o'ylayman. Yana adashib ketaman – o'zini o'rab qo'yyigani odam qanday yuradi, deyman. Adashganimni axtarib ketayotib, bir chegaraga borib qolaman. Bir devor tiklanadi qarshimda – oynaday, ortimdagi hamma narsani qaytaradi, qarab boraman – Ofiyatni, bolalarimni, Isrofilni, Shodi akani, Tangirni, Haqberdini, Mahmudali akani, Suhrobni, Sunnatovni, Orzimurodovni, Begalievni, hamkasb, tanish-bilish hammasini qaytaradi, mana shu sening dunyong, Mahdi degan dunyo shu, Mahdi, daydi, lekin hech narsani tushuntirmadi, o'zining ortida nimalar bor - ko'rsatmaydi, men esam narigi yoqda sirlar ra-avshan, kunduzlar tiniq, tunlar yorug' ekanini sezib turaman, usti uzoqdan ko'z ilg'agan shahar osmoniday nurlanib-tovlanadi, mana shu munavvarlik nimadan ekanini angalay-anglay deganimda, charchab qolganimni tuyaman-da, quvvat olish uchun, yashash uchun orqamga o'girilaman, aksning aslga – o'zimning dunyomga – odamlar orasida yashashni sevaman – yashash poklik ekanini, umrimni to'la yashashim zarurligini tushunib qaytaman, uzoq to'xtab o'ylayman.

O'ylayman: men – Mahdi, boshqa odam bo'lib chiqarmidim, shu turish-turmushimda o'zga bir Mahdi otlik begonaning hayotini yasharmidim?

Balki, balki...

Charxning kaj raftori o'zgarganda, shunday bo'lvi hech ran emas edi.

Lekin o'zgarmadi. Shuncha tasodiflar silsila-silsila kechib, qo'shilib-bog'lanib, ayni shu meni bunyodga keltirdimi, demak, boshqacha bo'lvi mumkin ham emas ekan.

Mana, shu men borman, o'z hayotimni yashayapman— ayni shu Mahdiman.

Ba'zan hatto shunday ham tuyuladi: Shodi aka degan odam o'tmagan, Tangir degan jo'ram bo'lmagan, Haqberdi degani o'qishda ham, ishda ham menga yo'ldoshlik qilmagan, hatto fakul tetdagi hamkasblarim, talabalar ham aslida yo'q, hammasi—o'zim, o'zimni ularga bo'laklab, hammasining umrini yashayapman: manavi bo'lagim—Shodi aka, manavinisi—Tangir, anavi bo'lagim—Mahmudali aka, anavinisi—Haqberdi... Men bitta odam emasman, men— tumonatman, chaman odamzorman, to'p pulday turlanib, bu dunyoda qanday yashayapman o'zi, og'aynilarim, deb o'ylanib-gullab turibman..

“Yil o'tgan sayin sizga o'xshab boryapman,— deydi xotanim Ofiyat.— Narsalarga xuddi siz qaraganday qarayman, siz o'ylaganday gapiraman, sizga o'xshab o'ylayman...”

“Ofiyat,—deydi ichimdagi o'zini haddan ortiq yaxshi ko'radigan Mahdi,— uchta bolamiz bor, ular bizga o'xshamoqchi; menga o'xshaganing yaxshi — ularni bitta odam bo'lib tarbiyalashimiz kerak... Yaxshi eru xotin — aslida, bitta odam...”

“Portretingni chizaman, deb ko'p urindim, — deydi uzilib-uzilolmagan do'stim Isrofil. — g'alati bir niyatim bor: sening yuzingda o'zimni

ko'rsatmoqchiman. Tushunyapsanmi? Shuncha yil do'stlik qilganimizdan keyin, sendan menga, mendan senga ko'p narsa o'gan, ko'nglimizda sheriklik bor. Mana, ikkalamiz birga turib oynaga qaraylik... Qapa, yuzimiz o'xshamaydi, lekin qarashimizda nimadir o'xshashlik, yaqin ifodalar bor-a?.. Yo'q, sen yaxshilab qara — izlasang topasan. Men shundoq ko'rib turibman-ku, sen ko'rmaysan?.. Ammo bu o'xshash ifodalar harakatda emas, qotib qolgan, xotiraga aylangan. Keyingi yillarda bir-birimizdan ancha uzoqlashdik. Men shu tuyg'ularni—xotira ifodalarni chizmoqchiman. Lekin yuzingda boshqa ifodalar ham ko'p, ko'pi menga begona, chizishga xalal beradi..."

Odamlar tag'in meni aqldan ozibdi, deb o'ylamasin, deb atrofimga alanglab, hech nim yo'qligini ko'rganimdan keyin, sekin ovozda "Mahdi!" deb chaqiraman — shu chaqirig'imning o'zi javob — ko'p, juda ko'p odam "Mahdi", deb javob berayotgan bo'ladi: o'zim, otam, ikkita buvam, ikkita buvim, ularning ota-onalari, ularning ham ota-onalari; Mahdi degan ovoz ota ildiz, ona ildizdan tubga — o'tmishga qarab tarmoqlanib boraveradi — bir olomon odamning nidosi bitta o'zimning ovozingga jamlanadi, misoli ulkan bir daraxtning tepasidagi baquvvat shoxday, zamonlar shamolida zirillab turganga o'xshab qolaman; juda chuqurlarga, tubsiz-nihoyasiz qadimlarga qo'sh tomir uzatganman — yuz yil, ikki yuz yilga... o'n beshinchi asrga, uninchi asrga, birinchi asrga, undan ham burunlarga: o'sha puchmoqlarda yuz-ko'zimi, qad-bastimi menga o'xshagan ajdodlarimning tomirida ham mening qonim oqqan-ku, tomirdan tomirga, tomirdan tomirga o'tib-o'tib, oxiri menga etib kelgan, mendan bolalarimga berilgan bu qon!..

"Mahdi!" deyman bor ovozim bilan — ming-ming urug'larim ko'plashib, shu ovozni bunyod qilishganday, tumonatning jo'r ovoqiday jaranglab—men shu zalvorli mingovozni ko'kragimdan chiqarolmaganimdan otimni tanimay yurgan ekanman, tuyqusdan engil tortaman: kimsasiz, ovloq bir orolda odam ovozigga zor turgan paytimda meni axtarib madadga kelgan ota-ona ajdodlarim otimni tutib chaqirishayotganday bo'ladi...

"Mahdi!" deyman entikib — asqartog'larim — avlodlarimni chaqirib boryapman, tovushim, o'g'illarim, qizimning ovozida qaltirab aks-sado beradi — jo'ralar, uz-ok yashayman!..

Uzo-oq mingovozlarni eshityapman ...